

PIRNAZAROV SH. A.

**SUZHISH NAZARIYASI
VA USLUBIYATI**



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

YOSHLAR SIYOSATI VA SPORT VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON DAVLAT JISMONTY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI



PIRNAZAROV SH. A.

**SUZHISH NAZARIYASI
VA USLUBIYATI**

O'quv qo'llanma

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'limgazining
2021- yil 23-noyabr dagi 500-sonli buyrug'iga asosan
5610500 – Sport faoliyati (faoliyat turlari bo'yicha)
bakalavriat ta'lim yo'naliishida tahsil olayotgan talabalar
uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan

Ro'yxatga olish raqami 500-182

CHIRCHIQ-2023

Taqrizchilar:

Korbut V.M. – O'zDJTSU "Suv sporti, eshkak eshish turlari nazariyasi va uslubiyati" kafedrasi professori, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan murabbiy;

Gafurov R.K. – Chirchiq olimpiya zaxiralari kolleji direktori;

ANNOTATSIYA

"O'quv qo'llanma"da suzish sporti turlarining rivojlanish tarixi, suzish nazariyasiini o'rgatishda oldiga qo'yiladigan vazifalar, dastlabki suzishga o'rgatishdagi usullar, suzish usullarini tanlash, ruhiy tayyorlarlik, O'quv guruuhlarini tashkillashtirish, Suzishga o'rgatishda qo'llaniladigan vosita va usullar, suzishga o'rgatish usullaridagi tayyorlov mashqlari, sportcha suzish usullari va dastlabki o'rgatish uchun quruqlikdagi imitatsion va suvdagi maxsus mashqlar kabi mavzular ilmiy va amaliy asoslar bilan atroficha ochib berilgan, shuningdek, suzish usullari bilan shug'ullanuvchilarning qon aylanish, nafas olish sistemalariga, asab tizimi, immun tizimiga ham alohida urg'u berilgan.

"O'quv qo'llanma" O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti bakalavr va magistratura talabalari, suzish ixtisosligi talabalari, suzish sporti turlari bilan shug'ullanuvchi sportchilar va suzish bo'yicha murabbiyalar uchun mo'ljallangan.

АННОТАЦИЯ

В учебное пособие приведена информация об истории развития плавания, о задачах плавания и первоначальных способах обучения плаванию, выборе способов плавания, опсихологической подготовке, организации тренировочных групп, о выборе средств и методов при обучении плаванию, подготовительные упражнения по методам обучения, подробно освещены с научной и практической точки зрения такие темы, как специальные имитационные упражнения для спортивных и первоначальных способов плавания на суше и в воде, особое внимание уделяется кровеносной, дыхательной, нервной и иммунной системе занимающихся.

Учебное пособие предназначено для студентов Узбекского государственного университета физической культуры и спорта, студентов специальности плавание, спортсменов занимающихся плаванием, а также для тренеров по плаванию.

KIRISH

Hozirgi kunda jamiyatning ishtimoiy va iqtisodiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda maktab o'quvchilarining jismoniy tarbiyasiga oid muammolar keskin yuzaga kela boshladi. O'sib kelayotgan avlodning jismoniy tarbiyasi tizimidagi dolzarb vazifalar sog'lom turmush tarzini shakllantirish, harakatlar faolligini oshirish, sog'liqni mustahkamlash hamda harakat imkoniyatlarini rivojlantirish uchun samarali uslub va vositalarni ishlab chiqish va ularni amalda qo'llashni o'z ichiga olmoqda. Jahondagi har qaysi mamlakatning ertangi kuni, kelajak taraqqiyoti birinchi galda o'z xalqining, yoshlarining jismoniy va ma'naviy kamoloti bilan o'chanadi. Hozirda davlatlar o'rtasidagi o'zaro musobaqa, kuch-qudratini namoyon etish bellashuvi, asosan, jismoniy tarbiya sohasida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish ijtimoiy siyosatning muhim yo'nalişlaridan biri etib belgilangan. Chunki sport aholi salomatligini mustahkamlash, yosh avlodni sog'lom va barkamol etib tarbiyalash orqali jamiyatda sog'lom turmush tarzini qaror toptiradi. Turli kasalliklar, yoshlar o'rtasida zararli odatlarning oldini oladi. Sport yuksak madaniyat, vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishda ham muhim o'r'in tutadi. Bu sohada erishilgan yutuqlar mamlakatni dunyoga tanitadi, barcha yurtdoshlarga g'urur-iftixon bag'ishlaydi.

Mustaqillik yillarda bu borada keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Aholining, ayniqsa, yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug'ullanishi uchun zarur sharoitlar yaratildi. Shahar va qishloqlarda zamonaqiy sport komplekslari bunyod etildi. "Umid nihollari", "Barkamol avlod" va "Universiada" musobaqalari yoshlarni ommaviy sportga, sog'lom turmush tarziga oshno qilish vositasiga aylandi. Iste'dodli bolalarni tanlash va professional sportchilarni tayyorlash bo'yicha uzliksiz tizim yaratildi.

Umumta'lim maktablari va bolalar sport majmularidagi mashg'ulotlarda qobiliyati ko'zga tashlangan o'g'il-qizlar, bolalar va o'smirlar sport maktablari, sport kollejlariga olinib, professional yondashuvlar asosida tarbiyalanmoqda. Oliy o'quv yurtlari va o'quv-yig'in mashg'ulotlarida mahoratini oshirmoqda.

Muhimi shundaki, davlatimiz rahbari mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish nafaqat bolalar va o'smirlarni, balki butun xalqni ommaviy sport harakatiga jalg qila oladigan o'ziga xos samarali tizimni shakllantirish, sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish ishlarining uzviy va ajralmas qismi deb bildi, bu sohadagi tadbirlarni o'zaro uyg'un va mushtarak tarzda tashkil etish taklifini berdi.

Bugun mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sport sohasida aholining turli qatlamlarini qamrab olgan samarali milliy tizim vujudga kelgani va u hozirdanoq yaxshi natijalar berayotgani nafaqat o'zimizning, balki xorijiy mutaxassislar tomonidan ham tan olinib, e'tirof etilayotgani mazkur sohadagi ishlarning naqadar puxta o'ylab, shuningdek uzoqni ko'zlab amalga oshirilganini ko'rsatadi.

Ana shu ezgu ishlar hozirgi kunda ham izchillik va qat'iyat bilan davom ettirilib, xalqimiz , avvalo, yoshlarimiz o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib etishga mustahkam zamin bo'lmoqda. Mamlakatimizda jismoniy- intellektual resurslarning ro'yobga chiqishini ta'minlamoqda. Buning zamirida yurtboshimizning "Buyuk davlatni faqat sog'lom millat, sog'lom avlodgina qura oladi" degan g'oyalari mujassam. Boshqacha qilib aytganda, yurtimizda sog'lom avlodni voyaga yetkazish vazifasiga qudratli davlatni shakllantirish, ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish, huquqiy fuqarolik jamiyatini barpo etish jarayonining muhim sharti sifatida qaralmoqda. Yoshlarimizning sport sohasida erishgan ulkan yutuqlari mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijobjiy islohotlar, yaratilayotgan shart-sharoitlar mevasidir.

Yoshlarimizning sog'lom va baquvvat bo'lib voyaga yetayotgani va O'zbekiston sharafini dunyo miqyosida munosib himoya qilayotgani mamlakatimiz nifuzining tobora ortib borayotganidan darak beradi. Mana shunday sport yulduzları timsolida yurtimizning yorug' kelajagiga ishonch mustahkamlanib boradi.

Suzish tarixiy fan sifatida sportchi suzish taraqqiyotining umumiyligi qonuniyatlarini: suzuvchilarining sport tayyorgarligi tizimini shakllantirishi, tarixiy jarayonning alohida bosqichlarida va turli mamlakatlarda sportcha suzishning o'ziga xos jihatlari, suzuvchi sportchilarni tayyorlash tizimining rivojlanish xususiyatlari hamda shiddatini belgilovchi omillar (moddiy, ijtimoiy, ma'naviy) va boshqalarini o'rganadi.

Moddiy zamin yuqori natijalar sportning rivojlanishi sur'atlariga ko'rsatadigan ta'sirni belgilovchi tarixiylik, obyektivlik tamoyillari sportda tarixiy jarayonlar qonuniyatlarini tadqiq etishning metodologik asosini tashkil etadi.

I BOB. FANGA KIRISH, SUZISH SPORTINING RIVOJLANISH TARIXI VA TEXNIKA XAVFSIZLIGI

1.1.Suzishning rivojlanish tarixi.

Suzish hayot uchun zarur ko'nikma sifatida

Mustaqil O'zbekiston Respublikasida suzish. Sportcha suzish usullarining rivojlanishi. Inson yer yuzida paydo bo'lganidan buyon uning hayoti har doim suv bilan bog'liq. Bashariyat tamadduni yirik daryolar: Nil, Tigr, Yevfrat, Xuanxe, Yan-szi, Hind va Gang vodiylarida rivoj topgan. Odamlarni o'ziga jalb qilgan suv havzalari ular uchun faqat hayot manbayigina emas, balki ozuqa topish mumkin bo'lgan joy, kutilmagan hujumlardan asraydigan to'siq, o'zaro aloqa va almashuvning qulay vositasi hisoblangan.

Ibtidoiy odamlar hayotida suv katta ahamiyatga ega bo'lib, bu muhitni o'zlashtirib olish zarurati yashash uchun kurashning niyoyatda og'ir sharoitlarida undan suzish malakasini talab qilgan. Odam suvni ilohiylashtirgan, undan qo'rqqan, uning oldida bosh eggan.

Eng qadimgi zamonlardan boshlab barcha xalqlarda suvga sig'inish rasm bo'lgan. Olimpdagi bosh xudolardan biri, dengizlar hukmdori qadimgi yunonlarda Poseydon edi, keyinroq (yer. av. III a.) qadimgi rimliklarda u Neptun nomini oldi. Davlatchilik tizimi yuzaga kelgach, mehnatda va harbiy faoliyatda suzish malakasi zaruriyatga aylandi.

Taraqqiyot natijasida odamning suzishni bilishi yoki bilmasligi uning jismoniy tarbiyasi darajasini aniqlash mezoniga aylandi. Suzish malakasini odamlar har doim yuksak qadranganlar. Krol va brass usullariga o'xshash tarzda suzayotgan odamlar tasvirlangan eng qadimgi arxeologik topilmalar er. av. IV ming yillikka tegishlidir.

Suzish suv muhitini o'zlashtirib olish va unda harakatlanish malakasini egallash bilan bog'liq bo'lgan hayot uchun zarur faoliyat hisoblanadi.

Dastlab suvga tushgan odam cho'ka boshlaydi. Shuning uchun u bunday noodatiy muhitda o'zini tutishni bilib olishi lozim. Urushlar vaqtida, ayniqsa, dengiz janglarida, suzish malakasi hal etuvchi ahamiyatga ham ega bo'lgan. Qadim zamonlarda suzishning harbiy maqsadlardagi qo'llanishi to'g'risida Ramzes III maqbarasidan topilgan bareleflar asosida tasavvur hosil qilish mumkin. Unda misrlik jangchilarning Oront daryosini kechib o'tishi tasvirlangan.

Nilda suzishni maxsus o'rgatilishi zodagonlargagina nasib qilgan, fir'avnlarning farzandlari uchun bu majburiy sanalgan. Qadimgi Misrda er. av. 2,5 ming yillari yashagan hukmdor Setining maqbarasida "U podsholarning farzandlari bilan birgalikda menga ham suzish darslarini berar edi" degan yozuv saqlanib qolgan.

Qadimgi Yunonistonda ham suzishni bilish yuqori baholangan. To'g'ri, suzish dastlabki Olimpiada o'yinlari dasturiga kiritilgan. Biroq er. av. 1300 yildan boshlab Istmiya o'yinlari va dengizlar hukmdori Poseydon sharofiga Germionda o'tkazilgan bayramlar vaqtida suzish musobaqalari uyushtirilgan.

Yunon jamoat arbobi Solen o'smirlarni tarbiyalash jarayonida o'qish va yozish malakalari qatorida suzishga ham alohida e'tibor berish lozimligini uqtirgan. O'sha paytlarda "U na o'qishni biladi, na suzishni" degan ibora fuqaro deb atalishga nomunosib bo'lgan johil kishilarni tavsiflashda qo'llanilgan.

Pavsaniy va Gerodot er. av. 470 yilda forslarning harbiy kamarini cho'ktirib yuborgan – suvga sho'ng'ish ustasi. Ssillisning qahramonligini tasvirlab bergenlar. To'fon vaqtida u dushman kemalari oldiga suzib borib, langar arqonlarini kesib qo'yan, natijada kemalar qirg'oqdagi qoyalarga urilib, parchalanib ketgan. Orqaga qaytayotganda Ssillis yovning ko'ziga tashlanmaslik uchun dam-badam sho'ng'ib, 5 km ga yaqin masofani suzib o'tgan.

Bu jasorati sharafiga Delfada uning haykali o'rnatilgan. Afsonaga ko'ra, Ssillisga qizi Xinda yordam bergen, uni dengizlar hukmdorining sevgilisi deb ataganlar.

Qadimgi yunonlar suzishini bilishga katta e'tibor bergenlarini Platonning quyidagi mashhur so'zlari ham tasdiqlaydi: "Donishmandlikning aksi hisoblangan, suzish va o'qishni bilmaydigan kishilarga xizmatni ishonib topshirish mumkinmi?" Afinada suzishni bilmagan odamlar nuqsonli hisoblangan.

Qadimgi Rimda afsonaviy sarkardalar Gay Yuliy Sezar, Gney Pompey, Mark Antoniy, Oktavian Avgust o 'zlari zo'r suzuvchi bo'libgina qolmay, o'z qo'shinlarini ham ustalik bilan suzishga o'rgatganlar. Goy Yuliy Sezar esa Rimda chinakam imperatorlarga xos ko'lAMDAGI ulkan "dengiz janglari"ni o'tkazgan, ularda minglab jangchilar qatnashib, kemalarni iskanjaga olish, suzish va sho'ng'ish, suvda yakkama-yakka olishish, tish-tirnog'igacha qurollanib daryolarni kechib o'tish malakalarini namoyish etganlar. Rim qo'shinlarida maxsus suzuvchilar otryadi kemalarning suv ostidagi qismlarini ta'mirlash va dengiz razvedkasi bilan shug'ullangan.

Suvda musiqa ostida davra qurib suzish Qadimgi Rimda har yili o'tkazilgan katta suv tomoshalari dasturiga kiritilgan. Qadim Rimdag'i jamoat hammomlari-termalarda ochiq va yopiq cho'miladigan joylar qurilgan. Ayrim termalar 100x150 m o'lchamli hovuzlariga ega bo'lib, ma'rifatli kishilar bolalariga ham suzishni o'rgatganlar.

Insoniyat taraqqiyotining tongidayoq odam suvning shifobaxsh xususiyatlardan xabardor bo'lganlar. Barcha dinlarda "tanani poklash" zarurat hisoblangan. "Gigiyena" so'zi yunoncha so'z bo'lib, "sog'lom" degan ma'noni anglatgan. Qadimgi Yunoniston va Rimda gigiyena-salomatlik ma'budasiga sig'inganlar. "Rimliklar barcha kasalliklardan suv yordamida davolanganlar, olti asr davomida ularda umuman tabiblar bo'lmasan", - deb yozadi o'sha davr adibi Pliniy. Kuniga bir necha martadan cho'milish odat hisoblangan.

Ko'pgina xalqlar qadimdanoq cho'milishdan gigiyenik va chiniqtirish maqsadlarida foydalanganlar. Qadimgi hind donishmandrlari shunday deganlar: "Yuvinish kishiga 10 ta imtiyoz beradi: tiniq ong, bardamlik, tetiklik, sog'lomlik, kuch,

go'zallik, yoshlik, poklik, toza rang va barno ayollarning e'tibori".

Suvning chiniqtiruvchi ta'siridan ko'pgina xalqlar qadim zamonalardanoq foydalanib kelganlar. Ruslarning daryo muzini teshib cho'milish odati ko'pchilikka tanish. Chet elliklarni doimo ruslarning chiniqqanligi hayratga solib kelgan. Petr I saroyida bo'lgan kamer-yunker Berxols shunday yozgan edi: "Ruslar issiq hammomdan chiqib, mutlaqo yalang'och holda muzdek suvga tashlanadilar va o'zlarini juda yaxshi sezadilar, chunki bolalikdan shunga o'rganlar."

Zamondoshlarining guvohlik berishiga, qadimgi slavyanlar "daryolarni kechib o'tishga juda usta bo'lganlar, chunki suvda o'zlarini boshqalarga qaraganda ko'proq va yaxshiroq tuta bilganlar". Ko'hna Ipatyev solnomalarida rus yigitining ajoyib vatanparvarligi aks ettirilgan. U izidan quvib kelayotganlariga qaramay, qipchoqlar tomonidan qo'qqisdan bosib olingan Kiyevdan chiqib, Dneprning narigi qirg'og'iga suzib o'tgan va knyaz Svetoslav qarorgohiga borib, unga dushman hujumi haqida xabar bergen. Shunday qilib, jasur suzuvchi poytaxtini vayron bo'lishdan, xalqni esa asirga tushish va qirilib ketishdan saqlab qolgan.

Vizantiyalik tarixchi Mavrikii qadimgi Rus bo'ylab sayohat qilar ekan, ruslar boshqa qabila va xalqlar vakillaridan ham mohirroq suzuvchi ekanligini ta'kidlagan. Slaven jangchilarining qamishdan tayyorlangan naycha orqali nafas olib, suv ostida uzoq muddat yashirinib yota olishlari uni hayratga solgan.

Suzish bo'yicha dastlabki musobaqalar ko'pincha yaqqol amaliy ahamiyatga ega bo'lgan. Misol uchun qadimgi slavyanlarning Dnepr irmog'i Pochayna daryosida o'tkazgan ommaviy musobaqalarini keltirish mumkin.

Eng yaxshi sho'ng'uvchi suvchilar baravar daryoga sakrab, ma'lum vaqt davomida qo'llari bilan baliq tutishlari kerak bo'lgan. Eng yirik baliq tutib chiqqan kishi g'olib deb e'lon qilingan va baliq tutadigan ipak to'r bilan mukofotlangan.

476-yilda Rim imperiyasi qulaganidan keyin jismoniy tarbiya ham rivojlanishdan to'xtadi. O'rta asrlarda suzish bilan shug'ullanish gunoh hisoblanadigan bo'ldi. Yevropaning ko'pgina shaharlarida cherkov cho'milishni taqiqlab qo'ydi. Suvdan uzoqlashish insoniyatga juda qimmatga tushdi. Vabo, o'lat, terlama epidemiyalari butun-butun shaharlarning aholisini qirib yubordi. Biroq sog'lom fikr oxir-oqibat g'alaba qildi va qator roman-german mamlakatlarida suzish zodagonlarning farzandlari bo'lajak jangchilarini jismoniy tarbiyalash tizimi tarkibiga kiritiladigan bo'ldi.

Uyg'onish davri suzishga bo'lgan qiziqishni yana kuchaytirib yubordi. 1515 - yilda Italiyada suzish bo'yicha tarixdan ma'lum bo'lgan birinchi musobaqalar o'tkazildi. 1538-yilda esa suzishga bag'ishlangan ilk kitob dunyo yuzini ko'rди, uning muallifi daniyalik N.Vinman edi. Rossiyada suzish texnikasi va suzishga o'rgatish usuliyatining dastlabki bayonini 1776 va 1792-yillarda chiqqan "Iqtisodiy oynoma"da uchratish mumkin. Noma'lum muallif birinchi bor brass usulida suzishga o'rgatishning tabiiy usulini tavsiflab beradi, bu usul avval suvda yotishga, keyin barcha suzish harakatlarini bajarish, ya'ni suzish usulini to'la takrorlashga o'rgatishni ko'zda tutadi. Muallif o'rgatishning eng muhim nuqtalari – o'pkani havoga to 'ldirish, tananing gorizontal holati hamda qo'l va oyoqlarning muvofiq harakatlarini saqlab turishga e'tiborini qaratadi.

XVII asrda rus qo'shinlarini suzishga o'rgatish majburiy amaliyot hisoblangan. "Askarlarga quroldan foydalanishni o'rgatish" harbiy ko 'rsatmasi har bir jangchi suzishni bilishi shartligini ta'kidlaydi va suzishga o'rgatishni tashkil etish bo'yicha zarur choralar ko'rishni maslahat beradi. Petr I davrida Dengiz Akademiyasi hamda Imperator huzuridagi quruqlik kadetlar korpusi o'quv fanlari sirasiga suzish ham kiritiladi.

Petr I buyruqlaridan birida shunday so'zlar bor edi: "Barcha yangi askarlar istisnosiz suzishni o'rganishlari kerak, har doim ham ko'priklar bo'lavermaydi".

Aleksandr Vasilyevich Suvorov suzishni bilishga katta ahamiyat bergen.

Uning o'zi askarlarni suzishga, har qanday ob-havoda daryoni kechib yoki suzib o'tishga o'rgatgan. "Tibbiyot xodimlari uchun qoidalar"da u "har sohada zarur bo'lgan ozodalik, yangi ovqat va ichimlik hamda kundalik cho'milish bilan" kasalliklar oldini olishni talab qilgan.

XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib suzishga o'rgatish borasida boy tajriba to'plandi. Rossiyada suzish bo'yicha Brusilov, Plaxov, Konkin, Kassel, Tevenot, Ganike va boshqa mualliflarning qator kitoblari paydo bo'ldi.

Suzishga o'rgatishning eng ilg'or – yaxlit-taqsimlangan usuli ishlab chiqildiki, u jiddiy e'tibor qozondi. 1897-yilda nashr etilgan A.B. Ganikenning "Suzishni mustaqil o'rganish" kitobida bu usulning ta'rifi berilgan. Usulning mohiyati suzish texnikasining alohida elementlarini o'rganib olish va suzish usulida ularni izchil uyg'unlashtirishdan iborat. Mashqlar dastlab yengillashtirilgan sharoitda (quruqlikda, suvdagi qo'zg'almas tayanch yonida, nafasni to'xtatgan holda sirg'alib), keyin esa odatdagisi sharoida (suvda) bajarilgan.

Birinchi marta muallif o'rganishdan avval suvga ko'nkish mashqlarini qo'llashni tavsiya etadi: sayoz joyda harakatlanish, suvga sho'ng'ish, suzib chiqish va, ayniqsa, eng muhimi – sirg'alib bajariladigan mashqlar. Bu usul eng samarali hisoblanib, guruhlarda ishlash imkonini bergen, shuning uchun u XX asr boshlarida Rossiya va horijdagi barcha suzish maktebalarida asosiy o'rgatish usuli hisoblanadi.

Yevropa mamlakatlarida suzishning rivojlanishi uchun turtki bo'lgan yana bir sabab shunda ediki, Napoleon urushlaridagi jiddiy yo'qotishlar cho'kkalar hissasiga to'g'ri kelardi. 1812 - yildagi Vatan urushi, keyinroq 1941-1945-yillardagi Ulug' Vatan urushi tajribasi eng shiddatli janglar suv chegaralarida bo'lganligini ko'rsatdi.

Qo 'shinlarning Dnepr, Don, Bug, Neman, Dunay, Visla, Oder kabi sersuv daryolarni ommaviy ravishda kechib o 'tishi g'arb san'atining namunalariga aylandi. Askarlarning kiyimda va qurollari bilan suza olishi qator jang operatsiyalarining

muvaffaqiyatlari bajarilishiga yordam berdi, minglarning hayotini saqlab qoldi.

Cho'kayotganlarni qutqarish va aholiga cho'kkamlarni tiriltirish usullarini o'rgatish bilan shug'ullanadigan dastlabki jamiyatlardan biri 1767-yilda Ameterdalida paydo bo'ldi. 1772-yilda Parijda cho'kayotganlarni qutqarish to'g'risida Nizom nashr etildi, 1774-yilda esa eng yirik "Cho'kayotganlarni qutqarish bo'yicha Angliya Qirollik jamiyati"ga asos solindi. Rossiyada 1866-yilda Kronstadt dengizchilari tomonidan kemalar halokati vaqtida yordam berishni uyushtirish jamiyatini tashkil etildi, 1871-yilda u "Suvda qutqarish bo'yicha Rossiya jamiyati"ga aylantirildi.

Dastlab cho'kkamlarini qornidan orqasiga, keyin yana qorniga o'girib, bochkada g'ildiratib, choyshabda tebratib tiriltirishga uringanlar. Keyinroq ancha ta'sirchan usullarni qo'llay boshlaganlar. Masalan, 1799-yilda Rossiyada chop etilgan "Xalq uchun qisqacha kitob"da "uning (cho'kkan odamning) o'pkasiga og'izdan-og'izga yoki shishirilgan qon yordamida puflab qaytadan havo kiritishga harakat qilish" tavsiya etilgan. XIX asrning o 'rtalarida Shefer, Xoll, Silvestrning xilma-xil qo'l bilan sun'iy nafas oldirish usullari amaliyotga tatbiq etildi.

XIX asrning boshlaridayoq suzish ko'pgina Yevropa mamlakatlarining harbiy o'quv muassasalarida o'rgatila boshlandi. Bundan tashqari, havaskor suzuvchilarining turli jamiyat va to'garaklari paydo bo'ldi. Suzish havaskorlarining birinchi maktabi 1785-yilda Parijda ochildi. Rossiyadagi birinchi shunday maktab 1827-yilda Nevadagi shaharda yuzaga keldi. 1834 yilda Peterburgda, Yozgi bog' yaqinida barcha xohlovchilar uchun suzish maktabi tashkil etilib, uyda shvetsiyalik gimnastika o'qituvchisi Gustaf Pauli rahbarlik qila boshladi. U yerda "qurbaqasimon qorinda", "chalqancha", "yonlama", "kuchukcha", quroq bilan va boshqa usullarda suzish, shuningdek, cho'kayotganlarni qutqarishga o'rgatilar edi. Pushkin, Vyazemskiy bu maktabning doimiy "o'quvchilarini" bo'lgan.

Rossiyada birinchi marta zamonaviy suzish musobaqalari 1894-yilda Peterburg suzish havaskorlari to'garagi tomonidan Pavlovskda, Slavenka daryosida o 'tkazildi. Moskvadagi Markaziy hammomda yopiq hovuzlar (basseynlar) qurildi. Uch yildan so'ng mashhur Sandunov hammomlarida, 1902-yilda Kiyev kadetlar korpusi qoshida shunday hovuzlar paydo bo'ldi.

Rossiyada ommaviy, shuningdek, sportcha suzishning rivojlanishida 1908- yilda Peterburg yaqinidagi Shuvalovada ochilgan suzish maktabi katta rol o'ynadi. Maktab jamoatchilik asosida dengiz shifokori V.N. Peskov tashabbusi bilan tashkil etilgan edi. Yozgi mavsum davomida mактабда 400 tagacha kishi shug'ullandi. Ular imtihon topshirib, suzish bo'yicha magistr yoki nomzod unvonini olishlari mumkin edi.

Suzish magistri 12 ta me'yorni bajarishi zarur bo'lgan:

1. 3000 ms suzib o'tish.
2. Chalqancha usulda 1500 m suzib o'tish.
3. Kiyim va poyabzalda brass usulida 1600 m suzib o'tish.
4. Faqat qo'llar yordamida harakatlanib, chalqancha usulda 450 m suzib o'tish.
6. Bir qo'lida 2 kglik toshni tutgan holda chalqancha usulda 30 m suzib o'tish.
7. Suv ostida 30 m suzib o'tish.
8. 4-5 m chuqurlikka toshni olib chiqish uchun sho'ng'ish (2-3 sek dam olish bilan 5 marta ketma-ket).
9. Suvda yechinish.
10. 75 m. ga qutqarishli suzish; startdan sakrash, 50 m suzib o'tish, "cho'kayotgan" kishini ushlab, u bilan 25 m suzib o'tish.
11. "Cho'kkan" kishiga birinchi yordam ko'rsatish.
12. 7 metrlik minoradan joyida turib 3 marta va yugurib kelib 3 marta suvgaga sakrash.

Dam olish kunlari maktabda bayramlar o'tkazilgan, ularda eng yaxshi o'quvchilar o'qituvchilar bilan birgalikda suvda turli shakllarni bajarganlar, har xil usullarda suzish va sho'ng'ishlarni namoyish etganlar, minoradan va tramplindan suvgaga sakraganlar, tez suzish bellashuvlarini uyushtirganlar,

"cho'kayotganlar"ni qutqarishda mohirlik ko'rsatganlar, qayiplarda "jang" qilib, raqiblarini langarcho'p bilan suvga yiqitganlar. Shuvalova maktabi magistrlari 1912-yil Stokholm Olimpiadasida ilk marta qatnashgan Rossiya suzuvchilar termo jamoasining asosini tashkil qildilar.

1918-yilda Moskvada, 1919-yilda Petrogradda tashkil etilgan jismoniy tarbiya institutlari suzish bo'yicha malakali o'qituvchi va murabbiylarni tayyorlay boshladi. Ayni vaqtida suzish bo'yicha sport mashg'ulotlari va o'rgatish usuliyati takomillashib bordi.

1926-yilda Leningrad jismoniy tarbiya instituti o'qituvchilari tomonidan taklif etilgan "O'rgatishning majmuasi usuli" oldinga qo'yilgan sezilarli qadam boldi.

1925-1934-yillarda suzish bo'yicha bir qator o'quv qo'llanmalarini nashr etildi: L.Gerkan "Sportcha suzishning nazoriyasi va usuliyati"; A.Jemchujnikov "Suv sporti", N.Butovich "Suzish, suvga salcrash va suv polosi".

1930-yilda tashkil qilingan "Suv transportining rivojlanishiha yordam berish va suv yo'llarida odamlar hayotini muhofaza qilish jamiyat" ommaviy suzishning rivojlanishi uchun sharot yaratdi. OSVOD uyushmasi faqat mehnatkashlar hayotini muhofaza qilishgina emas, aholini suzishga o'rgatish va suzishni ommalashtirish bo'yicha ham katta ishlarni amalga oshirdi.

AQSh, Yaponiya, Australiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Hollandiya, Sovetsiya singari yirik mamlakatlarda suzish sportini rivojlanishiga uchun 50-yillarda yosh suzuvchilarning mashg'ulot va mazsoyaqa tizimi joriy qilindi.

Maktab dasturlariga majburiy suzish darslari kiritildi. Chet eda sponsha suzishning rivojlanishiha mакtablar qoshida sport basseynlari ochilganligi katta yordam berdi.

1932-yilda sobiq Ittifoqda yangi GTO ("Mehnat va muhofaza tayyor") jismoniy tarbiya majmuasi ishlab chiqildi. Uning barcha bosqichlarida suzish majburiy me'yor hisoblangan. GTO majmuasi to'g'risidagi Nizom suzish bo'yicha me'yoriarni bekor qilish yoki almashtirishni man etgan.

Avvalgi majmua bilan solishtirilganda, yangi majmuaning yosh chegaralari ancha kengaytirilgan bo'lib, 10 yoshdan 60 yoshgacha bo'lgan aholi qatlamlarini qamrab olgan.

Yangi GTO majmuasi mamlakatdagi suzish bo'yicha olib beriladigan barcha ishlarning asosi bo'lib qoldi. U ham ommaviy, ham sportcha suzish vazifalarini uyushgan holda hal etish imkonini berdi.

1.2. Suzish mashg'ulotlarida uchraydigan baxtsiz hodisalar va ularning oldini olish

Suvda baxtsiz hodisalarning oldini olish.

O'quv-sport ishlari jarayonida texnika xavfsizligiga qo'yiladigan talablar. Baxtsiz hodisalar holatlarini oldini olish. Har xil shikastlanish holatlarini profilaktika qilish uslubiyati. Baxtsiz xodisalar vujudga kelganda birinchi yordam ko'rsatish. Suvda odamlarning halok bo'lish sabablaridan eng asosiysi suvda o'zini tutish qoidalarini buzish, cho'milish va suzish mashg'ulotlari paytida xavfsizlik qoidalariga rioya qilmaslikdir.

Quyidagi qoidalarni yaxshi bilish va ularga qat'iy rioya qilish zarur:

- suzish bilan faqat shifokor ruxsatini olganlargina shug'ullanishi mumkin. Suzish bilan shug'ullanganda, muntazam ravishda tibbiy ko'rikdan o'tib turish lozim;

- suzish va cho'milishga faqat shu maqsadlar uchun ajratilgan joylar: basseynlar, o'rganish plyajlari, suv stansiyalari hamda xavfsizlik va gigiyena talablariga javob beradigan boshqa yerlarda ruxsat etiladi;

- harorati 15°C dan past bo'limgan toza suvdagina cho'milishga ruxsat etiladi. Suvdagji mashg'ulotlar davomiyligi 5 daqiqadan boshlab 25 daqiqagacha yetkazilishi mumkin;

- suzishni bilmaydiganlar 0,6-0,9 m dan chuqur bo'limgan maxsus suv havzalarida yaxshi suzishni biladiganlar nazorati ostida cho'milishlari mumkin. Suvdagji barcha mashqlar, shuningdek, suzishga dastlabki urinishlar qirg'oq tomon bajarilishi zarur;

- suvga tushish va suvdan chiqish faqat mashg'ulot o'tkazuvchining ruxsati bilan amalga oshiriladi;

- suzishni biladiganlargagina suvga sakrash va sho'ng'ishni o'rganishga ruxsat etiladi.

Quyidagilar qat'yan man etiladi:

- kemalar, motorli va motorsiz qayiqlarga yaqin suzib borish;

- suv havzasining o'rtasida suzish, daryolarni suzib o'tish;

- sho'xlik qilish va yolg'ondan yordam so'rab shovqin ko'tarish;

- ogohlantiruvchi belgilari: masalan, bakenlar ustiga chiqish;

- suv va qirg'oqni ifloslantirish;

- taxtalar, g'o'la, kamera, puflab shishiriladigan to'shak va shu kabilar yordamida uzoqlarga suzib ketish;

- maxsus moslashtrimagan inshootlardan suvga sakrash, chuqurligi va tubining holati noma'lum joylarda sho'ng'ish.

Suvda baxtsiz hodisa yuz bergudek bo'lsa, kishi o'zini xotirjam tutishi, tez va aniq harakat qilishi lozim.

Ko'pincha kishilar tomir tortishishidan xavfsiraydilar. Bu suzish tayyorgarligi yetarli bo'lмаган kishilarda yuz beradi, yaxshi suzuvchilarda esa deyarli uchramaydi. Agar sizning boldir mushagingiz tortishsa, oyoq panjangizni o'zingizga tomon tortib, tegishli mushakni uqalab yuboring.

Har holda bu hodisaga xotirjam munosabatda bo'ling. Tananing bir yo'la hamma mushaklari tomiri tortishmydi, agar ulardan bittaginasi bilan shunday bo'lib qolsa, odam suzish qobiliyatini yo'qotmaydi. Chalqancha yotib, mushagingizni ishqalab yumshatishga harakat qiling. Buning iloji bo'lmasa, qirg'oqqa tomon suzing. U yerda mushakni uqalash, albatta, qulayroq. Ko'pincha boldir mushagining tomiri tortishadi, agar siz suzishni bilsangiz, bu sizning qirg'oqqa yetib olishingizga u qadar kuchli halal bermaydi.

Agar suv havzasining biror qismini qayiq yoki solda oshib o'tish kerak bo'lsa, unda eng kuchli suzuvchilardan qutqaruvchilar guruhi tuzish zarur.

Qutqarish vositalari: shishiriladigan rezina chambarlar, xodalar, g'o'lalar, ularga bog'langan 10-15 m li arqon va boshqa narsalarni ham hozirlab qo'yish kerak. Barcha hollarda mustahkam intizomga rioya qilish lozim. Biroq baxtsiz hodisalar, baribir, yuz berishi mumkin. Ba'zan siz o'tirgan qayiq ehtiyoitsizlik natijasida ag'darilishi yoki ichiga ko'proq suv kirib qoladi. Bu hali tashvish emas: qayiq cho'kib ketmaydi.

Bunday holatda, eng avvalo, odamlarni, keyin suzish vositalarini (agar ular maxsus ishlangan va qimmatbaho bo'lsa), undan keyingina asbob-anjomlarni qutqarish kerak. Agar suvga tushib ketgan kishilarni qayiq yoki solga chiqarib olishning imkonni bo 'lmasa (masalan, qayiq odamlarga to'lib ketgan), ularga arqon yoxud xoda tashlab, qirg'oqqa tortib chiqarish mumkin. Ba'zan shunday bo'ladiki, qayig'ingiz ag'darilib ketadi yo ichi suvga to'ladi. Xavfsiz joygacha bittadan emas, guruh bo'lib yetib olish zarur, shunda kuchsizlashib qolganlarga, jarohatlangan o'rtoqlarga yordam berish mumkin.

Qayiq cho'kib ketmagan bo'lsa, uni tashlab ketmang, balki uni ushlab olib, yordam so'rab signal bering. Albatta, barcha ehtimoliy holatlarni nazarda tutib, ularni bartaraf etish yo'llari haqida maslahat berib bo'lmaydi. Lekin eng muhimi – suvda ehtiyoitkorlikka rioya qilish va o'zini yo'qotmaslik.

Aholi o'rtasida suvda o'zini tutish qoidalarni ommalashtirish – cho'kishlar oldini olish ishlarining muhim jihat. Ko'pchilik cho'miladigan va suzish mashg'ulotlari o'tkaziladigan joylarda ogohlantiruvchi yozuvsular, rangdor va tushunarli stendlar, shuningdek, suvda o'zini tutish qoidalari va cho'kayot-ganlarga yordam ko'rsatish usullarini tushuntiruvchi kinofilmardan foydalanish, qutqarishga doir suhbatlar o'tkazish, amaliy mashg'ulotlar tashkil etish zarur.

Suvda baxtsiz hodisalarning oldini olish va cho'kayotganlarni qutqarish – jismoniy tarbiya o'qituvchisi, murabbiy kasbiy tayyorgarligining asosiy tomonlaridan biri.

Suvda qutqarishni rivojlantirish va ommalashtirishda cho'kayotganlarni qutqarish bo'yicha musobaqalar uyushtirish katta ahamiyatga ega.

Qutqaruv va sportning amaliy turlari xalqaro federatsiyasi 1971-yildan buyon qutqaruv ko'pkurashi bo'yicha championatlar o'tkazib keladi. Ular quyidagi mashqlarni o'z ichiga oladi: katerni "qutqaruv trevogasi"ga ko 'ra 1000 m masofaga olib chiqish, 50 m masofaga suzib qutqarish; qutqaruvchi qayqlarda 1000 m eshkak eshib, manekenni suvdan chiqarib olish; 200 m yerkin usulda to'siqlar osha suzish; qutqaruv chambarini uzoqlikka aniq uzatib berish.

Cho'kishning oldini olish uchun ommaviy cho'milish joylari yoki kechuvlardagi qutqaruv stansiyalarida bo'lishi kerak bo'lgan *qutqarish vositalaridan* foydalanishni bilish zarur. Bular qutqaruv chambarlari, sharlar, xodalar, qutqaruv taxtalari, ko'krakpechlar, belbog', nimcha, kamzul va h.k.

Qutqaruv chambari (tashqi diametri 80 sm atrofida, ichki diametri – 40 sm ga yaqin) presslangan po'kak yoki penoplast to'ldirilgan brezent g'ilofdan iborat. To'rt joyida chambarning tashqi sirtiga brezent kashaklar bilan arqondan yasalgan halqa mahkamlanadi. Chambar bir yarmi oq rangga, ikkinchisi qizil rangga bo'yaladi. Qutqaruv chambarlari suvdagi odamga 15 m naridan yordamlashish imkonini beradi.

Chambarni qirg'oq yoki qayqidan uzatishda uni o'ng qo'l bilan ushlab, ikki-uch bor quloch otib, horizontal yo'nalishda shunday irg'itish kerakki, chambar cho'kayotgan odam yaqiniga tushsin va u yordam kutib chambarni tutib tura olsin.

Chambardan, yaxshisi, quyidagicha foydalanish lozim: uning oldiga suzib kelib, bir tomoniga bosiladi, u vertikal holatni olgach, ichiga bosh va qo'llar kiritiladi, qo'llar tushirilib, yordam kutiladi.

Baxtsiz hodisaga uchragan odamga yordam berish mumkin bo'lmasa, unga biror suzuvchi buyum tashlanadi yoki ushlab olish uchun tayoq yoki xoda uzatiladi. Bunday tasodifiy buyumlardan tashqari maxsus uloqtiriladigan moslamalar ham bor. Bulardan eng keng tarqalganlari qutqaruv "Aleksandrov halqasi" va qutqaruv "Suslov sharlari"dir.

Qutqaruv "Aleksandrov halqasi" arqonining yo'g'onligi 0,5-0,7 sm, uzunligi 30 m gacha yetadi.

Uning bir uchida yorqin rangga bo'yalgan po'kak yoki penoplastdan yasalgan ikkita kichikroq qalqi (poplavok) va yumshoq qobiqli yuki (qumli qopchiq) bo'lgan halqasi bor. Shu uchi qutqariluvchiga uzatiladi. Ikkinchchi uchidagi halqadan qutqaruvchi qo'lini o'tkazib oladi.

Tashlab berishdan avval arqon tirsakka o'ralib, bu o'ram bo'sh qo'l bilan ushlanadi yoki yerga, palubaga va h.k. qo'yilib, boshqa qo'lga bir necha yukli halqa olinadi. Bir nechta aylanma harakat bajarilib, yukli halqa qutqariluvchi tomon oldinga-yuqoriga uloqtiriladi. Qutqaruvchi tashlagan halqalardan keyin bo'sh qo'lda tutib turilgan yoki yerda yotgan halqalar bo'shala boshlaydi.

"Aleksandrov halqasi"ni shunday tashlash kerakki, yukcha qutqariluvchining orqasiga – suvgaga tushsin, keyin arqon asta tortiladi. Qalqi ilingan halqa suvdagi odamning yoniga kelganda, u halqani ushlab oladi. Shundan so'ng arqon qirg'oqqa qarab tortiladi

Qutqaruv "Suslov sharlari" – po'kak yoki penoplastdan yasalgan diametri 25-30 sm li sharlar bo'lib, ular ustidan qalin mato tortilib, biri oq, ikkinchisi qizil rangga bo'yaladi.

Sharlar bir-biri bilan arqon yordamida tutashtiriladi, arqon uzunligi taxminan 50 sm bo'ladi. Uning o'rtasiga 25 m cha uzunlikdagi ingichka, lekin mustahkam tasma bog'lanadi. Baxtsizlikka uchragan odam sharlarni birlashtirgan arqon ustiga shunday yotadiki, arqon uning ko'kragi ostida bo'lib, qo'ltiqlari ostidan o'tadi. Shu tariqa sharlar uning orqasiga o'tib, suv yuzida tutib turishga yordam beradi. "Suslov sharlari" xuddi "Aleksandrov halqasi" singari uloqtiriladi.

Cho'kayotgan kishini suvdan yoki muzlar orasidan chiqarib olish uchun mo'ljallangan *qutqaruvchi changak* uchiga temirdan ishlanib, rux yogurtirilgan ilgak mahkamlangan xodadan iborat. Bu ilgan po'kak yoki penoplast sharlar bilan berkitilgan bo'lib, ularning o'lchamlari ilgak oxiriga qarab kichrayib boradi. Sharlar changakning suzuvchanligini oshiradi va qutqariluvchini shikastlanishdan saqlaydi.

Cho'kayotgan odamga tez yordam ko'rsatish uchun, ayniqsa, basseynlarda uzunligi 3-6 m li yog'och, dyuralyumindan ishlangan oddiygina xodalardan keng foydalilaniladi, shuningdek, plastmassa quvurlarni ishlatish ham mumkin. Cho'kayotgan odamga xoda uzatiladi, u xodani ushlab olgan zahoti qirg'oqqa qarab tortiladi.

Qutqaruv ko'krakpechi, belbog'i, nimcha va kamzullar avvaldan taqib yoki kiyib olinadigan qutqaruv vositalariga kiradi. Qutqaruv nimchalari va ko'krakpechlar qalin parusina yoki kanop matodan tikilib, ichi maydalangan po'kak yoki penoplast bilan to'diriladi. Po'kak yoki penoplast qatlami qalinligi – 7-15 sm. Shishirilgan qutqaruv nimchalari ham mavjud.

Qutqaruv nimchalari yoki ko'krakpechlar suvga tushib ketish xavfi tug'ilganda (masalan, kemada qattiq to'fon vaqtida yoki shikastlanish ro'y berganda) kiyiladi. Ular suv-motor va yelkanli qayiqlar bilan o'tkaziladigan mashg'ulotlarda majburiy qutqaruv anjomlari sirasiga kiradi.

Ko'krakpech va nimchalar odamni suv yuzasida boshini yuqoriga qilib ushlab turadi, bu suzishni bilmaydigan kishilarga yordam berish vaqtida juda muhim. Shu maqsadda shishirilgan qutqaruv nimchalariga odamning boshini vertikal holatda tutib turadigan maxsus yoqa qilinadi.

Qutqaruv belbog'lari xuddi nimchalar, ko'krakpechlar kabi parusina, brezent yoki kanop matodan tayyorlanadi va po 'kak yoki penoplast maydasi bilan to'diriladi. Belbog' qalinligi – 20-25 sm. Ixham qilib yig'ib qo'yiladigan rezina qutqaruv belbog'lari ham qo'llaniladi, ular tarkibida muayyan kimyoviy aralashmalar bo'lib, odam suvga tushib ketganda, ular o'zlaridan gazsimon modda chiqaradilar, bu baxtsizlikka uchragan kishini suv yuzasida tutib turadi. Belbog' suvga tushib ketish xavfi tug'ilganda yoki suvda taqib olinadi. Buning uchun suvda belbog'ni yoyib, qo'llarni undan o'tkazish, keyin qorni va ko'krakkacha tushirish lozim.

Bo'yin atrofi va ko'krakda joylashadigan ko'krakpechlar suzish uchun eng yaxshi sharoit tug'diradi, chunki ular suvga

tushib ketgan odamning yuzini suv sathidan yuqorida tutib turadi va ular hushini yo'qotgan vaqtida ham suv yutib yuborishlariga to'sqinlik qiladi.

Motorli yoki motorsiz qayiqda qutqarish suzib borib qutqarishga nisbatan ancha samarali, chunki bu cho'kayotgan kishiga tez yaqinlashish imkonini beradi. Cho'kayotgan kishiga yaqinlashganda, uni qayiq borti yoki eshkak urib yubormaslik juda muhim. Qayiqqa odamni quyruq tomonidan chiqarib olgan yaxshiroq, shunda qayiq ag'darilib ketmaydi, katerga esa yon tomonidan – shunda cho'kayotgan kishini vint bilan shikastlash xavfi yo'qoladi. Agar qutqaruvchi bir kishilik qayiqda yoki biror kichikroq qo'l bola suzish vositasida bo'lsa, cho'kayotgan kishini suvdan chiqarmasdan, uni qirg'oqqa shatakkka olib yetkazish – eng maqbul usul.

Muzda o'zini tutish. Sovuq tushganda, suv havzasi muz bilan qoplanadi. Uning ustidan bemalol yurish uchun, muz ma'lum qalinlikka ega bo'lishi lozim. Ma'lum bo'lishicha, yayov holda muz ustida bitta-bittadan yurish uchun uning qalinligi kamida 5 sm ga yetishi zarur.

Muz ustida harakatlanganda, uning mustah-kamligini tayoq bilan tekshirib ko'ring, lekin zinhor oyog'ingiz bilan tepmang – qulab tushishingiz mumkin. Ikki kishi qalinligi 7 sm li muz ustida yurishlari mumkin, lekin ular orasidagi masofa kamida 5-7 m bo'lishi kerak. Chang'ichilarga muzlab qolgan suv havzalari orqali yakka holda yurish tavsiya etilmaydi; chang'i yo'li yoki ochilgan so'qmoq bo'ylab yurish xavfsizroq; chang'ichilar orasidagi masofa ham 5-6 m ga teng. Muz ustiga chiqishdan avval chang'i tasmlarini bo'shatish, bilaklardan tayoq halqalarini chiqarish, yukxalta tasmasini bir yelkadan tushirib qo'yish lozim.

Muzni o'yib baliq tutishga chiqqanda, o'zingiz bilan shishiriladigan chambar oling, u qutqarish vositasi sifatida asqotishi mumkin. Kuz va bahorda – muz yupqalashib qolgan paytda chambar odam ostidagi tayanchni kuchaytiradi. Muzni teshganda, teshiklar orasidagi masofa yaqin bo'imasligiga e'tibor bering, chunki katta maydondag'i muz sinishi mumkin.

Ba'zan shunday ham bo'ladi: to yordam yetib kelgunicha baxtsiz hodisaga uchragan kishi mustaqil harakat qilishiga to'g'ri keladi. Agar uning oyog'i ostidagi muz sina boshlasa, astagina yotib, qo'l va oyoqlarni kerish va shoshmasdan xavfli joydan nari ketish kerak.

Muz teshigidan suvga tushib ketsangiz, qo'l-oyoqlarni shapillatmay, muz chetiga ko'kragingiz bilan tayanib, qo'llaringizni oldinga uzating-da, qalin muz ustiga chiqishga harakat qiling.

Muz ostiga yiqilib tushgan odamga yordam ko'rsatish juda qiyin, chunki unga yaqinlashish muammo tug'diradi. Buning uchun chana oyog'iga o'xhash moslamali qayiqlar, suzuvchi chanalar, qutqaruv narvonlari, taxtalar, fanera bo'laklari va h.k. dan foydalaniladi. Bu vositalarni qutqaruvchi itarib borib yoki ularda harakatlanib, cho'kayotgan kishining yoniga yaqinlashadi. Agar muz ostiga yiqilgan odamga yaqinlashishning imkonи bo'lmasa, unga arqon tashlanadi.

Agar odam muz ostiga ketib qolgan bo'lsa, uning ketidan suvga sho'ng'ish kerak, ammo bundan oldin albatta belga arqonning bir uchini bog'lash, ikkinchi uchini esa boshqa qutqaruvchiga berish zarur. Agar cho'kayotgan kishi chuqurga tushib ketmagan bo'lsa, qutqaruv changagidan foydalanish mumkin.

Muz ostiga yiqilgan kishiga yordam berayotganda, muz ustida biror yassi narsa: narvon, xoda, taxtaga tayanib, emaklab yurgan holda uning oldiga yaqinlashish lozim. Unga xavfsiz masofada yaqin kelgach, qutqaruvchi narvon, belbog', changak, arqon yoki shunga o'xhash biror moslamani uzatadi. Ayni paytda cho'kayotgan kishini tinchlantirib, uzatilgan buyumdan qanday foydalanish kerakligini tushuntiradi.

Qo'l ostidagi qutqaruv vositalari sifatida turli suzuvchi narsalar: taxtalar, g'o'lalar, qamish bog'lari yoki havoga to'dirish mumkin bo'lgan buyumlar xizmat qilishi mumkin (kiyimlar, bo'sh bochka yoki kanistrlar, avtomobil kameralari, koptoklar, to'shaklar).

Shuningdek, shox-shabba, qarmoq, xodalar, eshkak, chang'i, arqon, sim, kamar, sharf kabi narsalarni ham qo'llasa bo'ladi.

Botqoqda botib qolgan kishiga ham xuddi shu tariqa yordam ko'rsatiladi.

Nazorat savollari

1. Bizga ma'lumki ibridoiy odamlar hayotida suv katta ahamiyatga ega bo'lgan, ibridoiy odamlar hayotidagi suvning o'rni haqida gapirib bering?
2. Bizga ma'lumki eng qadimgi zamonlardan boshlab barcha xalqlarda suvga sig'inishgan, bu xudolarning nomini keltiring?
3. Tarixdan bizga ma'lumki qadimgi Rim qo'shinlari jangavor qo'shinlari suzish bilan ham shug'ullanishgan, shular haqida gapirib bersangiz?
4. 1931-yilda tashkil qilingan "Suv transportining rivojlanishiga yordam berish va suv yo'llarida odamlar hayotini muhofaza qilish jamiyat" haqida gapirib bersangiz?
5. "Suvda qutqarish bo'yicha Rossiya jamiyat" qachon tashkillashtirilgan va uning vazifalari haqida gapirib bering?
6. Suvda odamlarning halok bo'lish sabablaridan eng asosiyalarini sanab bering?
7. Aholi o'rtasida suvda o'zini tutish qoidalarini ommalashtirish – cho'kishlar oldini olish ishlarining muhim jihatilari haqida gapirib bering?
8. Cho'kishning oldini olish uchun ommaviy cho'milish joylari nimalarga e'tibor berish kerak?
9. Qutqaruv chambaragi haqida gapirib bering?
10. Qutqaruv "Suslov sharlari" haqida gapirib bering?

2.1. Sportcha suzish texnika asoslari

Suvning fizikaviy xususiyatlari.

Sportcha suzish texnikasi haqida tushuncha. Suvning fizikaviy xossalari. Dinamik suzish va statik suzish. Texnika asoslari suzish tezligining o'zgarishiga va suzuvchining shaxsiy, o'ziga xos xususiyatlar. Texnik, taktik, jismoniy va ruhiy tayyorgarlikning o'zaro bog'liqligi. Suzish bo'yicha mashq o'tkazish nazariyasi va uslubiyatini o'rganishda, suvning asosiy fizikaviy xususiyatlarini e'tiborga olish kerak.

Ular nafaqat suvda jismlarning harakatlanishini qiyinlashtiradi, balki yurituvchi harakatlarni amalga oshirish uchun tayanchni ham yuzaga keltiradi. Ushbu xususiyatlar bilan suvning inson organizmiga turli xil ta'sirlari ham belgilanadi.

Suvning qayishqoqligi – suyuqlikning bir qismmini boshqa qismiga nisbatan siljishiga qarshilik qilish xususiyati.

Suv zarrachalarining bir-biriga nisbatan harakatlanishida, harakatlanishga qarshilik qiluvchi ishqalanish kuchi vujudga keladi. Ana shu kuch qayishqoqlikning vujudga kelishiga olib keladi. Shu sababli suv harakatga kelganida unda ishchi qarshilik yuzaga keladi: suzish jarayonida sportchi o'zi bilan bevosita yon atrofidagi suv qatlamini olib ketadi, u esa o'z navbatida o'z atrofidagi qatlamni ergashtiradi. Suv harorati oshgan sari uning qayishqoqligi pasayadi. Agarda suvda biror bir moddalar erigan bo'lsa (dengiz suvi) uning qayishqoqligi ortadi.

Agarda suvning zichligini havo zichligi bilan solishtirsak, suv havoga nisbatan 800 marotaba zichroq bo'lib suzuvchining harakatlanishiga qarshilikning asosiy sababi bo'lib xizmat qiladi.

Solishtirma og'irligi. Uning solishtirma og'irligi deb hajm birligidagi moddaning og'irligi nomlanadi. Tuzlar ko'p bo'lgan suvning (dengiz suvi) chuchuk suvga nisbatan solishtirma og'irligi ko'proq bo'ladi.

Solishtirma og'irlilikning ko'rsatgichi odamning suzuvchanligi to'g'risida baho berish imkonini beradi.

Suvning bosimi. Suyuqlik sifatida suv oquvchanlik xususiyatiga egadir, o'z hajmini saqlab turadi va o'z sirtiga egadir. Suv unga bo'lgan bosimning ortishi bilan deyarli siqilmaydi. Ammo tananing suvga cho'kkani sari unga nafaqat havo bosimi (760 mm rt/st), balki suyuqlikning o'z og'irligi ham ta'sir qiladi. Masalan, 1 metr chuqurlikda tanaga ta'sir qiluvchi bosim, inson uchun ancha sezilarlidir. Bu quloq pardasida, burun oldi og'riqlar yuzaga kelishida namoyon bo'ladi.

Suvning bosimi suvga nafas olish va nafas chiqarishga qarshilik ko'rsatadi va shu sababli nafas olish mushaklari qo'shimcha yuklanishda ishlaydi. Ammo suvning bosimi ijobjiy ta'sir ham qiladi, masalan tananing gorizontal holati, vertikal holatda anchagina yuklanishni ko'tarib turuvchi, umurtqa pog'onasi stolbini, yuklansizlantiradi. Suzishda qonning oyoqdan yurakka qarab oqishi hamda uning sirkulyatsiyasi anchagina yengilroqdir. Suvdagi hatto maksimal yuklanishlarda ham yurakning qisqarishi chastotasi quruqlikda mashq qilishda fiksatsiya qilinuvchi maksimal qismgacha ko'tarilmaydi.

Suvning refraksiyasi – yorug'lik nurlarining sinishi. Suv ostida predmetlar taxminan 25%ga kattaroq va yaqinroq tuyuladi. Bundan tashqari, yoruqlik nurlari nafaqat qaytariladi va yutiladi, balki qisman tarqaladi ham. Yorug'lik nurlarining tarqalishi chuqurlikning ortib borishi bilan yoritilganlikning kamayishiga olib keladi. Masalan, birinchi navbatda qizil rang yo'qoladi, keyinchalik to'q sariq rang yo'qoladi va nihoyat 18 m chuqurlikda odam barcha narsani yashil-havo rang tusda ko'radi.

Tovush o'tkazuvchanlik – bu suvning tarqalish tezligi. Suv ostidagi odamga suv sirtidagi tovushlar (masalan, o'qituvchining ko'rsatmalari) eshitilmaydi. Shu bilan birga suv ostida vujudga keluvchi tovushlar (motorli qayiqlar, delfinlar va bshqalar) juda yaxshi eshitiladi. Ammo suv ostida tovush to'lqinlari barcha tarafga bir xilda tarqalganligi sababli, tovush

manbayi ko'rinsama uning qayerdaligini aniqlash mumkin emas.

Suvning issiqlik sig 'imi va issiqlik o'tkazuvchanligi kabi xususiyatlari ham katta ahamiyatga egadir. Suvning issiqlik sig 'imi havoga nisbatan 4 barobar, issiqlik o'tkazuvchanligi esa 25 barobar yuqoridir. Shu sababli inson tanasi tomonidan suvda issiqlik berishi havodagiga nisbatan ancha jadal yuz beradi.

Statik suzishning qonuniyatlari.

Statik suzishning qonuniyatlari, avvalambor, *gidrostatik bosim kuchlari* bilan bog'liqdir. Ushbu kuch suvga cho'kkani tananing barcha sirtlariga ta'sir qiladi. Masalan, katta chuqurlikda suzuvchi his qilayotgan quloqlaridagi og'riq, quloqlarning baraban pereponkalariga ta'sir qilayotgan suv bosimi oqibatida yuzaga keladi. Suvning bosimi kuchi doim tananing yuzasiga perpendikulyar bo'lib chuqurlik oshgan sari ortib boradi.

Suvning itarib chiqarish kuchi. Arximed qonuniga muvofiq "Suvga cho'ktirilgan jismga yuqoriga yo'naltirilgan va jism siqib chiqargan suyuqlik vazniga teng kuch ta'sir qiladi".

Tananing gidrostatik muvozanati. Suv sathida yotgan odam tanasiga itarib chiquvchi kuch hamda og'irlilik kuchi ta'sir qiladi. Agarda suzuvchining qo'llari tana bo'ylab joylashsa ushbu kuchlarning ta'siri har xil nuqtalarda turli yo'nalishda bo'ladi. Bunday holda aylantirish momenti yuzaga keladi va natijada oyoqlar suvga cho'kadi. Tanani muvozanatlashtirish uchun qo'llarni yuqoriga ko'tarish mumkin.

Suzish qobiliyati.

Suvning solishtirma og'irligi va tananing solishtirma og'irligi farqi bilan belgilanadi. Bu farq qanchalik katta bo'lsa suzish qobiliyati ham yaxshiroq bo'ladi. Salbiy suzish qobiliyati – tananing vazni u siqib chiqargan suv hajmidan katta va tana suv tubiga cho'kadi. Ijobiy suzish qobiliyati – tana bilan siqib chiqarigan suv hajmi vazni tana vaznidan yuqori va tana suv sathida suzib turadi. Neytral suzish qobiliyati – tana siqib chiqargan suv hajmining vazni tana vazniga teng va tana ixtiyoriy chuqurlikda harakatsiz holatda bo'ladi.

Odamning suzish qobiliyati tananing solishtirma og'irligi va suvning solishtirma og'irligiga bog'liqdir. Bizning tanamiz tarkibi jihatidan bir xil emas. Eng og'ir tana qismi bu suyaklar eng yengil qism yog' to'qimalari. Masalan, mushak to'qimalarining solishtirma og'irligi $1.04-1.05 \text{ kg/sm}^3$, yog' to'qimalari – $0.92-0.94 \text{ kg/sm}^3$, suyaklar esa – $1.7-1.9 \text{ kg/sm}^3$. Ayollardan solishtirma vazn ko'rsatkichi erkaklarga nisbatan past, bolalarda esa kattalarga nisbatan pastdir. Qanchalik solishtirma og'irlilik kam bo'lsa shunchalik suzish qobiliyati yuqori bo'ladi.

Suzish qobiliyati shuningdek nafas olishga ham bog'liqdir. Chuqur nafas olishda odatda suzish qobiliyati ijobjiydir, nafas chiqarishda esa salbiydir. Tananing suzish qobiliyati zichroq bo'lgan dengiz suvida ortadi. *Suvning itarib chiqarish kuchi. Arximed qonuniga* muvofiq "Suvga cho'ktirilgan jismga yuqoriga yo'naltirilgan va jism siqib chiqargan suyuqlik vazniga teng kuch ta'sir qiladi".

Tananing gidrostatik muvozanati. Suv sathida yotgan odam tanasiga itarib chiquvchi kuch hamda og'irlilik kuchi ta'sir qiladi. Agarda suzuvchining qo'llari tana bo'ylab joylashsa ushbu kuchlarning ta'siri har xil nuqtalarda turli yo'nalishda bo'ladi. Bunday holda aylantirish momenti yuzaga keladi va natijada oyoqlar suvga cho'kadi. Tanani muvozanatlashtirish uchun qo'llarni yuqoriga ko'tarish mumkin.

Suzish qobiliyati.

Suvning solishtirma og'irligi va tananing solishtirma og'irligi farqi bilan belgilanadi. Bu farq qanchalik katta bo'lsa suzish qobiliyati ham yaxshiroq bo'ladi. *Salbiy suzish qobiliyati* – tananing vazni u siqib chiqargan suv hajmidan katta va tana suv tubiga cho'kadi.

Ijobiy suzish qobiliyati – tana bilan siqib chiqarigan suv hajmi vazni tana vaznidan yuqori va tana suv sathida suzib turadi. *Neytral suzish qobiliyati* – tana siqib chiqargan suv hajmining vazni tana vazniga teng va tana ixtiyoriy chuqurlikda harakatsiz holatda bo'ladi.

Odamning suzish qobiliyati tananing solishtirma og'irligi va suvning solishtirma og'irligiga bog'liqdir.

Bizning tanamiz tarkibi jihatidan bir xil emas. Eng og'ir tana qismi bu suyaklar eng yengil qism yog' to'qimalari. Masalan, mushak to'qimalarining solishtirma og'irligi 1.04-1.05 kg/sm³, yog' to'qimalari – 0.92-0.94 kg/sm³, suyaklar esa – 1.7-1.9 kg/sm³. Ayollardan solishtirma vazn ko'rsatkichi erkaklarga nisbatan past, bolalarda esa kattalarga nisbatan pastdir. Qanchalik solishtirma og'irlik kam bo'lsa shunchalik suzish qobiliyati yuqori bo'ladi.

Suzish qobiliyati shuningdek nafas olishga ham bog'liqdir. Chuqur nafas olishda odatda suzish qobiliyati ijobjiydir, nafas chiqarishda esa salbiydir. Tananing suzish qobiliyati zichroq bo'lgan dengiz suvida ortadi.

Dinamik suzishning asoslari.

Inson tanasini undagi egri chiziqli sathlar mavjudligi sababli, gidromexanika nuqtayi nazaridan yomon oqib o'tiluvchi jismlargacha talluqlidir. Bundan harakatlanish natijasida yuzaga keluvchi suvning turbulent oqimlari va girdobsimon harakatlari ham dalolat beradi.

Suzuvchi tanasining harakatlanish mobaynidagi holati *hujum burchagi* bilan, ya'ni tananing bo'ylama o'qi va suvning sathi orasidagi burchak bilan tavsiflanadi. Hujum burchagi oshgan sari suvning ro'baro' qarshilik ortadi.

Suvning yuqori qarshiligi (umumiyligida qarshilik) kuchi o'z tarkibiga quyidagilarni kiritadi: shaklning qarshiligi, ishqalanish qarshiligi, to'lqin vujudga kelishiga qarshilik.

Shaklning qarshiligi.

Tananing suvda harakatlanishida, uni oqib o'tuvchi oqim tana bilan "qirqib" boriladi va uning orqasida yana birlashadi. Urchuqsimon shakldagi tana (ovalsimon oldingi yuzaga va bir tekisda va ravon kamayib boruvchi orqa yuzaga ega) eng yaxshi oqib o'tiluvchi tanadir. Eng yomon oqib o'tiluvchi shakl bu sirti bilan oldinga qarab harakatlanuvchi disk yoki plastinadir.

Shunday qilib, insonning eng yaxshi oqib o'tiluvchi shakli tananing bir chiziqda cho'zib qo'llarini oldinga cho'zib boshiga bosib olganidagi holatidir.

Ishqalanish qarshiligi.

Tananing suvda harakatlanishida suvning molekulalari tanaga "yopishib" oladi va tananing harakat tezligi bilan harakatlanib, yon atrofdagi suv sathini ergashtirib ketadi. Buning natijasida tana bilan birgalikda atrofdagi suvning anchagina qatlami ham harakatga keladi. Harakat tezligi qanchalik yuqori va qayishqoqlik qanchalik yuqori bo'lsa bu qatlam shunchalik ko'p bo'ladi. Suzuvchi o'z ortidan qanchalik ko'p suvni ergashtirsa unga shunchalik suzish qiyinlashadi. Shu sababli kiyimda suzish, yomon yopishib turuvchi yoki qalin matodan ishlangan suzish kiyimda suzish juda qiyindir. To'lqin vujudga kelishiga qarshilik. To'lqin suv massalarining tebranish jarayonidir. To'lqin vujudga kelishiga qarshilik suzuvchi tanasining suzish tezligiga, uning solishtirma vazniga va harakat texnikasiga bog'liqdir.

To'lqin vujudga kelishiga qarshilik suzish tezligiga qanchalik ta'sir qilishini amaliyotda tasavvur qilish uchun bir xil masofani brass usulida suv sathi bo'ylab va suv ostida suzib o'tish orqali ko'rish mumkin. Suv ostida suzish tezligi yuqoriroq bo'ladi, chunki to'lqinlar faqatgina suv sathida vujudga keladi, suv ostida esa ular bo'lmaydi. Suzishda biz asosan tarqalib ketuvchi va ko'ndalang to'lqinlarga uchramyz. Suv sathidagi ixtiyoriy to'lqinlar suzishga xalaqit qiladi. Shu sababli sport uchun basseynlarning bortiki bo'ylab maxsus shakldagi jeloblar yoki yo'lakchalar bo'lib, ular vujudga kelgan to'lqinlarni so'ndiradi.

Sport suzishi texnikasi – suzuvchiga o'zining harakatlanish imkoniyatlarini eng yaxshi tarzda amalga oshirish va musobaqlarda yuqori natijalarini ko'rsatish imkonini beruvchi harakatlarning ratsional tizimidir.

Suzuvchining harakatlanish texnikasi uning biologik xususiyatlari bog'liqdir, shu sababli suzishning biomexanik qonunlarini bilish zarur.

Suzishning biomexanik qonunlari tananing suv bilan ham harakatsiz holatda ham harakatlanish mobaynida o'zaro ta'sir qilish qoidalaridir.

Sport suzishi texnikasi deganda, shunday harakatlar tizimi tushiniladi, u suzuvchiga kuchini ratsional ishlatib hamda musobaqalar qoidalariga mos ravishda musobaqa masofasini imkonli boricha yuqori tezlik bilan suzib o'tishini ta'minlaydi. Suzuvchining musobaqa faoliyati start olishni, masofa bo'ylab harakatlanishni, burilishni bajarishni va finishni o'z ichiga oladi. Suzishning sport usullari bu – ko'krakda krol, chalqancha krol, brass, batterfly.

2.2. Ko'krakda krol usulida suzish texnikasi

Amaliy ahamiyati. Suzishning ko'krakda krol usulining amaliy ahamiyati shundaki, ushbu usul turli sharoitlarda suv to'siqlarini kesib o'tish, kiyimda suzish, suvda cho'kayotganlarga yordam berish va boshqalarda foydalanilishidir. Ko'krakda krol usuli bilan suvga sho'ng'ib suv ostida suzish, faqatgina oyoqlar bilan ishlab yoki brass usuli kabi qo'llar eshish harakati bilan yordamlashib suzish mumkin.

Gavdaning holati.

Ko'krakda krol usulida suzishda suzuvchining gavdasi deyarli gorizontal holatda suvning sathida joylashadi. Suzuvchining boshi yuz bilan pastga suvga tushiriladi (nafas olish momentidan tashqari), sonlar suv sathi yaqinida.

Oyoqlar bilan harakatlar.

Ko'krakda krol usulida suzishda oyoqlar navbatma-navbat pastdan yuqoriga qarab (tayyorlov harakati) va yuqoridan pastga qarab ("zarba") kichik aplituda bilan, tizza bo'imlari minimal bukilgan holatda, oyoq kaftlari ozgina ichki tarafga qayiltirilgan holatda bo'ladi, bu esa tanani gorizontal va oqib o'tiluvchi holatni egallash imkonini yaratadi va tanani oldinga harakatlantiradi. Oyoqlar sondan boshlab harakatlanadi. Sondan so'ng boldirlar va oyoq kaftlari harakatga jalg qilinadi. Oyoqlarning to'g'ri harakatlantirilgan holatida suvning yuzida sachrashlar va ko'pixsimon iz vujudga keladi.

Qollar bilan harakatlar.

Ko'krakda krol usulida suzishda qo'llar navbatma-navbat suvda eshish harakatlarini hamda tayyorlov harakatlarini – suv

ustida harakatlarni amalga oshirishadi. Qo'l harakatining to'liq sikli quyidagi fazalarga bo'linadi: eshish harakati (suvda) – suvni ushslash, tortilish, itarilish (suv ustida) – qo'lning suvdan chiqishi, uni ko'tarib o'tish, qo'lni suvga kirishi.

Bir qo'l eshish harakatni qilayotgan vaqtida ikkinchi qo'l suv sathidan yuqorida harakatlanadi, suvga kiradi va ilgari tortiladi. Ko'krakda krol usulida suzish tezligining nisbatan bir tekisligiga erishish uchun qo'lning eshish harakati boshqa qo'l bilan amalga oshirilgan eshish natijasida erishilgan tezlik hali kamaymasligi mobaynida amalga oshirilishi zarur.

Nafas olish.

Havo olish qo'lni suvdan chiqish vaqtida og'iz bilan amalga oshiriladi. Havo olgandan so'ng suzuvchi boshini yuzi bilan pastga qarab buradi va asta-sekinlik bilan havoni og'zi va burni orqali suvga chiqara boshlaydi. Qo'llar harakati va nafas olishning moslashtirilish variantlari quyidagilardir: bitta havo olish va havo chiqarish ikkita qo'llar bilan eshishga (bir tomonlama nafas olish varianti); bitta havo olish va havo chiqarish uchta qo'llar bilan eshishga (ikki tomonlama nafas olish varianti).

Harakatlarning umumiy moslashtirilishi. Ko'krakda krol usulida suzishda harakatlarni moslashtirilishining bir necha turlari ajratiladi: "olti zorbali", "to'rt zorbali", "ikki zorbali". "Olti zorbali" harakatlar variantida harakatlarning to'liq sikli quyidagilarni o'z ichiga oladi: qo'llar bilan ikkita harakat (o'ng va chap qo'l bilan), oyoqlar bilan oltita zarba (har bir oyoqning yuqoriga va pastga harakati – bitta harakat), nafas olish va nafas chiqarish.

2.3. Chalqancha krol usuli suzish texnikasi

Gavdaning holati. Chalqancha krol usulida suzishda suzuvchining gavdasi deyarli gorizontal, cho'zilgan va yengil oqib o'tiluvchi holatda joylashadi. Yelka chizig'i tosdan sal yuqorida joylashadi, tos va sonlar suv sathi yonida. Tananing hujum burchagi 6-10°. Suzuvchining boshi orqasi suv ichida,

suv sathi taxminan qulqlar chizig`i bo`ylab o'tadi, yuz yuqoriga qaratilgan.

Oyoqlar harakatlari.

Chalqancha krol usulida suzishda oyoqlar navbatma-navbat pastdan yuqoriga qarab ("zarba") va yuqoridan pastga qarab (tayyorlov harakati) harakatlanadi. Sonlar harakati amplitudasi o `rtacha, ular suv sathi yonida ushlab turiladi. Tizza bo'g'imlari oyoqlarning bukilishi darajasi, ko'krakda krol usuliga nisbatan ko 'proq, oyoq kaftlari suvgaga ko'proq kiradi. Oyoqlar bilan navbatma-navbat harakatlarning asosiy maqsadi – tananing yengil oqib o'tiluvchi muvozanatlangan holatini saqlash hamda suzuvchini ilgarilab harakatlanishini ta'minlovchi kuchlarni paydo qilishda ma'lum bir ulushlarini ta'minlash.

Qo'llar bilan harakatlar.

Qo'lning to'liq harakati sikli quyidagi fazalarga bo'linadi: suvni ushslash, tortilish, itarilish (eshish harakati) va qo'lning suvdan chiqishi, havodan olib o'tish, qo'lni suvgaga kirishi (tayyorlov harakati).

Qo'llar harakatlarining moslashtirilishi eshish harakatlarining uzlusizligini ta'minlashi zarur: bitta qo'l eshish harakatini tugatib suvdan chiqish vaqtida ikkinchi qo'l suvgaga kiradi va suvni ushslashni boshlaydi (uzluksiz kelishish).

Nafas olish bitta qo'lning harakatini to'liq sikli bilan kelishiladi. Chalqancha krol usulida suzishda nafas olish ancha yengil, chunki havoni chiqarish suv sathidan yuqorida va boshni burmasdan amalga oshiriladi. Havo olish og`iz bilan, havo chiqarish – og`iz va burun orqali amalga oshiriladi. Nafas olish "uch takti" – havo olish, nafasini ushlab qolish, havo chiqarish.

Harakatlarning umumiyligi kelishtirilishi.

"Olti zarbali" chalqancha krol – harakatlarni kelishtirishining eng ratsional variantidir. Uning asosini nafas olish bilan moslashtirilishi ta'minlangan holda tinimsiz qo'llar bilan eshishni amalga oshirishni tashkil qiladi. Qo'llar bilan bitta to'liq siklga oyoqlar bilan oltita navbatma-navbat harakatlar (oyoq kaftlari bilan yuqoriga qaratib oltita "zarba") mos keladi.

2.4. Brass usulida suzish texnikasi

Gavdaning holati.

Brass usulida suzishda suzuvchining gavdasi suv sathi yonida gorizontal holatda, yuz suvgaga tushirilgan, oyoq va qo'llar cho'zilgan, kaftlar pastga qaratilgan holatda bo'ladi. Nafas olish vaqtida bosh va tana suv sathidan bir oz yuqoriga ko'tariladi.

Oyoqlar bilan harakatlar.

Oyoqlar bilan harakatlar siklli tayyorlov harakati va ishchi harakatlarga bo'linadi. Tayyorlov harakatida (tortilishda) suzuvchi oyoqlarini tizza va tos-boldir sustavlarida bukadi va tizzalarini yon tomonga-orqaga ochadi (oyoq kaftlari imkonim boricha suv sathiga yaqinroq harakatlanadi). Tortilish yakunlanganida, suzuvchi tez, ammo yumshoq tarzda oyoq uchlarini turli taraflarga buradi. Ushbu holatdan ishchi harakat – itarilish boshlanadi. Itarilish oyoqlarni aktiv ravishda tos-boldir mushaklarda, tizza va gojenostop mushaklarida to'g`rilash hisobiga amalga oshiriladi. Itarilish vaqtida suzuvchi xuddi boldir va oyoq kafti bilan suvgaga tayangan holda bo'ladi

Oyoqlar harakati yoysimon chiziq bo`ylab amalga oshirilib, yon taraflarga-orqaga yo'naltiriladi va itarilishni yakunlovchi oyoqlarni jipslashtirilishiga qadar davom etadi. Oyoqlar bilan itarilgandan so'ng suzuvchi inertsiya bilan ilgariga qarab sirpanadi.

Qo'llar bilan harakatlar.

Brassda qo'l harakatlari bir vaqtida va simmetrik ravishda bajariladi.

Eshish harakati qo'llar oldinga qarab cho'zilgan holatida boshlanadi. Suzuvchi qo'l panjasini kaftlarini tashqi tarafga qaratib buradi va jadal tarzda qo'llarni yon tarflarga-orqaga qarab yuritadi. Eshish harakati tekis qo'llar bilan bajariladi va yelkalar chizig`ida tamomlanadi. Bu yerda qo'llar tirsaklarda bukiladi, panjalar birlashtiriladi, tirsaklar pastga tushiriladi va qo'llarni tezlik bilan ilgariga olib chiqish boshlanadi. Qo'llar tekislanganidan so'ng sirpanish boshlanadi, va uning davomida panjalar deyarli suv sathida bo'lib kaftlar pastga qaratilgan bo'ladi.

Nafas olish.

Brass bilan suzishda havo olish qo'lllar bilan eshish harakatini qilish boshida bajariladi. Suzuvchi, go'yoki suvga qo'l panjalari bilan tayangan kabi havo olish uchun boshini ko'taradi. Boshqa vaqtda, qo'llar oldinga qarab yuritish davomida havo chiqariladi.

Harakatlarning umumiyligi kelishtirilishi.

Boshlang'ich suv sathida tekis qo'llar va oyoqlar bo 'lgan holatda suzuvchi bir vaqtning o'zida havo olib, qo'llar bilan eshishni boshlaydi. Qo'llar bilan eshishning yakunida oyoqlarni tortib olish bajariladi. Oyoqlar itarilishni bajarish uchun boshlang'ich holatga kelganida suzuvchi qo'llarini oldinga qarab yuritishni boshlaydi. Qo'llarni oldinga qarab tekislash bilan bir vaqtda oyoqlar kuch bilan itarilish harakatini amalga oshiradi va undan so'ng boshlang'ich holatga sirpanib boriladi. Yangi qo'llar bilan eshishni boshlashdan avval suzuvchi davomiy suvga havoni chiqarib tashlaydi.

2.5. Batterfly usulida suzish texnikasi

Gavdaning holati.

Suzuvchi suv sathida ko'krak bilan yotib joylashib, tinimsiz ravishda butun tanasi bilan to'lqinsimon harakatlarni bajaradi. Bunday harakatlar oyoqlarning eng effektiv ishini ta'minlaydi.

Oyoqlar bilan harakatlar.

Batterfly usulda suzishda oyoqlar birligida ishlaydi. To'lqin tosning pastga-yuqoriga harakatlaridan boshlanib, tobora o'sib boruvchi amplituda bilan tos-son, tizza va son mushaklariga o'tib boradi. To'lqinsimon harakatlar ikkala oyoq kaftining yuqoridan pastga qarab jadal silkitilishi bilan yakunlanadi.

Qo'llar bilan harakatlar.

Batterfly usulda suzishda qo'llar eshish bajarishni va suv sathi ustidan o'tkazilishini bir vaqtida va simmetrik amalga oshiriladi. Qo'llar suvga yelkalar kengligida kiradi. Eshish tirsak mushaklarida bukilgan qo'llar bilan o'z ostiga qaratib bajariladi. Eshish vaqtida qo'l panjalari parallel harakatlanadi, ularning orasidagi masofa esa 15-20 santimetrni tashkil qiladi.

Tirsaklar bir oz chetga ochilgan. Eshish qo'llarni suvdan chiqishi bilan yakunlanadi. Qo'llar suvdan chiqishini va ularni havo bo'ylab harakatini yengillashtirish maqsadida eshish yakunida qo'llar tashqariga burilib, yon taraflarga-orqaga qarab harakatlantiriladi.

Nafas olish qo'llarning harakatlari bilan moslashtiriladi. Havo olish qo'llar bilan eshish harakatining yakunlashishida va qo'llar suvdan chiqarilishi mobaynida bajariladi. Bu vaqtga kelib suzuvchining boshi va yelkalarini suvdan chiqib turadi. Havoni chiqarish qo'llarni suv ustidan o'tkazish va qo'llar bilan eshishni boshlashda bajariladi.

Harakatlarning umumiyligi moslashtirilishi.

Batterfly bilan suzishda qo'llar va oyoqlarning harakatlarini o'zaro moslashtirishning ikki variantidan foydalilanadi: "bir zarbali" (qo'llar bilan harakatning bir sikli davomida suzuvchi oyoqlar bilan bitta zarbani bajaradi) va "ikki zarbali" (qo'llar bilan harakatning bir sikli davomida suzuvchi oyoqlar bilan ikkita zarbani bajaradi). "Ikki zarbali" variantda oyoqlar bilan birinchi zarba qo'llarni suvga kirishi bilan bir vaqtida bajariladi, ikkinchi zarba esa – qo'llar bilan eshish harakatining yakunida va havo olish bilar bir vaqtga mos keladi.

2.6. Start va burulishlarni bajarish texnikasi

Supachadan start olish.

Umumiy tavsifi. Musobaqalarning qoidalari muvofiq, chalqancha krol suzish usulidan tashqari barcha usullar bilan suzishda sportchi startni start supachasidan turib sakrashdan boshlaydi. Supachaning suv sathidan balandligi 0.5 – 0.75 metrni tashkil etadi. Startni sifatli bajarilishi 0.2 - 0.4 sekundga qadar vaqt yutilishini ta'minlaydi. Supachadan start sakrashni bajarilishining eng tarqalgan variantlari bu "qo'llarni silkitish bilan start", "ushlab olish bilan start", "yengil atletika starti", "gruppirovkadan turib start".

Start texnikasini analiz qilishda quyidagi fazalarni ajratib o'tish mumkin:

- boshlang'ich holat;

- tayyorlov harakatlari va itarilish;
- parvoz;
- suvga kirish;
- sirpanish;
- birinchi suzish harakatlari va suv ustiga chiqish.

Boshlang`ich holat.

Oldindan komandaga muvofiq suzuvchi start tumbochkasining orqa qirrasidan joy oladi. "Na start!" tayyorlov komandasidan so'ng u kamida bitta oyog'i bilan tumbochkaning oldingi qirrasiga turishi va start olishga shay bo'lishi lozim. "Ushlab olish bilan start" bajarish uchun boshlang`ich holatda suzuvchining oyoqlari tizza sustavlarida bukilgan ($135-150^{\circ}$), oyoq kaftlari yelka kengligida, oyoq barmoqlari tumbochka qirrasini ushlab turadi.

Gavda og'ilgan, qo'llarning barmoqlari tumbochkaning qirrasini oyoq kaftlari orasida (yoki ularning yonidan) ushlab turadi. Bosh egilgan, nafas ushlangan. Bu holatda suzuvchining tizzalari tumbochkaning oldingi qirrasi ustida joylashadi, yelka chizig'i va bosh – bir oz oldinda. Tananing og'irlik markazi oyoq kaftining oldingi tomoniga o'tkazilgan, suzuvchi zudlik bilan start olish harakatlarini boshlashga tayyor.

Tayyorlov harakatlari va itarilish "Marsh!" komandasiga muvofiq bajariladi. Sportchi qo'llari bilan tumbochka qirrasiga bosib tanasining muvozanat holatidan chiqaradi, oyoqlari bilan itariladi, qo'llarini siltab va boshini tanasi va qo'llarini oldinga-yuqoriga jo 'natadi. Iloji boricha tezkorlik bilan, katta kuch bilan itarilish va tanani yuqoriga-oldinga yo 'nalishda optimal traektoriya bo'ylab jo'natish juda muhimdir. *Parvoz* oyoqlarni tumbochkadan uzilishi bilan boshlanadi. Tana cho'ziladi, taranglashadi va ratsional traektoriya bo'ylar uchib boradi.

Qo'llar oldinga qarab yo'naltiriladi, bosh qo'llar orasiga joylashadi. *Suvga kirish* qo'l panjalarining suvga kirishi bilan boshlandi. Ketma-ketlik bilan go'yoki bir nuqtaga qo'llar, bosh, gavda, sonlar va oyoq kaftlari kiradi.

Suzuvchi oqib o'tiluvchi holatni saqlab suvga kirish chuqurligini boshqaradi.

Suvga kirishning optimal burchagi sifatida $15-30^{\circ}$ ga teng burchak hisoblanadi. *Sirpanish* suvga oyoqlarning kirishi bilan boshlanadi. Ushbu fazaning o'ziga xos xususiyati suzuvchi tanasining havo muhitidan, zichligi deyarli 800 marta katta bo'lgan suv muhitiga kirishidir. Suv ostida sirpanish suv oqib o'tishi ta'minlanuvchi holatda va 80 sm dan ortiq chuqurlikka tushmasdan amalga oshirilishi zarur.

Birinchi suzish harakatlari va suvdan chiqish.

Ko'krak bilan krol usulida suzishda qisqa muddatli sirpanishdan so'ng suzuvchi oyoqlari bilan krol usuli harakatlarini bajaradi va yuqori harakatlanish tezligini saqlab turadi. Brass bilan suzishda suzuvchi uzun, sonlarigacha bo'lgan eshishni bajaradi, bundan keyin qisqa muddatli "ikkinchi" sirpanish bajariladi, qo'llar oldinga chiqariladi, oyoqlar itarilish uchun tortili so'ngra jadallik bilan oyoqlar bilan itarilish amalga oshiriladi.

Suv ichidan start olish.

Suvdan turib start olish orqa bilan krol usulida suzishda amalga oshiriladi. *Boshlang`ich holat.* Birinchi oldindan komandadan so'ng suzuvchi suvga sakrab tushadi va start supacha oldida ularga qarab turgan holda boshlang`ich holatni egallaydi. Suzuvchi yelka kengligidagi to'g'ri qo'llar bilan, yuqoridan tutib turish (xvat) bilan ushlaydi. Oyoqlarini bukib, sportchi basseyn devoriga suv sathidan pastda oyoq kaftlari bilan mustahkam tayanib oladi, tizzalar bunda qo'llar orasida qoladi.

"Na start!" komandasiga muvofiq suzuvchi qo'llarini bukib o'zini supacha tomon bir oz tortib oladi va ana shu boshlang`ich holda qimirlamay turadi. Start signali berilishi bilan sportchi startni bajarishni boshlaydi.

Uning start mobaynidagi harakatlarini shartli ravishda quyidagi fazalarga bo'lish mumkin:

- tayyorlov harakatlari va itarilish;
- parvoz;
- suvga kirish;
- sirpanish;
- birinchi suzish harakatlari va suv ustiga chiqish.

Tayyorlov harakatlari va itarilish.

Start signali bo'yicha suzuvchi start supacha ushlagichini qo'yib yuboradi va keskin siltanish (max) harakati bilan qo'llarini oldinga yo'naltiradi (ko'zda tutilgan harakat yo'nalishida), shu bilan birga oyoqlari bilan basseyn devorlaridan jadallik bilan itarilish amalga oshiriladi. Sportchining tanasi bunda cho'ziladi va egiladi.

Parvoz fazasi oyoqlarni basseyn devorlaridan uzilishi bilan boshlanadi. Suzuvchi yanada ko'proq egiladi va boshini orqaga qarab tashlaydi. *Suvga kirish fazasi* qo'llar panjalarini suvga kirishi bilan boshlanadi. Ketma-ketlik bilan go'yoki bir nuqtaga qo'llar, gardan (zatilok) va yelkalar kiradi, keyin orqa suvga kiradi.

Sirpanish, birinchi suzish harakatlari va suvdan chiqish.

Suv ostida sirpanish qisqa vaqt davom etadi. Suzuvchi dahanini ozgina ko'kragiga siqib tanasining oldinga-yuqoriga qarab yo'naltiradi, sirpanish tezligini jadallik bilan oyoqlarning harakatlari va qo'lini eshish bilan saqlab oshiradi (ikkinchchi qo'l yuqoriga qarab cho'zilib qoladi).

Nazorat savollari

1. Suvning fizikaviy xossalari haqida gapirib bering?
2. Statik suzish qonuniyatları haqida gapirib bering?
3. Dinamik suzish qonuniyatları haqida gapirib bering?
4. Sport suzish texnikasi deganda nimani tushunasiz?
5. Suzuvchining harakatlanish texnikasi, uning biologik xususiyatlari haqida gapirib bering?
6. Ko'krakda krol usuli suzish texnikasi haqida gapirib bering?
7. Ko'krakda krol usuli texnikasining amaliy ahamiyati haqida gapirib bering?
8. Ko'krakda krol usulida suzishni o'rgatayotganda qaysi mashqlardan boshlash kerak?
9. Bolalar suzish mashg'ulotlariga kelganida birinchi qaysi sportcha usuldan boshlagani ma'qulroq?

10. Chalqancha krol usulida suzishga qisqacha tavsif bering?
11. Chalqancha krol usulida suzishda oyoq harakatlarini o'rgatishda qanday mashqlar beriladi?
12. Chalqancha krol usulida suzishda qo'l harakatlarini o'rgatishda qanday mashqlar beriladi?
13. Chalqancha krol usulida to'liq koordinatsiyada suzishga o'rgatishda qanday mashqlardan foydalaniladi?
14. Brass usulida suzishga qisqacha tavsif bering?
15. Brass usulida suzishda oyoq harakatlarini o'rgatishda qanday mashqlar beriladi?
16. Brass usulida suzishda qo'l harakatlarini o'rgatishda qanday mashqlar beriladi?
17. Brass usulida to'liq koordinatsiyada suzishga o'rgatishda qanday mashqlardan foydalaniladi?
18. Batterfly usulida suzishga qisqacha tavsif bering?
19. Batterfly usulida suzishda oyoq harakatlarini o'rgatishda qanday mashqlar beriladi?
20. Batterfly usulida suzishda qo'l harakatlarini o'rgatishda qanday mashqlar beriladi?
21. Batterfly usulida to'liq koordinatsiyada suzishga o'rgatishda qanday mashqlardan foydalaniladi?
22. Start olish texnikasi haqida gapirib bering?
23. Nech xil start olishlar mavjud?
24. Burulishlar texnikasi haqida gapirib bering?
25. Necha xil burulishlar mavjud?

III BOB.SUZUVCHILARNING UMUMIY VA MAXSUS JISMONIY TAYYORGARLIGI. TEXNIK VA TAKTIK TAYYORGARLIK

3.1. Suzuvchilarning kuch qobiliyatlarini rivojlantirish

Umumiy ma'noda sportchining kuchi suv vositasining tashqi qarshiligini yengishi yoki unga mushakning kuchlanish hisobiga qarshi turishida aniqlanadi. Bu qismda kuch qobiliyatini eng avvalo, suzish tezligini u yoki bu sport qobiliyatini aniqlovchi sharoit sifatida ko'rib chiqish lozim.

Suzishda yuqori tezlikka erishish, birinchi galda, suzuvchining kuch qobiliyatiga bog'liq. Suzishning maksimal tezligi oshgani sari, kuchni oshirish uchun, suzuvchiga har jihatdan kuchli tayyorgarlik zarur. Suzuvchining kuch imkoniyatlari darajasi haqida uning qomatiga qarab, baho berish mumkin. Bo'yi va tana og'irligi, yelka kengligi va bo'ksalarning kattaligi suzuvchining kuch imkoniyatlari bilan to'g'ri proporsionaldir. Suzishning barcha usullarida kichik masofalarda muvaffaqiyatga erishish uchun kuchning baland darajada rivojlanishi talab qilinadi. Suzuvchiga kuch sifatlarining barcha ko'rinishi va birinchi galda kuchli chidamlilik zarur.

Suzish davrida ishlatilgan kuchning xarakteri va ularning son ko'rsatkichlari mashg'ulot natijasida suzishning sport usullari motorli spetsifikasi bilan aniqlanadi va barcha hollarda organizmdagi moslashuvli qayta qurilishlar bilan shartlangan, ular quyidagilarda afzalroq ifodalanadi:

1 - MNSning talab qilinayotgan motorli periferiyaga supraspinal qo'zg'atuvchi jo'natma talab qiluvchi qudratini yaratish qobiliyatini oshirish va mushaklararo koordinatsiyalarning markaziy dasturlarining asosiy parametrlarini ta'minlash;

2 - asab-mushak tizimlarini uning ishining talab qilinuvchi tartibga moslab, morfob funksional ixtisoslash;

3 - kuchlangan mushak faoliyatining tizimi kattaligi va

energiya bilan ta'minlash sig'imini oshirish.


4 - harakat faolligi bilan ta'minlovchi organizm jismoniy tizimining barcha funksional imkoniyatlarini istisno qilmasdan kengaytirish;

5 - kuchlangan mushaklar faoliyatining aniq sharoitlarda ishlash qobiliyatining baland darajasini ta'minlovchi organizmdagi tizimlararo ixtisoslashgan munosabatlarni shakllantirish.

Ko'rsatilgan moslashishdagi qayta qurishlarni aniqlovchi asosiy shartlardan biri, bu mushaklarning spetsifik ish tartibi hisoblanishini ta'kidlab o'tish muhim. Aynan shu holat, sabab faktorlari sifatida yuzaga kelib, organizmga butunlay va uning ish qobiliyatining butun fiziologik tizimining ixtisoslashishi orqali yuzaga keladigan ish qobiliyatining talab qiluvchi shaklini aniqlaydi.

Bunda ulardan ba'zi birining ustunlik roli mushaklarning ish tartibi spetsifikasida, ikkinchi – mukammallashtirish darajasi esa, - mashg'ulot ishlarining davomiyligi va hajmida aniqlanadi.

Mushaklarning organizm fiziologik tizimi tomonidan ish qobiliyati funksional ta'minlanishining umumiy ko'rinishi 1 – rasmida ifodalangan. Bunda sxema – aynan bu uning asosiy vazifasi – sport mashg'uloti sharoitida organizmning funksional faolligida mushak faoliyatining ahamiyatini ajratib ko'rsatadi.



1-rasm.

Mushak ishlarining funksional ta'minlanadi.

Inson mushaklari tezkor qisqarish va ahamiyatli kuchlanish qobiliyatiga ega bo'lgani kabi, rivojlanayotgan charchoq sharoitidagi uzoq ishlash qobiliyatiga ham ega. Bu eng avvalo, mushaklarning mushak tolalarining bir tekis bo'limgan tarkibida ifodalanuvchi, tezligi va sekinligi bilan ajralib turuvchi morfofunktional xossalarda bo'lishi mumkin.

Agar gidrodinamik qarshiligining ahamiyatsiz o'sishida suzish tezligining oshishi muammolaridan kelib chiqsak, unda asosiysi, suzuvchining sport harakatlarining harakatli tarkibini tashkil etishning mutlaqo qiyinligiga e'tiborni qaratish lozim.

Bunda qiyinchilik ularning koordinatsion fiziologik mexanizmining haddan tashqari noziklikda emas, balki uni suzuvchi suzish harakatini bajarish davrida duch keladigan ahamiyatli ichki va tashqi qarshilik sharoitida amalga oshirishidagi qiyinchiligidadir.

Bu yerda harakatni kenglikda shunchaki ratsional koordinatlash emas (o'z-o'zidan ma'lum qiyinchilikni bildiradi), imkonи boricha minimal vaqtida shiddatli kuchlanishni bajarish zarur. Shuning uchun suzuvchilar bajarayotgan harakatining samaradorligi haqida gap ketayotganda, eng avvalo, harakatning o'zini, ya'ni tananing nisbiy ko'chib yuruvchi qismlarini emas, bu paytda paydo bo'ladigan kuch maydoni tarkibining tartiblanishini e'tiborga olish lozim. Boshqacha qilib aytganda, gap harakatlarni boshqarishnigina emas, balki, bu harakatlarni boshqarib turuvchi kuchlanishni boshqarish haqida ketyapti. Bu suv vositalari sharoitida inson harakati ta'sirini boshqarishning markaziy zaruratidir.

Suzuvchining ishchi kuchi kattaligida bevosita paydo bo'luvchi kuch qobiliyati (tortish kuchining yaratilishi), organizmning butun reaksiyasida ta'minlanadi. Shuning uchun kuch qobiliyatini «mushak kuchi» deb ataluvchi manfaatni ko'zlovchi tushunchaga, ya'ni uning qisqarish xossasining mexanik xarakteristikasiga yondashtirish

mumkin emas. Shu bilan birga quyidagilarni e'tiborga olish zarur. Birinchidan, mushak kuchi istalgan tezlik harakatinig dinamik komponenti hisoblanib, uning tezligiga, tashqi qarshiligidagi va ishning davomiyligiga bog'lanib, turli sifat xarakteristikasiga ega bo'lishi mumkin. Ikkinchidan, sport faoliyati sharoitida harakatning ish samarasi rivojlanayotgan kuch kattaligining maksimumi kabi bunga ketgan vaqt ham aniqlanadi. Shuning uchun suzuvchi kuch qobiliyatining asosiy baholash mezonini bo'lib, ish kuchining quvvati ko'rsatkichi bo'lishi lozim.

Suzuvchining kuch qobiliyati sport faoliyatida quyidagilarda namoyon bo'lishi mumkin:

- bir karra (start),
- qayta (burilishlar),
- davriy ishda (suzish harakatlari)
- o'zgaruvchan ishda (suzish paytida davriy ishdan, burilayotganda nodavriyga o'tish),
- katta qarshilikka (eshish harakati) yoki uncha katta bo'limgan (tayyorgarlik harakatlari) tashqi qarshilikka qarshi
- mushaklarning turli holatida – bo'shashgan (ko'lni suv tepasidan olib o'tganda) yoki kuchlanishi (eshishni bajarishda).

Suzuvchining kuch qobiliyatini rivojlantirish uchun yoshga doir dastlabki shart-sharoitlar

Suzuvchilarining kuchli tayyorlash amaliyotida turli yoshda suvda va quruqlikda ko'p sonli mashqlar qo'llaniladi.

Quruqlikda bazaariladigan harakatlar shakli va tortish kuchi kattaligi sportchining suvdagi harakatiga maksimal yaqinlashadi. Aniqki, har bir sportchi o'zi ixtisoslashayotgan suzish usuliga mos sport harakatlarini bajaradi. Boshqacha qilib aytganda, har bir suzish usulida jismoniy tayyorgarlanish aniq mushaklar guruhlarining rivojlanishiga urg'u berishda

o'tkaziladi. Brass suzishida tezligiga nojo'ya ta'sir - yelka chizig'ining mushaklarining kuchli rivojlanishiga, orqa bilan suzish tezligiga esa, haddan tashqari mushakli va og'ir oyoqlar ta'sir qiladi.

Suzuvchining kuch imkoniyatlarini oshirish uchun suzuvchilar nafaqat zalda, balki suvda ham ishlaydi. Qo'l kuchi va eshishni rivojlantirish uchun panjaga kiyiladigan kurakchalar qo'llaniladi. Bu panja yuzasini va shunga mos suv qarshiligidini oshiradi, buning oqibatida kuchli eshish shakllanadi, qo'l mushaklari esa, qo'shimcha yuklamaga ega bo'ladi.

Tormoz belbog'i va cho'ntakli maxsus kostyumlar suzuvchiga o'zining kuchli tayyorgarligini suzib o'tib mukammallashtirayotganda, qo'shimcha qarshilikni yuzaga keltiradi. Kuch imkoniyatlarini oshirishning samarali vositasi bo'lib, jahonda nol tezlikda bog'langan suzish hisoblanadi. Sportchi hovuz chetiga va suzuvchining belbog 'iga boylangan holdagi elastik shnurni tortib suzadi.

Kuchli tayyorlashni oshirishning ustida ishlayotganda, bo'g'imlardagi harakatchanlik va kuchning antagonistikligini unutmaslik lozim. Kuchga mashqlarning ta'siri ostida mushak qismlari va og'irligining oshishi bo'g'imlar qaramlashishini va egiluvchanlikning qisman yo'qolishiga olib keladi. Shuning uchun kuch va egiluvchanlikning rivojlanishi optimal bo'lishi lozim, chunki bu mutanosiblikning buzilishi suzish texnikasining sifatida aks etishi muqarrar.

Yuqoridagi xatolarni takrorlamaslik va suzuvchilarning kuch qobiliyatlarini maqsadga muvofiq to'g'ri rivojlanish uchun ularning yoshga doir psixofiziologik asoslari haqidagi tiniq tasavvur va bilimga ega bo'lish kerak.

Kuchli qobiliyatlarni rivojlanishning tizimli asoslari progressiv morfologik va mexanik o'zgarishlar bilan nafaqat tayanch harakatli apparatda, balki ichki organlarda, markaziy va periferiy asab tizimida bog'langan. Bundan kelib chiqadiki, kuch qobiliyatining rivojlanish darajasi somatik va vegetativ funksiyalarning kelishuvchanligi bilan to'g'ri bog'langan.

Mushaklar kuchining morfologik asoslari bo'lib, mushak tolalaridagi qisqaruvchi oqsillarning tarkibi va mushak tolalarining qalinligi hisoblanadi.

Funksional shart-sharoitlar undan ko'ra turliroqdir: harakat neyronlaridan mushakka tushuvchi asab impulsining tezligi, po'stloq osti yadrosidan tonik ta'sir darajasi va retikulyar formatsiya, ishga jalb etuvchi asab-mushak birligi soni. Kuch sifatining maksimal namoyon bo'lishida hal qiluvchi ahamiyatni natijaga bo'lgan psixologik o'rnatma – iroda egallaydi.

Mushak kuchining paydo bo'lishi shuningdek, mushak tolalarining turiga – tezkor yoki sekinligiga bog'liq. Agar mushakda tezkor tolalar ko'p bo'lsa, inson tezkor kuchli harakatda maksimal kuchlanishni rivojlanishiga (50 m.ga suzish), portlovchi xarakterli ishlarni bajarishga (start, burilishni bajarayotgandagi turtki) qodir. Kam motorli birlikni bosib o'tish mushak kuchlanishini uzoq vaqt ushlab turish imkonini beradi.

Bunday odamlarda kuchli chidamlilik portlovchi turdag'i odamlardagiga qaraganda ko'proqdir (100 m. va undan ko'p).

Mushak kuchining bioximik asosi bo'lib, energetik almashinuvning samaradorligi va plastik funksiyasi, aktomiozin majmuasi qisqarishini mukammallashtirish, ATF resintezini tezlashtiruvchi fermentlar faolligi va garmonal reguliyatsiya hisoblanadi.

Shuningdek, doimiy mashqlar davomida maksimal mushak kuchi mushaklarning mutloq (anatomik) ko'ndalangining o'sishi, ishga chalg'ituvchi asab-mushak (motor) birligining fiziologik rezervlarining mobilizatsiyasi hisoblanadi. Retikulyar formatsiyaning faollashtiruvchi ta'sirini kuchaytirish natijasida miyaning shoh qismida motor birligining qisqartiruvchi funksiyasini ta'minlovchi motoneyronlarning qo'shimcha soni tormozlanishidan chiqadi. Ishga sarflangan motor birligining soni yosh sportchilarda 80-90%, shug'ullanmagan insonlarda 20-35%dan ko'p emas.

Biror usulda suzish davrida kuchlanishning kuchliligi o'zgarib turadi. Mushaklarning qisqarishida mushak kuchi xarakteristikasi ularning uzunligi o'zgarishsiz (statistik, izometrik tartib) va uzunligining o'zgarishi (dinamik, izotonik tartib) mos kelmaydi. Mushakda rivojlangan mushak kuchlanishi statik tartibda, mutloq kattalikda maksimal kuchga yaqin keladi. Dinamik kuchning o'zgarishiga bu shartlar to'g'ri kelmaydi. Lekin mushaklar maksimal tortilishida qisqara olsa, unda u rivojlantirayotgan kuchlanish maksimaldan kam bo'ladi. Bundan kelib chiqadiki, dinamik kuchlarning mutloq ahamiyati uni o'lchab olishga imkon beruvchi sharoitda maksimaldan ancha kam bo'ladi.

Asab-mushak birligini maksimal sonini ishchi holati bilan ta'minlanishi uchun atrofli tortishish zarur. Ular kuchning nisbatan kam energetik sarflanishlar orqali rivojlanishiga imkon beradi. Chegarasiz tortishishlardan foydalanish mushak kuchini orttirish uchun kam samarali, lekin ular mushak sonini oshirishda qulay imkoniyatlarni beradi.

Yosh sportchilarining irodasini maksimal kursatishni talab qiluvchi musobaqa holatlari kuchni maksimal rivojlanishish uchun samarali, lekin, uning tayyorgarligini qat'iy individual baholashda bundan foydalanish - o'ta o'tkir quroldir. Kam tortishish (maksimal og'irlikdan 100% kam), kuchni rivojlanishish uchun mos emas. Ular mushak kuchini rivojlanishining oshishiga imkon yaratadi, bu holatda yuqori qayta tiklanish samarasini minimaldir.

Qulay morfologik va funksional imkoniyatlar kuchni rivojlanishish uchun 9-10 yoshida yaratiladi. O'g'il bolalarda dinamik kuchli mashqlarga yuqori hissiyotning ikki davri kuzatiladi: 10-12 va 14-17 yosh. Qizlarda kuchli chidamlilik 11 yoshda 15-16 yoshli qizlarning ko'rsatkichlariga mos ko'rsatkichga yetadi. Maktab o'quvchilarida statistik kuchlanish tez charchashning rivojlanishida kuzatiladi.

Bolalarni kuchni maksimal talab qiluvchi kuchli mashqlarga erta jalb qilish oqlanmaydi.

Suzuvchining kuch qobiliyati turlari va kuchli tayyorgarlikning asosiy yo'naliishlari

Kuchli tayyorlanish – bu kuchli sifatlarning rivojlanishi: maksimal va tezlik kuchi, kuchli chidamlilik. Maksimal kuch ostida sportchi maksimal erkin mushak qisqarishini ko'rsata oladigan eng baland imkoniyatni tushunish lozim.

Tezlik kuchi – bu asab-mushak tizimining maksimal qisqa davrda kuchning yuqori ko'rsatkichlariga ega bo'lish uchun funksional potensialini mobilizatsiya qilish qobiliyatidir. Kuchli chidamlilik esa, - bu uzoq vaqtlar davomida yetarli baland kuch ko'rsatkichlarini ushlab turishdir.

Kuchli tayyorgarlik kuch sifatlarining maksimal ko'rsatkichlarini oshirishnigina emas, balki musobaqa faoliyati jarayonida qobiliyatlardan foydalanishni mukammallashtirishni ham ko'rib chiqadi, bu esa, kuch sifatlarining rivojlanishi bilan sport texnikasini va vegetativ tizimni mukammallashtirish orasidagi moslikni ta'minlaydi.

Malakali suzuvchilarini kuchli tayyorlash jarayoni samaradorligi ko'pincha mashg'ulot jarayonini texnik yoritishga bog'liq bo'ladi. Oxirgi 20-25 yil davomida suzuvchilarini kuchli tayyorlash amaliyotida an'anaviy tortishish va qarshilik (shtanga, gantellar, blokli o'rnatma, o'z tanasi og'irligini va hamkorini yengib o'tish va hk.) lardan foydalanishda turli maxsus trenajyorli o'rnatmalardan foydalanila boshlandi.

U yoki bu kuchli trenajyorlardan foydalanganda eng kamida quyidagi faktorlarning biridan foydalaniladi:

- kuchning u yoki bu turi rivojlanishiga bo'lgan asosiy metodik talablariga chidash imkon;
- kuchli tayyorlash jarayonini boshqarish va nazorat qilish samaradorligini oshirish;
- kuchli sifatlarining rivojlanishi va texnik ustalikka ega bo'lishda kuchlanganlik prinsiplaridan foydalanish imkon;

Eng omadli texnik va metodik yechim – bu uchala faktor bilan ham aloqador bo'lganidir. Aynan shunday trenajyorli o'rnatmalar va ulardan foydalanishga asoslangan mashg'ulot

mashqlari eng qisqa muddatlarda suzuvchilarni tayyorlashda dunyoning turli mamlakatlarida keng tarqaldi.

Yuqori malakali suzuvchilarning kuchli tayyorlanish jarayoniga turli yondashuvdan foydalanish samarasini taqqoslash juda qiyin. Turli tayyorlash usullarining samaradorligini taxririylar taqqoslash o'tkaziladigan tajribalar qiyosan kam va ular asosan izometrik, izotonik va izokinetik ishlarning samaradorligini taqqoslashga yondashgan. Ko'pgina tajribalar ortiqcha tor xarakterga ega va ularning natijalari to'g'ri yuqori malakali suzuvchilarni kuchli tayyorlash amaliyotida o'tkazilgan. Shuni qayd etish lozimki, kuchli tayyorlashning turli metodlari samaradorligini chop etishning ahamiyatli qismi trenajyorlarni va maxsus kuchli dastgohlarni ishlab chiqaradigan qiziqishlari bilan bog'liq reklama maqsadini ko'zlaydi.

Masalan, 70 – yillar uchun maxsus adabiyotlarda izokinetik trenajyorlarda mashq qilish samaradorligining shovshuvli tartibi ma'lumotlari keltirilgan. Ko'plab maqolalar borki, ularda tajribalarning natijalari berilgan, ya'ni 8 hafta davomida bir haftada uch marta (30 min. ichida 45 smdan 9 ta yondashuv) suzish dasturiga qo'shimcha shug'ullanish suzish tezligini bir maromda, kalta musobaqa masofasini 10% ga oshirib, turli testlar o'tkazilganda, kuch sifatining 50-60% o'sishiga ta'sir qilish. Yuqori malakali suzuvchilarni tayyorlash tajribasi maxsus izlanishlar natijalari shuni ko'rsatadi, bu natijalar, yumshoq qilib aytganda, oshirib yuborilgan.

Bunaqa siljishlar yomon tayyorlangan suzuvchilarda yuqori malakada emas, lekin, bunday kuchli tayyorlanish hech qanday kuchli sifatlarning o'shishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydigan yaxshi tayyorlangan yuqori sinf sportchilarinikidek emas.

Shu kabi holatga 80 – yillarda ham duch kelinadi, o'sha paytda «Nautilus» turidagi o'zgaruvchi tortishli mashqlarning izokinetik mashg'ulotlidan foydalilanigan kuchli tayyorlanish bilan qiyoslaganda afzalligi isbotlandi.

Bunda izokinetik mashg'ulotlarning afzalligi haqida gapirilmadi, yetishmovchiliklar ko'p marta kattalashtirilib ko'rsatildi. Va, aksincha, «Nautilus» turidagi trenajyorda ishlashdagi yetishmovchiliklar, (masalan, bu trenajyorlarda izotonik mashg'ulotlardagi kabi maksimal yuklama faqat yondashuvning oxirgi takrorlanishidan joy olgan, trenajyorlar juda katta va qimmat, bitta trenajyor juda ko'p chegaralangan mashqlar sonini bajarish imkonini beradi) ko'rsatilmagan, afzalligi esa juda oshirib yuborilgan. Bu ishning yana jiddiy kamchiligi, ular turli metodlarni bir biriga qarama-qarshi qo'yadi va turli metodlarning, tartiblarini, jihoz va trenajyorlarnig aqlii uyg'unligiga asoslangan kompleksli qo'llanishining bittasini - eng samaradorlisini tanlashni mo'ljallaydi.

Shuning uchun ko'pincha mutaxassislar orqali o'tkazilgan bir xil tajribalar natijalarining bir-biriga qarama-qarshiligi turli prinsipial xulosa va tavsiflarga duch kelishi hayratlanarli emas.

1968 – 1988 – yillar oraliq'idagi turli sport markazlarida shug'ullangan suzuvchilarning kuchli tayyorlanish dasturlarining tahlili shuni ko'rsatdiki, bugungi kunda eng samarali usul deb kursatiladigan tizim yo'q. Kuchli tayyorlash kontsepsiyasida sport suzishining rivojlanishidagi turli davrlarida doimiy zarur taxrirlar, kiritilgan yangi mukammallahgan trenajyor uskunalari qo'shilgan, ishning bir tartibi bekor qilinib, boshqasi tavsiya qilingan, yuklamalarni kuchli tayyorlashning yo'nalishlarini aniqlovchi turli komponentlari qiyoslari o'zgartirilgan, suvda va quruqlikda kuchli tayyorlashning hajmi, kuchli ishning munosabatlari o'zgargan. Natijada asoslangan metod va vositalardan voz kechilgan va reklama qilingan va reklama qilinganlari ishchonchli qabul qilingan.

Shunday qilib, 60-yillar izometrik mashqlar maksimal kuch va kuchli chidamlilikning maksimal o'sishiga ko'proq ahamiyatli ta'sir etuvchi vositalardan biri kabi reklama qilindi. Lekin izometrik mashg'ulotning o'sishi kutilgan natijani

bermadi. Statik mashqlarning katta samaradorligi maxsus izlanishlarda dinamik bilan qiyoslanganda ma'qullanmadı.

Bu shunga olib keldiki, statik mashqlar suzuvchining mashg'ulot vostilariga qanday kiritilgan bo'lsa, osonlik bilan chiqarib yuborildi. Bularning orasida shu tartibda bajarilgan mashqlar bir qator muhim ijobiy tomonlarga ega va malakali suzuvchilarni tayyorlashda ishlatalishi lozim. Bunday xususiyatlardan biri bo'lib, alohida mushak guruhlariga lokal ta'sir etish imkoniyati hisoblanadi va u ularning kuch sifatlarini tanlab oshirishga yordam beradi.

70 – yillar kuchli chidamlilikni rivojlantirishga yo'naltirilgan «Mertensa — Xyuttelya» turidagi prujinali trenajyor uskunalaridan foydalanib, egiluvchi aravachalar, blokli qurilmalar, rezinali espanderlar, «Ekzyer — Djeni» va boshqa izotonik va almashtiruvchi qarshilik sharoitida suzishda qo'l bilan eshish harakatini o'xshatuvchi moslamalarda tayyorlanish bilan shug'ullana boshlashdi.

Bu o'rta va uzun masofalar natijalarining oshishi va sprinterda ahamiyatli pasayishiga olib keldi va bu Rossiya va Germaniya sprinterlarini tayyorlashda aniq ko'rinish qoldi. Suzuvchilarni kuchli tayyorlash deyarli yil davomida ko'rsatilgan trenajyor uskunalarida o'tkazildi va ayniqsa, kuchli chidamlilikka katta e'tibor qaratildi. Aniq mashqlarda maksimal kuch imkoniyatining 45-60% ini tashkil etadigan yuklamali 1-2 minutli mashqlarni bajarishni ko'zda tutuvchi darslarning nihoyatda kuchlangan dasturlari mashhur bo'ldi.

Darsda ko'pincha 20 dan 40 gacha yondashuv rejalashtirildi. Shu tarzda P.Shnayder, U.Geveniger, A.Shrause, B.Krauze, U.Rixter, Y.Voyte, S.Lodziyevski, L.Kachyushite, M.Yurchenya, R.Julpa, A.Krilov va boshqalar shug'ullandilar. K.Ender, U.Tauber, P.Tyummer, R.Shtrobax, M.Koshevoy, S.Koplyakova, A.Sidorenko va boshqalarning mashg'ulot darslarida 3-5 va xatto 8-10 minutgacha davomiy takrorlanishlar ko'proq bo'ldilar. Bunda kuchning boshqa turlariga ko'p diqqat qaratilmadi, shtanga bilan mashq qilish

esa, ko'pgina suzuvchilarning tayyorlash arsenalidan amaliy chiqarib yuborildi. Xuddi shu paytda AQShda izokinetik tartibda mashg 'ulot o'tkazish keng tarqaldi. Izokinetik trenajyorlarning Mini-Djim turidan o'zining mashg'ulotlarida Indian universitetining suzuvchilari ham foydalanishdi, ularning ishlarini D. Kaunsilmen uzoq yillar boshqardi.

Izokinetik trenajyorlarning afzalligini ko'rsatayotib, amerikalik murabbiylar eng avvalo, harakatning xohlagan fazasida ularga maksimal va yaqin kuchni namoyon qilish imkonini belgilashadi, bu turli masofalarda ixtisoslashgan suzuvchilarning maxsus chidamliligin rivojlantirish imkonini berdi. Aynan shu davrda AQShda izokinetik mashqlardan foydalanib, yuqori shiddatli tezkor mashg'ulot keng tarqaldi, unda amerikalik sprinterlar xalqaro maydonda ahamiyatli darajada yutuqlarga erishdi.

Kuchli tayyorgarlikning aynan shu uslubi bilan A. Gaynes, D. Bottoma, R. Keyri, S. Lundkvist, R. Limi, G. Larsson, D. Montgomyeri, G. Yagenburg, D. Makkeg, Sh. Baba-shoff, Dj. Xenken, B. Fyernissa va boshqalarning yutuqlari bog'langan. Ko'pgina amerikalik mutaxassislar faqatgina yuqori tezlikdagi kuchli mashg'ulot izokinetik mashqlar bilan o'tkazilganda, kuchning ahamiyatli o'sishiga mushak og'irligini o'stirmasdan ta'sir qiladi. Agar mushaklarni quruqlikda sekin xarakyerli harakatlar bilan kuchli mashqlarda shug'ullanilsa, unda ular o'sgan kuchini faqatgina sekin tezlik bilan suzishda ko'rsata oladi. Ko'pgina amerikalik mutaxassislarining fikriga ko'ra, izokinetik trenajyorlarda optimal tezlik 180 grads-1 dir.

"Nautilus", "Universal" turdag'i mukammalroq trenajyorlarning paydo bo'lishi bilan, AQSh murabbiylari firmalarning reklama dasturlariga asoslanib, bu trenajyorlardan suzuvchilarning kuchli tayyorlanish jarayonida keng foydalana boshladilar. Hozirgi kunda ham, AQSh murabbiylari va suzish mutaxassislarining orasida shunday yondashishlar amalda bor. Ma'lumki, oxirgi yillarda «Biokinetik» turidagi trenajyor mashhur bo'ldi.

U izokinetik xarakterli mashqlarni bajarish jarayonida ishning quvvati va hajmini samarali nazorat qilish imkonini beradi. (2-rasm). Biroq, bu trenajyorlarni va ularning uslubini qizg'in reklama qilish va ulardan foydalanish bir qancha suzuvchilarini kuchli tayyorlashning turli zararli oqibatlariga olib keladi.




2 – rasm
“Biokinetik”trenajyori

60- yillar oxiri va 70-yillar boshlarida kuchliroq sovet suzuvchilarini tayyorlashda og 'ir atletikadan olingen, asoslangan hajmda kuchli tayyorlash uslubi qo'llandi. uning salbiy natijalari uzoq vaqtgacha murabbiy va sportchilarning chegarali va atroficha tortishishlarga bo'lgan ishtiyoqini so'ndiradi.

Bu shunga olib keladiki, atletik gimnastkadagi mashg'ulotlar uchun xarakterli bo'lgan katta tortishuvlar bilan o'tadigan kuch ishlarining hajmi sprinter suzish natijalarining qudratli faktori bo'lib qolganini ko'zdan qochirishdi. Bu AQSH, Kanada va GFR suzuvchilarining mashg'ulotlarida ayniqsa yorqin namoyon bo'ldi.

Mushaklar kuchini reja asosida oshirish uchun katta imkoniyatlar davri hisoblanadi. Shuningdek, bu davr sportcha tayyorgarlik usullari va vositalarini bir qadar cheklovchi xususiyatlarga ham egadir.

Yoshga xos xususiyatlardan biri - to'qimalarda oqsillarning jadal sintezi bo'lib, u ko'p miqdorda quvvat sarflanishi bilan kechadi. Hatto tinch holatda ham oksidlanish jarayonlari o'smirlarda kattalardagiga qaraganda keskin ro'y beradi. Jismoniy yuklamalar o'sayotgan organizmda oqsil sintezini rag'batlantiradi. Lekin organizm yuklamalardan so'ng o'z vaqtida kuchini qayta tiklamagan bo'lsa, mashq qilish mumkin emas. Haddan ziyod quvvat sarfi, oqsilli tuzilmalarning izdan chiqishiga olib kelishi mumkin. Bu jarayon organizmni suyuqlanishi va o'sishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bolalar va o'smirlarni to'g'ri rivojlanishi uchun yuklamalar to'qimalar sintezini rag'batlantirish va organizmning quvvat zaxirasini oshirib kelgan.

O'smir sportchilar organizmi pubertat oldi davrida va pubertat davri yaqqol namoyon bo'lgan vaqtida gipoksiyaga, "so'nggi nafas" gacha tezkor mashqlarga kam chidamli bo'ladi. Bunday yuklamalarni qo'llash kuchli toliqishga olib kelishi mumkin. Bu yoshdagi sportchilar o'ta ta'sirchan va hayajonga beriluvchan bo'lib, yuksak natijalarga erishish istagi ularda kuchli namoyon bo'ladi. Natijada ular o'z kuchlariga haddan ziyyod ishonishadi.

Indeksiya ham mashg'ulotlarda jismoniy zo'riqishni olib kelishi niumkin. Ko'p hollarda bunday vaziyatlar surunkali tonzillit yoki burun-xalqum kasalliklariga chalingan o'smir suzuvchilarda kuzatiladi. Davolanishdan so'ng va infeksiya o'chog'i bartaraf etilgach, ishchanlik qobiliyati quvvat tiklanadi.

Murabbiy tomonidan o'smir suzuvchi imkoniyatlarini notog'ri baholash ham jismoniy zo'riqishga sabab bo'lishi mumkin, ma'lumki, pubertat yoshdagi suzuvchilarda sport natijalarining o'sishi birdan ro'y beradi va nafaqat bundan avvalgi sportga tayyorgarlik. Balki biologik jarayonlar jadal kechishining natijasi hisoblanadi.

Biroq ayrim murabbiylar natijalarning bunday o'sishini o'zları qo'llayotgan mashq qilish uslubiyotining samaradorligi bilan bog'laydilar va kelgusida jismoniy yuklamalarni sezilarli oshirishga harakat qiladilar. Bunday xatoga ko'p hollarda erta rivojlanish xususiyatiga ega bo'lgan. Suzuvchilarga nisbatan ham yo'l qo'yiladi. Shu tariqa tayyorgarlikni jadallashtirish, tezlashtirish sportchining umumiy rivojlanishiga salbiy ta'sir etadi va kelgusi yillarda natijalar turg'unligiga olib keladi.

Yakka namoyon bo'lgan erta yoki kech rivojlanish toifasiga xos bolalar bilan ishslash suvda va quruqlikdagi rurli nazorat mashqlarida ko'rsatkichlarning o'zgarishini; bu natijalarning biologik yetuklik darajariga muvofiqligini diqqat bilan tahlil etishni talab qiladi. Salomatlikni mustahkamlash, mashq qilish

Mashg'ulotidagi ta'lim va dam olish gigiyenik sharoitlariga rioya etish haqida g'amxo'rlik qilish pubertat yoshdagи suzuvchilarning bo'lajak sport yutuqlari uchun muhim

ahamiyatga ega.

O'smir organizmining shakllanishi to'liq yakunlanib funksiyalarning yuqori ishonchlilik davri yuzaga kelganda va har tomonlama asosiy tayyorgarlikning mustahkam poydevoriga asos solinganda sportchilar uchun mashq qilish yuklamalari hajmi va jadalligini sezilarli oshirish o'rinli boladi.

O'smir suzuvchilarning tezkorlik sifatlari va qobiliyatlarini rivojlantirish hamda ularning maxsus kuch tayyorgarlik darajasini oshirish

Suzuvchining tezkorlik qobiliyatları qisqa masofa qismini mutlaq katta tezlikda suzib o'ta olish bilan ta'riflandi. Katta yoshli malakali suzuvchi bunday tezlikni masofaning 75 metr qismida, o'smir suzuvchi esa 50 metr masofada namoyon qila oladi.

Tezkorlik qobiliyatları suzuvchining texnik mahorati bilan uzviy bog'liqdir. Oqilonha suzish texnikasisiz, start va burilishlarni ratsional bajarmasdan kirib, yuqori tezlikka erishib bo'lmaydi. Suzish texnikasining jadal vartantini mukammallik harakati maksimal kuch safarbarligi bilan ortiqcha mushak zo'riqishsiz, aniqlik va muvofiq maromni saqlagani holda bajara olish tezkorlik qobiliyatlarning yuqori darajasiga erishish uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlardir.

Suzuvchi harakatinining maksimal tezligi, shuningdek, maxsus kuch tayyorgarligi, anaerob-alaktat quvvati manbalari quvvati mushak hujayralaridagi ATF kreatinfosfat mioglobin zaxiralari biokimyoiy anaerob jarayonlarning kechish tezligiga ham bog'liqdir.

Tezkorlik qobiliyatlarining fiziologik asosi markaziy asab tizimini qo'zg'aluvchanligi va faoliyat ko'rsatishining muvofiq darjasasi; harakat apparatining koordinatsion mexanizmlari mukammalligi; asab jarayonlarining faolligi; mushaklarni tez qisqarish va qo'zg'alishdan bo'shashish holatiga tez o'tishidan iborat.

Tezkorlik qobiliyati, odatda, epchillik va harakatni uyg'unlashtirilgan hamda boshqarish bilan birqalikda rivojlantiriladi.

O'smir suzuvchilar tezkorlik qobiliyatlarini rivojlantishga, eng avvalo, asosiy tayyorgarlik bosqichida quruqlikda bajariladigan mashqlarda tezlikni namoyon etishning oddiy shakllari; harakat reaksiyasi tezligi maksimal harakat sur'atini rivojlantirish; bir martali "Portlovchi" harakatlarni katta tezlikda bajarish qobiliyatini (masalan, yuqoriga sakrash, to'ldirma to'p irg'itirsh, yotgan holda yerdan qo'llar va oyoqlar itarilish) ni takomillashtirishga yordam beradi.

O'smir suzuvchilar quriqlikda har tomonlama jismonan tayyorlanishi yetuk yoshlarda tezkorlilik qobiliyatlarda rivojlantirishlari uchun imtiyoz yaratadi.

Tezkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish uchun suzuvchidan musobaqa sharoitida qisqa masofani yoki uning qismlarini maksimal tezlikda suzib o'tish uchun, muvofiq tayyorgarilik holatiga erishishi; e'tiborli bo'lishi kabi irodaviy xislatlar talab etiladi. Suzuchi, shuningdek startda, masofa o'rtasida (ko'-pincha, burilishdan avval va undan so'ng), manada suzuvchilar tezlanishlarini bajarishga ruhan va texnik jihatdan tayyor bo'lishi kerak.

Tezkor qobiliyatları shakllantirishga muvofiq sport texnikasi o'zlashtirish jarayonida boshlanadi. Eng avvalo, o'rta va qisqa masofalar qismlarida turli maromda suzishda harakatlar aniqligi va erkiniligiga erishishi kerak. Suzish texnikasi qancha mukammal bo'lsa qisqa masofalarda sprinter suzish bilan bo'g'liq estafeta va o'yinlar o'quv mashq qilishi guruhlarga shuncha maromli texnika turlarini shakllantirish; strat va burilishdan 10-15 metrli masofa qismlari suzib o'tish texnikasini o'zlashtirishga e'tibor beriladi.

Texnika asoslari puxta o'zlashtirilgach (o'quv-mashq qilish guruhida tayyorlanishning 3-4 yili) aniqlik va yengillikni saqlagan holda, egiluvchan harakatlar kuchini asta-sekin oshirib borishi vazifasi qo'yiladi.

Bu va anaerob alaktat unumdorlilik darajasini sezilarli oshirish vazifasi sportcha takomillashuv va oliy sport mahorali guruhlarda o'z yechimini topadi. Mazkur guruhlarda tezkor qobiliyalarini shakllantiruvchi mashqlar maxsus kuch tayyorgarligi va suzuvchini maxsus chidamkorligini oshiruvchi mashqlar bilan uyg'unlashtirib ketadi.

Tezkor qobiliyatlarni rivojlantirish uchun V zonasini yuklamalari, yangi qisqa masofaga (15-25m) kuchi maksimal jalg qilib, suzish qo'llaniladi. Bunday yuklamalar usuli o'quv-mashq qilish guruhida 2-3%. sport takomillashuvi guruhga 45% (umumiy suzish hajmidan) tashkil etadi.

Berilgan yuktamalarni qo'llashda quyidagi uslubiy qoidalarga rioya qilinadi.

1. Sprinter mashqlari suzish, startlar; burilishlar texnikasiga urg'u bergen holda bajariladi.

Nazorat qilinuvchi suzish tezliklari qo'llaniladi.

Ularda sportchi harakatlar aniqligi va erkinligini saqlab qolishga qadar bo'ladi.

2. Katta tezlikda suzish davomiyligi bir o'rinda 15-20 soniyadan oshmaydi.

3. Sprinterlik ishini alohida qismlar orasida qayta tiklanishi uchun qulay dam olish tayyorgarligi rejalashtiriladi. Toliqish belgilari pavdo bo'lganda, tezkor mashqtar to'xtatiladi yoki ularni bajarishni ancha yengil tartibida o'tiladi.

4. Sprinterlik mashqlari mashg'ulotning asosiy qismiga rejalashtiriladi; bir- ikki sprinterik bo'lagini mashg'ulotning yakuniy qismida suzib o'tish mumkin (agar toliqish yuzaga kelmagan bo'lsa).

5. Sprinter mashqlari turli sharoitlarda va shakllarda bajariladi.

6. Suzuchilarни tayyorlashda nazorat masofa bo'laklarida mutloq suzish tezligini asta-sekin, yildan yilga oshirib borishga erishiladi.

Tezkorlik qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishning asosiy shakllari asosiy usullari takroriy usul

nazorat bellashuv, o'zgartuvchan-masofaviy usullar.

Tezkor qobiliyatlarni rivojlantirishda quyidagi usullarni qo'llash tavsiya etiladi, suzish havzasida ko'ndalangiga suzib o'tish (m 12-15 ko 'rinishida); estafetalar speringda suzish, gandikap usullarda suzish, peshqadamlik bilan turlicha nafas variantlari bilan suzish (ikki, uch yoki to'rtli harakat siklidan so'ng nafas olish) 10-15 metr masofa bo'laklarda vaqtini o'lhash bilan suzishni qo'llash yordamida start va burilishlarni bajarish; tezlanish bilan suzish; asta - sekin harakat kuchini so'ndirib borish bilan yuqori tezlikda suzish (suzuvchi qisqa masofa bo'lagida yuqori tezlikka erishib, uni saqlab qolishga urinadi va harakatda "bo'shashgan" holda davom ettiradi); "kontrast bo'yicha suzish (masalan, 15 metrli masofa bo'laklaridagi galma-gal quyidagilar bajariladi. Qo'shimcha qarshilik bilan va qarshiliksiz bor kuch bilan suzish; o'rtacha amplitudadagi eshuvchi harakatlar bilan maksimal maromida suzish va karta amplitudali eshuvchi harakatlar bilan optimal maromda suzish); bir uchi suzuvchi kamariga biriktirilgan cho'zilgan rezina amartizator yordamida suzish.

Katta tezlik bilan suzganda ayrim hollarda harakatlar rangligi kuzatiladi. Bunga quyidagilar sabab bo'lishi mumkin:

1. Emotsional hayajon holati. Xususan, masofali bor kuchi bilan suzib o'tish istagi.

2. Suzish texnikasini yetaricha o'zlashtirmaslik natijasiga yuzaga keluvchi vazifani koordinatsion murakkabligi.

Sust kuch tayyorgarligi buning natijasida o'quvchi vazifani bajarishi uchun hatto harakatlarda ham zo'riqtiradi. Har tomonlama texnik va jismoniy tayyorgarligi asosida harakatlar erkinligi doimo nazorat qilingan holdagina tezkorlik qobiliyatidagi muvaffaqiyatli takomillashtirish mumkin. O'quv-chilarda mashqlarni bo'shashtirish muhimligi haqida muntazam eslatib turish kerak: "tez, lekin yengil va erkin suz", "gavda mushaklarini bo'shashtir".

Tezkorlik qobiliyatlarini baholash uchun nazorat mashqlari, 25.60 metr masofa bo'laklarida harakatlanishi to'liq

koordinatsiyasi bilan suzib va elementlar bo'yicha startlar. Portlovchi kuchni takomillashuv guruhidagi suzuvchilar uchun esa yuqoridagi harakatlarni 75 metrda start va burilishlar vaqtini o'lhash bajari- ladi.

Sportchi takomillashuv guruhidagi o'smir suzuvchilar bilan maxsus kuch tayyorgarlik darajasini oshirish, nafaqat, quruqlikda, shuningdek, suvda ham bajariladigan mashqlar yordamida amalga oshiriladi. Bu maqsadda bir qo'l va oyoq harakatlari yordamida suzish: to'liq koordinatsiya va suvni qo'shimcha qarshiligi yoki og'irlikni yengish bilan (suzish jadalligi sub-maksimal va maksimal) qo'llaniladi. Suzuvchi yengib o'tadigan qo'shimcha qarshilik kattaligi bellashuv kattaligini 30-40% dan oshmasligi kerak. Aks holda, ratsional suzish texnikasi izdan chiqadi, mashqlar samaradorligi pasayadi. Yuqori razryadli suzuvchilarni mashq qildirishda bunday mashqlar maxsus kuchli yo'nalishdagi boshqa mashqlardan ustunlik qiladi.

Quruqlikda tezkorlikni rivojlantirish uchun qanday mashqlar mavjud?

2-3 ta'lif yilidagi o'quv-mashq qilish guruhlariда o'smir suzuvchilarni mashq qildirish.

Sportcha suzishni mashqulotlari yaxlit maqsadga yo'naltirilgan pedagogik jarayon bo'lib, ko'p yillar davom etadi va yuksak natjalarga erishish uchun xizmat qiladi. Uni faqat o'smir suzuvchi jismoniy rivojlanishishi nazorat tutadi, shuningdek, uni texnikasi va taktikasini takomillashtirish hamda ma'naviy-irodaviy xislatlarni tarbiyalashga yoradam beradi. O'quv-mashq qilishi nazariy tayyorgarlik, umumiyligi va maxsus jismoniy tayyorgarlik, suzish va ma'naviy-irodaviy tayvorgarliklardan iborat.

Suv havzasi shug'ullanishning dastlabki yillarda bola organizimi hali to'liq shakillanmagan vaqtida asosiy vazifa - sportcha suzish uslublari texnikasini o'rganish umumiyligi va

maxsus jismoniy tayyorgarlik umumiyl suzish tayyorgarligi vositalari yordamida jismonan chiniqqanlik holatini asta - sekin oshirish hisoblanadi.

Bu davrda tanlangan masofaga suzishni muayyan usuli bo'yicha hali mashg'ulotlar o'tkazilmadi, balki kelgusidagi shunday ixtisoslik uchun poydevor yaratiladi. O'smir suzuvchilar gimnastika, chang'ida uchish, yengil atletika, turli sport oyinlari bilan shug'ullanardilar, shuningdek, suvdagi tayyorlov mashqlarini o'rganadilar.

Barcha sportchilar suzish usullari, start, burilishlar texnikasini o'zlashtirib, rakomillashtiradilar; suvda olib boriladigan o'yinlar, o'quv sakrashlari, sho'ng'ish, suv polosi o'yini elementlari, sinxron suzish bilan tanishadilar. Murabbiy umumiyl suzish tayyorgarligining barcha turli xil vositalarini qo'llab, o'quvchilarini ikki yoki uch xil suzish usullarida bir necha masofalarga suzib, birinchi razryad natijalarini qo'lg'a kiritishga tobora yaqinlashtiradi.

O'smir suzuvchilarni tayyorlashning asosiy xususiyatlardan biri - mashq qilish jarayonini ko'p yillik rejalshtirish hisoblanadi. Istiqbolli reja suzuvchilarning jismoniy va funksional imkoniyatlari darajasini bir sport mavsumidan ikkinchisiga qadar asta-sekin oshirib borishni nazarda tutadi. Bunday rejali mashq qilish jarayoni natijasida har tomonlama jismoniy tayyorgarlik, suzish texnikasini o'zlashtirish va yuqori sport natijalariga erishish uchun jarayon yaratiladi.

O'smir suzuvchini tayyorlashni tezlashtirish mumkin emas, chunki aks holda, sportchi takomillashuv to'xtaydi va shug'ullanuvchining salomatligi yomonlashadi. Chunki, ayniqsa, dastlabki mashg'ulot yillarida bola organizmi hali to'liq shakllanmagan bo'ladi.

Ikkinci ta'lim yili. Sentabr va oktabr oylari davomida bolalar suv havzasiga haftada uch marta qatnashadilar va birinchi o'quv yili oxiridagi mashq qilish dasturini takrorlaydilar.

Keyingi uch oy - oktabr, dekabr, yanvarda suv havzasidagi har turli mashg'ulot hajmi asta-sekin oshirib boriladi. Har bir mashg'ulot vakunida nafasni to'xtalish bilan suzish mashqlardan oldin to'liq koordinatsiyasida 200 metrga suzish mashqlari qo'yiladi. Birinchi mashg'ulot kunida ko'krakda krol usulida 200 metr, ikkinchi kuni - chalqancha yotgan holda krol usulida 200 metr va uchinchi kuni - brass usulida 200 metr suzish mashqi bajariladi. Suzish jadalligi taxtachali oyoqlar yordamida oshiriladi; oxirgi 200 metrli masofada har 100 metrda 25 metr masofa qismlarini davomida oshiriladi,

Nafas olishni to'xtatish bilan suzib o'tishda ko'krakda krol suzish uslubi delfin va brass usullarida qo'llar yordamida tezlanish bilan suzish mashqlari qo'shiladi. Orqaga qaytishda shug'ullanuvchilar chalqancha yotgan holda qo'llar yordamida suzishlari mumkin.

Fevral, mart, aprel - mashg'ulotlar hajmi ortib boradi va 2000 metrga yetadi.

Bu vaqtdagi mashg'ulotlar birinchi o'quv yilining uch kunlik sxemasi bo'yicha tashkil etiladi:

- mashg'ulot kuni ko'krakda va chalqancha krol yotgan holda.

Qo'shish kerak: ko'krakda krol usulida 4x100 metrga suzish mashqiaridan so 'ng darhol 100 metrli to'liq koordinatsiyada ko'krakda krol usulida suzib o'tish; chalqancha krol yotgan holda usulida 400x)00 metrga suzish mashqdan so'ng, chalqancha krol yotgan holda 100 metrli suzib o'tish.

- mashg'ulot kuni - delfin.

Qo'shish

1. To'liq koordinatsiyada suzib o'tish - ko'krakda krol usulida 4x100 metrga suzish mashqi uchun 100 metr masofani ko'krakda krol usulida suzish.

2-delfin usulida yaxlit ikki zarbli koordinatsiyada qo'llar oldinda holatda tanaffus bitan 200 metr suzib o'tish. Suzishdan to'xtaganda nafas olish.

3. Delfin usulida yaxlit ikki zarbli koordinatsiyada qo'llar sonlar yonida joylashgan holda tanaffus bilan 300 metrni suzib o'tish. To 'xtaganda - nafas olish.

Mashg'ulot kuni - brass.

Q'shish kerak:

1. Chalqancha yotgan holda krol usulida 4×100 metr suzish mashqidan so'ng chalqancha krol usulida yotgan holda 100 metrli to'liq koordinatsiyada suzib o'tish.

2. Suzish texnikasini rivojlantirish uchun 200 metrli brass usulida suzib o'tishni oyoqlar vordamida 2×50 metrli suzib o'tish yoki 2×50 metrli to'liq koordinatsiyada tezlanish bilan galma-gal bajarish.

Masofani boshlanish qismida 10-12 metrda yoki oxirida 50 metrda tezlik oshiriladi.

Shu 3 oy davomida nafasni to'xtatib va tezlanishlar bilan qisqa masofalarga suzish mashqlari har bir mashg'ulotda ikki marta bajariladi:

1- marta to'liq koordinatsiyada 4×100 va 100 metrga suzish mashqlaridan so'ndarhol bajariladi;

2-marta – mashg'ulot yakunida, suzish texnikasini rivojlantiruvchi to'liq koordinatsiyada 200 metr suzib o'tishdan so'ng.

Qishki oylarda suv havzadagi mashg'ulotlari chang'i uchish mashg'ulotlari (yakshanba kunida) qo'shiladi.

Ikkinci o'quv yili yakunida - may oyida 1-2 hafta davomida tezlikni rivojlantiruvchi suzish mashg'ulotlari o'tkaziladi. Har bir dars bir marta 25 metrni birorta usulda suzib o'tish ko'rinishida o'tkaziladi. Keying haftada 1-shug'ullanuvchilar brass usulida 50 metrni suzib o'tishadi - har bir darsni bir usulda.

Darsning birinchi yarimidagi qisqa badan qizdirishdan so'ng bu masofani bo'laklarining suzib o'tish yillik natijaviy sinov ishiga tayyorlanishga imkon beradi.

Shug'ullanuvchilar ikkinchi yilda shug'ullanuvchilarga 200 metrdan ortiq masofaga to'liq koordinatsiyaga ko'krakda va

chalqancha kroll usulida yotgan holda suzishga ruxsat berish kerak emas.

Katta masofalarni suzib o'tishda suzish texnikasi buziladi, xatolar yuzaga keladi. Shuning uchun, to'liq koordinatsiyada suzib o'tiladigan masofalarni ular suzish texnikasida xatosiz bajariladiganini ko'paytirish kerak. Shu bois, 2-o 'quv yilida delfin usulida to'liq koordinatsiyada 50 metrdan ortiq masofani suzib o'tish tavsiya etilmaydi.

Mashgu'ulotdagi yuklama zaruratga qarab o'zgartiriladi. Masalan, 200 metrga to'liq koordinatsiyada 2 ta bir xilda kuchli sportchilar ketma-ket suzishlari mumkin. Bunday kuch taqsimoti bellashuvni keskinlashtiradi va yuklamani oshiradi. Agar murabbiy guruhga bellashuvsiz erkin suzishni tavsiya qiladigan bo'lsa, u holda distansiyaga sust suzuvchini kuchli suzuvchi bilan barcha qo'yish kerak.

Yil yakunida natija sinov ishi o'tkaziladi; har bir mashg'ulotda shug'ullanuvchilar bilan birga masofani barcha usullarda suzib o'tishadi. Dasturga usullardan birida 3×50 metr va 100 metr suzish mashqlari kiritiladi. 100 metrga qaysi usulda start olishni murabbiy hal qiladi (odatda, shug'ullanuvchi suzish texnikasini yaxshi o'zlashtirgan usul tanlanadi).

Shug'ullanishining ikkinchi yili davorasida shifokorlar va fiziologlarning kuzatishlari 9-11 yoshli bolalar ularga taklif etilayotgan mashq qilish yuklamalariga bermalol bardosh bera olishlarini ko'rsatadi. 90 daqiqa davomida 2000 metrgacha masofani alohida vazifalar orasida suzish bilan yengil suzib o'tish o'smir suzuvchilarni yurak-qon tomir va nafas olish tizimlarida ijobiy o'zgarishlarni yuzaga keltirdi. Shu bilan birga, suv havzasi muntazam qatnamagan ayrim bollalar guruhida darsda 200 metrni suzib o'tar, markaziy asab tizimi holati va vegetativ funksiyalarda me'yordan chetga siljishlar kuzatildi.

Shu tariqa, bir mashg'ulotda 2000 metrgacha masofani suzib o'tish muntazam shug'ullangan 9-11 yoshli suzuvchilargagina keltiradi. Aks holda, mashg'ulot hajmini 1500 metrgacha kamaytirish va mashg'ulotlarga muntazam qatnash

natijasida asta - sekin 2000 metrga yetkazish kerak.

Hafta davomida 90 daqtqadan uch marta o'tkaziladigan mashg'ulotlar o'smir suzuvchilar organizmini funksional holatiga ijobly ta'sir ko'rsatdi. Biroq hafta oxiriga kelib, umumita'llim maktabi va suv havzasidagi mashg'ulotlar natijasida, xatto mashg'ulot boshlanishidan oldin ham bir qadar toliqish kuzatilgan. Bunday toliqlishda boshqa kunlarda odadagi hisoblangan yuklama ko'p hollarda manfly o'zgarishlarni keltirib chiqardi. Shuning uchun, haftaning oxirgi mashg'ulot kuniga boshqa kunlardagidan ko'ra kamroq yuklamani berishi kerak.

BO'SM bolalar sport maktabida ikkinchi ta'llim yillarda suv havzasi har kuni mashg'ulotlar o'tkazishni joriy qilishga urinib turildi. Mart oyidagi ta'il vaqtida o'smir suzuvchilar o'n kun davomida har kuni suv havzasida shug'ullanishadi.

Odatdag'i mashq qilish kunlarida uch kunlik tayyorgarlik sxemasi bo'yicha rejalashtirilgan yuklama bajarildi. Qo'shimcha uch kun davomida shug'ullanuvchilar barcha usullarda 800 metrgacha bo'lgan masofani suzib o'tishadi. Qolgan vaqtida esa (dara ham mashq qilish kunlari kabi suvda 90 daqiqa davom etadilar). Suv o'ynlari, suvgaga sakrash, suv polosi elementlari bajariladi. Ya'ni bu kunlardagi mashg'ulot hajmi asosly mashg'ulot kunlaridan farqli ravishda ancha kamaytiriladi.

Fiziologlar kuzatishlari shuni ko'rsatdiki, 12-14 yoshli bolalar uchun mashg'ulotlarni har kuni o'tkazish salbiy natijalarga olib keldi. Suv havzasida 10 kun davomidagi mashg'ulotlar natijasida bolalar organizmini funksional holatida keskin salbiy o'zgarishlar yuz berdi. Ta'tildan so'ng diqqatni jamlash, asab jarayonlarining faolligi yomonlashadi, harakat apparatining qo'zg'aluvchanligi va tezligi pasaydi, puls tezlashdi, yurak faoliyatini arteriyasi, qon bosimini ko'tarilishi kuzatildi.

Shug'ullanuvchilar organizmidagi salbiy o'zgarishlar shu qadar sezilarli ediki, funksional holatni me'yor darajasigacha to'la qayta tiklanishi uch hafta davom etadi.

Shu tariqa olingan mashg'ulotlar ko'rsatishicha, bolalar organizml xususlyatlardan birl - funksional holatni tezda o'zgarishi hisoblanadi. Suv havzasida har kuni shug'ullanish markazly asab tilzimini zo'rliqlishini yuzaga keltiradi. Bu esa optimal holatni pessimal holatga tez o'tishga olib keldi. Bu shundan dalolat beradild, o'smirlar uchun yudamalar belgilashda nihoyatda ehtiyojkor bo'lishi kerak.

Yuqorida to'ldirilgan ma'lumotlar asosida ikkinchi o'quv yillarda bolalar haftada uch marta shug'ullanishlari kerak degan xulosaga kelish kerak emas. Obyektiv tadqlqot usullari yordamida topshirilgan mashq qilish yuklamasi tadqlqot guruhidagi shug'ullanuvchilar uchun imkonsiz bo'lgan yuklama taqqoslashi mumkin.

Mazkur tayyorlanganlik holatidagi bolalar uchun og'irlik qiladi. Har bir murabbly o'z o'quvchilari uchun rejalashtirilgan yuklamani tadqlqot guruhidagi shug 'ullanuvchilar uchun imkonsiz bo'lgan yuklama taqqoslashi mumkin. Ta'llim vaqtida suv havzasidagi har kunlik mashg'ulotlar ko'plab bolalar suzish sport maktablarida o'tkaziladi.

Mazkur tayyorgarlik holatidagi bolalar uchun suv havzasi har kungi mashg'ulotlarni o'lkarishda har bir mashg'ulot davomlylligi va umumiy ish hajmini kamaytirishi kerak.

Natijavly sinov ishlarida 25 metr, 50 metrli masofa qismlarini bor kuch bilan bir marotaba suzib o'tish va ikkinchi o'quv yillarda qisqa badan qizdirishidan so'ng 100 metrli masofani suzib o'tish shug'ullanuvchilar organizmida salbiy o'zgarishlarni keltirib chiqarmaydi.

Shug'ullanishni uchinchi ta'llim yili sentabr va oktabrda mashg'ulotlar haftada 4 marta o'tkaziladi: 3 marta suv havzasasi va 1 marta (yakshanba kuni) o'rmonda, park yoki oyingohda.

Bu mashg'ulotlar kuz oxirida iqlim sovushi tufayli to'xtatiladi. Suv havzasi o'smir suzuvchilar ikkinchi ta'llim yil sxemasi bo'yicha mashqlar qilishi davom etiladi.

Mashq qilish mashg'ulotlarining mundarijasи o'tgan yilning mart oyigacha bo'lgan dars dasturiga to'g'ri keladi.

Keyingi uch oy - noyabr, dekabr, yanvar - davomida ko'krakda va chalqancha krol usulida yotgan holda suzish texnikasini o'zlashtirish hamda delfin usulida suzishni yanada mukammal va yuqori saviyali texnikasini o'rganish davom ettiriladi.

Buning uchun shug 'ullanuvchilar ko'krakda va chalqancha krol usulida suzish va delfin usuli uchun yangi mashqlarni o'rganib, so'ng ularni har bir mashg'ulotda qayta-qayta bajarishadi. Novabr oyidan boshlab suv havzasidagi o'rta mashg'ulotga to'rtinchisi - "tezlik kuni" qo'shiladi.

Birinchi mashg'ulot kuni ko'krakda va chalqancha krol yotgan holda.

1. Oyoqlar yordamida ko'krakda va chalqancha krol usulida yotgan holda suzish 5×100 metr. Qolgan turlicha holatlarda (birinchi ta'limgan yiliga qaralsin).

2. Delfin usulida oyoqlarni harakatlantirish va bir qo'l bilan krol usulida eshuvchi harakatlar ikkinchi qo'l-son yonida joylashgan yordamida ikki zARBli delfin koordinatsiyasida suzish. Nafas olish qo'l bilan eshuvchi harakat vaqtida songa jipslashgan qo'i tomoniga bajariladi - 100 metr.

Delfin usulida oyoqlarni harakatlantirish va bir qo'l bilan krol usulida eshuvchi harakatlar yordamida (ikkinchi qo'l oldinga cho'zilgan) ikki zARBli delfin koordinatsiyasida suzish. Eshuvchi harakatni bajarayotgan qo'l tomoniga qarab nafas olish. Oyoqlar bilan ikkinchi zARBni berish bilan bir vaqtida. Oyoqlarning birinchi zARBi, yelkalarni tushirish va qo'lni suvgan solish bilan bir vaqtida boshni dastlabki holatga qaytarish. Nafas olish vaqtida yon tomonga burilish kerak emas - 100 metr.

Ikkinci va uchinchi mashqni bajarayotganda qo'llar holatini har burilishda o'zgartirish kerak. Bu mashqlar delfin usulida suzishda harakatiar uyg'unligini takomillashtirish maqsadida qo'llaniladi. Ularni bajarish delfin usulida to'liq koordinatsiyada suzishdan ko'ra yengilroq bo'lib, shug'ullanuvchi kamroq xatoga yo'l qo'yadi.

Suzuvchilar delfin texnikasini buzmagan holda, harakatlar uyg'unligini onsonroq o'zlashtirishadi. Mashqlarni bajarayotganda shuni esda tutish kerakki, qo'l bilan bajariladigan eshuvchi harakat gavda bosh va oyoqlar harakatlariga mos keladi.

Murabbiy suzuvchi oyoqlarini tos-son bo'g'imida bukmasligi va sonni tushirmsligi diqqat bilan kuzatish kerak. O'quvchilarga shuni tushuntirish kerakki, sonning pastga harakati – tos-son bo'g'imining bir oz bo'shashish natijasi; sonning yuqoriga harakati esa- yozilish, faol harakatdir.

Bu mashqlar krol usulida suzish texnikasini xususan, yelka bilan eshuvchi harakatni tez va kuchli boshlashish takomillashtirishga yordam beradi.

3. Delftn usulida oyoq harakatlari va krol usulida qo'llar bilan galma-gal eshuvchi harakatlar yordamida ikki zARBli delfin koordinatsiyasida suzish. Oldinga qarab nafas olish, oyoqlar va songa jipslashtirilgan qo'llar bilan uchinchi oraliq zARBi bilan bir vaqtida 100 metr.

Bu mashq qo'l bilan bajariladigan eshuvchi harakat oxirida nafas olishni o'rgatadi: oyoqlarni uchinchi qo'shimcha zARBasi esa oyoqlar harakati uzlusizligini buzmaydi.

4. Ikki zARBli delfin koordinatsiyasida suzish, bir qo'l oldinga cho'zilgan, ikkinchisi son yonida. Oyoqlar zARB bilart bir vaqtida songa jipslashgan qo'i tomoniga qarab nafas olish; qo'llar holatini oyoqlar zARBi, boshni burish va yelkalarni bo'shashtirish bilan bir vaqtida o'zgartirish. Shu holda oyoqlar bilan uchinchi oraliq zARBini bajarish.

Suzishni davom ettirish oyoqlar zARBasi va jipslashgan qo'i tomoniga qarab nafas olish; ikkinchi zARBa va qo'llar holatini o'zgartirish; uchinchi bir qo'l cho'zilgan, ikkinchisi jipslashgan holatda bajariladi 100 metr.

5. Ko'krakda krol usulida yotgan holda suzish uchun mashqlar - 4×100 metr

6. Ko'krakda krol usulida yotgan holda 200 metr suzib o'tish.

7. Mazkur darsdagi 2,3,4,5, mashqlarni chalqancha yotgan holda bajarish.

8. Chalqancha krol usulida yotgan holda suzish uchun mashqlar 4×100 metr.

9. Chalqancha krol usulida yotgan holda 200 metli suzib o'tish.

10. Taxtacha bilan oyoqlar yordamida suzish - 500 metr.

11. Ko'krakda krol yotgan holda to'liq koordinatsiyada va qo'llar yordamida nafas olishni to'xtatgan holda - masofa qismlarini suzib o'tish. Orqaga chalqancha krol usulida yotgan holda suzib qaytish.

12. Suv o'yinlari.

Dastlabki 1,5-2 oy davomida shug'ullanuvchilar yangi mashqlarni asta-sekin o'zlashtirib boradi. Shuning uchun, 4×100 metr krol uchun va 4×100 metr chalqancha krol usulida yotgan holda mashqlari darslarida bajarilinadi yoki qisman bajariladi. 1,5-2 oydan so'ng shug'ullanuvchilar darsdagi barcha mashqlarni to'liq hajmda bajaradi.

Gimnastik zalda 30 daqiqli odadagi mashg'ulotning o'rниga qisqa 15 daqiqli badan qizdirish mashqlari bajariladi. Bunda joyida turib va harakatda to'plar otish, rezina amortizator bilan bajariladigan mashqlar qo'shiladi. Bunday qisqa jadal biroq qizdirish suzuvchilarni darsning asosiy qismini bajarishga yaxshi tayyorlaydi.

Suvdagagi mashg'ulot uzunligi 12,5 metr bo'lgan suv havzasini ko'ndalang holda 60 daqiqa davomida bajariladi. Dastlabki 5 daqiqa davomida barcha usullarda tezlikni oshiruvchi va burilishlar bilan bajaruvchi suzish mashqlari suv havzasida ko'ndalang (taxminan 6 metr) bajariladi. Bu suvdagi mashgulotdan oldingi badan qizdirish bo'lib xizmat qiladi. Barcha suzish usullarida tezkor burilishlar mazkur mashg'ulot kunida albatta bajarish kerak. Burilishlar texnikasini, shuningdek, dars yakunida ham takomillashtirish mumkin.

Shug'ullanuvchilar uchlashib yoki to'rttalashib suv havzasini taxminan 12,5 metr murabbiy bo'yicha suzishadi.

So'ngra biroz dam olishadi va murabbiyni navbatdagi buyrug'ini kutishadi.

3 yoki 4 kishilik guruhga kuchi bir xil o'quvchilar tanlanadi, shu bois, dars davomida shug'ullanuvchilar o'zaro bellashadilar.

Keyingi 15 daqiqa davomida oyoqlar yordamida suzish mashqlari bajariladi:

1. Har bir uchlik chalqancha krol usulida yotgan holda oyoqlar yordamida tezlanish bilan 4 marta suzadi; ikki marta qo'llar cho'zilgan ikki marta bir qo'l cho'zilgan, ikkinchisi jipslashgan.

2. Har bir uchlik ko'krakda krol usulida yotgan holda qo'llarni jipslashtirib oyoqlar yordamida 4 marta suzadi; tezlanish bilan, nafas olishni to'xtatib, shong'ish bilan.

3. Har bir uchlik ko'krakda krol usulida yotgan holda qo'lini cho'zib, oyoqlar yordamida tezlanish bilan, nafas olishni to'xtatib, shong'ish bilan 4 marta suzadi.

4. Yuqorida ko'rsatilgan mashq, biroq bir qo'l cho'zilgan, ikkinchisi jipslashgan tezlanish bilan, nafas olishni to'xtatib, sho'ng'ish bilan suzish. Nafas olish uchun doimo boshni murabbiy turgan tomonga burgan holda suzishi kerak.

5. Delfin usulida jipslashgan qo'llar bilan oyoqlar yordamida 4 marta suzish: tezlanish bilan nafas olishni to'xtatib, sho'ng'ish bilan suzish.

6. Yuqoridagidek mashq, faqat qo'llar oldinga cho'zilgan.

7. Yuqoridagidek mashq, biroq bir qo'l cho'zilgan ikkinchisi jipslashgan.

8. Chalqancha krol usulida yotgan holda delfin usulida oyoqlar yordamida 4 marta suzib o'tish; qo'llar oldinga cho'zilgan tezlanish bilan.

30 daqiqa - qo'llar yordamida va to'liq koordinatsiyada suzish:

1. Chalqancha krol usulida yotgan holda qo'llar yordamida 10-12 minut suzib o'tish; tezlanish bilan nafas

olishni to'xtatib suzish.

2. Nafas olishni to'xtatib tezlanish bilan chalqancha krol usulida yotgan holda 10-12 marta suzib o'tish.

3. Nafas olishni to'xtatib, tezlanish bilan ko'krakda krol usulida yotgan holda qo'llar yordamida 10-12 marta suzib o'tish.

4. Nafas olishni to'xtatib, tezlanish bilan ko'krakda krol usulida yotgan holda 10-12 marta suzib o'tish.

5. Nafas olishi to'xtatib, tezlanish bilan delfin usulida 12-15 marta suzish.

To'liq koordinatsiyada va qo'llar yordamida suzish uchun ko'p vaqt kerak bo'ladi, chunki murabbiy har bir masofa qismi suzib o'tilgach, texnikaga oid fikr bildiradi. Suzish maromi kamayadi, tanaffus (to'xtalish)lar vaqtini ko'payadi. Har bir usulda suzish o'rtacha hisobda 10 daqiqadan vaqtini egallaydi. Qolgan vaqtda suv o'yinlari o'tkazish mumkin. Suv havzasida ko'ndalangiga suzish sekundomersiz o'tkaziladi.

"Tezlik kuni" da tezkorlik sifati takomillashtiradi. Shunda shug'ullanuvchilar kam toliqadilar va tezda o'z kuchlarini tiklaydilar. Musobaqadan bir kun oldin o'tkaziladigan "Tezlik kuni" suzuvchilarni muvaffaqiyatlari ishtiroy etishiga va yaxshi natijalar ko'rsatishiga yordam beradi. Fevral, mart, aprel oylarida avvalgi mashg'ulot sxemasi qoladi, lekin haftada bir marta sekundamer nazorati ostida 100, 200 yoki 400 metrga barcha usullarda suzish mashqlari kiritiladi. Shu tariqa, 1-haftada shug'ullanuvchilar haftada bir marta ko'krakda krol usulida yotgan holda 100 metrni suzib o'tishadi; 2-haftada chalqancha krol usulida yotgan holda 100 metr; 3-haftada delfin usulida 100 metr; 4-haftada brass usulida suzishadi.

Keyingi uch hafta davomida huddi shu tartibda barcha usullarda delfin usulisziz 200 metrli masofa suzib o'tiladi va yana 3 haftada - 400 metr. Shundan so'ng, sekundomer nazorati ostida suzib o'tiladigan. Masofa teskari tartibda kamayib boradi yana uch hafta davomida shug'ullanuvchilar 200 metrli masofani suzib o'tishadi va 4 hafta ichida barcha usullarda 100 metrni suzib o'tishadi.

Sekundomer nazorati ostida suzish mashqlari o'tkaziladigan kun mashg'ulot mundarijasi va hajmi o'zgaradi. Mashg'ulot 600 metrli badan qizdirish mashqi bilan boshlanadi.

1. mashgulot kuni:

1) Cho'zilgan va jipslashgan qo'llar bilan ko'krakda krol usulida oyoqlar yordamida 200 metr suzish.

2) Sekundomer nazorati ostida suzib o'tiladigan masofaga bog'liq holda, krol va chalqancha krol usullarida yotgan holda 4x50 metr suzish mashqlari.

3) Suzish usuliga bog'liq ravishda ko'krakda krol yoki chalqancha krol usullarida yotgan holda 200 metr suzish.

4) 2 marta 12,15 metr nafasni to'xtatib ko'krakda krol vaqt. Chalqancha krol usullarida yotgan holda suzish.

2.ashg'ulot kuni:

1) Jipslashgan yoki cho'zilgan qo'llar bila delfin usulrda oyoqlar yordamida 200 metr suzish.

2) Ko'krakda krol usulida yotgan holda 200 metr suzish.

3) Qo'llarni sonlar yonida to'xtatib, yakka zarbli birlashgan koordinatsiyada 200 metr suzish. To'xtaganda - nafas olish.

4) Nafasni to'xtatib, delfin usulida 2 marta suzish.

3. mashg'ulot kuni:

1) Oyoqlar yordamida brass usulida 200 metr suzish,

2) Har 50 metrda oyoqlar yordamida brass usulida suzishni, qo'llar yordamida brass usulida suzish bilan galma-gal bajargan holda 200 metr suzib o'tish.

3) Brass usulida 200 metr suzish.

Mashqni birinchi marta bajarilgan shug'ullanuvchilar zo'riqmasligi uchun dastlabki 100 metr masofaga suzish burilishdan bajariladi. Qolgan barcha masofalar, jumladan, 100 metrlar ham (400 va 200 metr masofadan so'ng bajariladi) startdan suzib o'tiladi. Darsda sekundomer nazorati ostidan suzish mashqlari nihoyasiga yetgach, shug'ullanuvchilar suvdan chiqmasdan darsni davom ettirishadi va suzishadi: 1500 metr taxtachali oyoqlar yordamida (suzish usulli mashg'ulot kuniga mos keladi), 2.8x100 metr (uchinchi o'quv yili. 1,2,3 mashg'ulot

kunlari), 3200 metr to'liq koordinatsiyada. Dars yakunida suv o'yinlari, suvgaga sakrashlar bajariladi.

Yil oxirida hamma shug'ullanuvchilar harcha usullardagi 4x100 metr sinov ishida qatnashdilar. Natijaviy sinov ishi to'rt dars davom etadi. Har bir mashg'ulotda ishtirokchilar barcha suzish usulida startga chiqadi. Vaqt birinchiligi uchun suzishdan oldin shug'ullanuvchilar 600 metrli badan qizdirish mashqlarni bajarishadi sinov ishidan so'ng oyoqlar yordamida 500 metrni suzib o'tadilar yoki suvda o'ynaydilar, suvgaga sakraydilar.

Uchinchi yil oxirida o'smir suzuvchilar suzish bo'yicha III toifani muvaffaqiyatlida bajaradilar. III toifadan yuqori bo'lgan natijalarni ko'rsatgan suzuvchilar bolalar sport maktablari, shahar birinchiliklarida ishtirok etishadi.

Har bir mashg'ulotda suzib o'tiladigan masofa qismlarining umumiy metraji uchinchi ta'limganda bu yoshdagida bolalar uchun 2500 metrgacha yetkazilishi mumkin delfin usulida mashq qilish kuni esa bir munkha kamaytirilishi mumkin.

Sprinter-suzuvchilarning mashq qilishi

Sprinter uchun o'rtacha va uzun masofalarga ixtisoslashgan suzuvchilardan farqli ravishda, yuqori darajada rivojlangan harakatlar quvvati va bir munkha pastroq darajadagi chidamlilik talab etiladi. Biroq, sprinterlar musobaqalarda 50, 100 va 200 metr masofaga start olishgani bois, chidamlilik ular uchun zarur bo'lib, tayyorlovchi mashg'ulotlarda shu xislatni rivojlantiruvchi mashqlarni ham qo'llashlari lozir.

Sprinterni tayyorlash dasturiga masofaviy suzish hamda qisqa dam olish tanaffuslari bo'yicha oraliq (intervalli) mashg'ulotlarni ham kiritish kerak. Tabiiyki, ularni tayyorlash dasturlarida tezkorlik xususiyatlarini rivojlantirishga asosiy e'tibor qaratish lozim. Sprinterni mashq qilishini boshqa farq

qiladi:

• Anaerob yo'nalishdagi mashqlar ko'proq qo'llaniladi; eng avvalo, bu takroran suzishda sprinter tezlanishlari va tezkorlikni rivojlantiruvchi mashqlar.

• Suvda bajariladigan mashqlarni umumiy hajmi kichikroq (sprinterlar mashg'ulotlar o'rtacha masofaga suzuvchi suzuvchilardan farqli ravishda 20-30% ga kamroq metr va kilometrlarni suzib o'tadi, biroq ular o'z masofalarini o'ta katta tezlikda suzib o'tishadi).

• Mashg'ulot sikllarida qisqa masofa bo'laklari va ular orasida uzoq davom etuvchi dam olish tanaffuslarining bo'lishi (masalan, boshqa suzuvchilar 8x150 metr suzishganda, sprinterlar 8x100 metr yoki 8x75 metrni 8x150 metr mashqi uchun berilgan vaqt ichida suzib o'tishadi).

Sprinterlar o'z organizmlarini shunday tarzda mashq qildirishadiki, toki uning energetik quvvatini va kislorod tanqisligi sharoitida yuqori jadallikdagi ishni bajarish qobiliyatini sezilarli oshirishga imkon bo'lsin. Bu esa, mashg'ulotlarda har kuni tezkorlikni rivojlantiruvchi mashqlarni qo'llashish talab qiladi.

Stayyer-suzuvchining mashq qilishi.

Stayyer suzuvchilarni mashq qilish dasturlarining asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

• Aerob yo'nalishdagi katta hajmda ish bajariladi. Eng avvalo, bu - masofaviy mashqlari, masofa qismlari orasida qisqa tanaffuslar bo'lgan oraliq (intervalli) mashg'ulotlar.

• Suvda o'tiladigan mashqlarni katta hajmda bajarilishi; odadta boshqa suzuvchilarni suzish tayyorgarlik hajmidan 20-40% ko'proq (stayyerlarga suv havzasida mashq qilish uchun yetarli vaqt ajratilish sharti bilan).

Mashg'ulotlar orasida nisbatan uzun masofa qismlarini qo'llash (boshqa suzuvchilar 8x150 metr mashqlarini bajarganda, stayyerlar 6-8x300 metrni suzib o'tishadi).

Stayyerlarni tayyorlash uchun eng muvofiq bo'lgan mashg'ulotlar seriyasini keltiramiz. Ularni katta yosh guruhdagi suzuvchilar alohida mashg'ulotlarda qo'llaydilar.

20-40x100 metr

10-20x200 metr

8-14x300 metr

10-12x400 metr

4-8x800 metr

1-3x1500 metr

Hatto uzoq masofaga suzuvchi kuchli sportchilar ham tayyorlanish dasturlaridan tezkor mashqlarini: sprinter tezlanishlari, takroriy mashg'ulot, yuqori jadallikdan mashg'ulot yuqori jadallikdagi mashqlar tashlamaydi.

Barcha suzuvchilar qanday masofada suzishdan qat'iy nazar ixtisoslashtirilgan mashq qilish dasturiga muxtojdir. Bunda stayyer suzuvchilar chidamlilikni rivojlantirish mashqlarga ko'proq e'tibor qaratadi.

Suzuvchilarни tezkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish usullari va vositalari

Suzuvchining tezkorlik qobiliyatları qisqa masofa mutlaq yuqori tezlikda suzib o'ta olishi bilan tariflanadi. O'smir suzuvchi bunday tezlikni 50 metrdan katta bo'limgan masofa bo'lagida saqlab qolishi mumkin. Tezkorlik qobiliyatları elementar va majburiy turlarga bo'linadi.

Elementar tezkorlik qibiliyatları quyidagilar:

- alohida harakatni bajarish tezligi;
- harakatni tez boshlash qobiliyati;
- og'irlashtirilmagan harakatlarni maksimal chastotasi (maromli);

Majmuaviy tezkorlik qibiliyatlariga suzishning maksimal tezligi, start va burilishlarni bajarish tezkorligi kiradi.

Tezkorlik qibiliyatları asab jarayonlari faolligi, mushaklar faoliyatini neyromushak boshqaruvchi mukammaligi va sport

texnikasi sifatiga, k 'p jihatdan bog'liq bo'ladi.

Startda reaksiya vaqtasi asosan, asab jarayonlarining tezligi va faolligi asab tizimi holati bilan belgilanadi, harakatlarning maksimal maromini rivojlantirish va saqlab qolish qobiliyatiga asab jarayonlarining labilligi va bo'g'implarning harakatchanligi ta'sir ko'rsatadi. Suzishni maksimal maromi birinchi navbatda, tezkor-kuch qibiliyatları bilan belgilanadi.

Harakat reaksiyasining rivojlanishi startni samarali bajarish va estafetali suzishda bosqichlar almashuvi uchun ahamiyatga egadir. Shu maqsadda start signaliga javob reaksiyasi va keyingi harakatlar tezligini alohida takomillashtirish, kichik vaqt oraliqlarini farqlash qobiliyati, itarilish va sakrashni samarali bajarishga e'tibor harakatini o'rganish qo'llaniladi. Shuni nazarda tutish kerakki, harakat reaksiyasi tezligi konservativ ko'rsatkich bo'lib, mashg'ulotda biroz yaxshilanadi, atigi soniyaning yuzdan bir necha ulushiga). Mashqlar, asosan, start signaliga reaksiya vaqtini turg'unligini oshirishiga yordam beradi.

Tezkorlik qibiliyatlarining maksimal maromini rivojlantirish uchun-harakatlarning yuqori jadalligi rag'batlantiruvchi ahamiyat kasb etadi. Harakatlarni maksimal maromiga erishish uchun 3-4 soniya zarur. Yana 3-5 soniya davomida maksimal maromni saqlab qolish mumkin. Tezkor yo'nalishdagi yuklamalar orasidagi intervallar (tanaffuslar) ishchanlik qobiliyatini deyarli to'liq tiklanishini ta'minlashi kerak.

Shu bilan bir vaqtida, tanaffus davomiyligi markaziy asab tizimini qo'zg'alish darajasini sezilarli kamayishi yuz bermaydigan tarzda bo'lishi kerak,

Tezkorlik qibiliyatlar suzuvchining texnik mahorati bilan uzviy bog'liq. Suzish texnikasini oqilona varianti, start va burilishlani ratsional bajarilishi bo'lmasa yuqori tezlikka ham erishib bo'lmaydi. Suzish texnikasining maromli variantini tanlangan usul yordamida mukammallashtirish, harakatlarni mushaklarni ortiqcha zo'riqtirmasdan aniqlik va muvofiq

amplitudani saqlagan holda, bajara olish - tezkor qobiliyatlarni yuqori darajasining muhim shartidir.

Suzuvchi harakatlarning maksimal tezligi, shuningdek, maxsus kuch tayyorgarligi, anaerob va alaktat energiya manbalari quvvati: mushak hujayralaridagi ATF, kreatinfosfat, mioglobin zaxirasi, biokimyoviy anaerob reaksiyalarni sodir bo'lish tezligiga ham bog'liqdir.

Tezkorlik qobiliyatlarini fiziologik asosini markaziy asab tizimi qo'zg'a-luvchanligi va faoliyatining optimal darajasi; harakat apparatining koordinatsion mexanizmining mukammalligi; asab jarayonlari faolligi; mushaklarni tez qisqarishi va qo'zg'alish holatidan bo'shashgan holati tez o'tish qobiliyati tashkil etadi. Tezkorlik qobiliyatlarini, odatda, epchillik va koordinatsiya bilan o'zaro uyg'unlikda rivojlantiriladi.

O'smir suzuvchilarda tezkorlik qibiliyatlarini rivojlantirish yordam beradi: quruqlikda bajariladigan mashqlarda tezkorlik namoyon bo'lishini elementar shakllari; harakat reaksiyasi tezkorligi; maksimal harakat maromini rivojlantirish, bir martali "portlovchi" harakatlar (masalan, vuqoriga sakrab chiqish, to'ldirma to'p otish, yotgan holda yerda qo'llar va oyoqlar bilan itarilish)ni yuqori tezlikda bajarish qobiliyatlarini.

Tezkorlik qibiliyatlarini rivojlantirish uchun quvidagi irodaviy xislatlar talab etadi: fikrni jamlay olish; bellashuv jarayonida qisqa masofani maksimal tezlikda suzib o'tish uchun optimal tayyorlik holatiga olib kelish.

Suzuvchi startda masofa o'rtasida marrada, start (tezlanish)larni bajarishga ruhan va taktik jihatdan tayyor bolishi kerak.

Tezkorlik qibiliyatlarini shakllantirish ratsional sport texnikasini o'zlashtirish jarayonida boshlanadi. Eng avvalo, o'rtacha va qisqa masofalar, ularni qismlarida turli maromda suzishda harakatlar aniqligi va erkinligiga erishiladi. Suzish texnikasi qancha mukammal bo'lsa, o'quv mashq qilish guruhlarida qisqa masofa qismlarida sprinter suzish bilan bog'liq estafeta va o'yinlar shuncha katta hajmda qo'llaniladi.

Spurtlar va marra tezlanishlarini bajarish uchun tezkor maromdagi texnika variantlarini shakllantirishi, start va burilishdan 10-15 metrli masofa qismlarini suzib o'tish texnikasini o'zlashtirishga e'tibor qaratiladi.

Texnika asoslari puxta o'zlashtirib borishgan sari (o'quv mashq qilish guruhida tayyorlanishining 3-4- yillari) eshuvchi harakatlar kuchini, ularni aniqligi va yengilligini saqlab qolgan holda, asta-sekin oshirib borish vazifasi qo'yiladi.

Bu vazifa va anaerob - alaktat unumдорлик darajasini sezilarli oshirish vazifasi sport takomillashuvi va oliy sport mahorati guruhlarida o'z yechimini topadi. Mazkur guruhda tezkorlik qibiliyatlarini shakllantiruvchi mashqlar suzuvchining maxsus kuch tayyorgarligi va maxsus chidamlilagini oshiruvchi mashqlar bilan uyg'unlashib ketadi.

Tezkorlik qibiliyatlarini rivojlantirish uchun V zonasini yuklamalari qo'llanadi, maksimal kuch jalb etish bilan qisqa masofalar (15-25 metrga suzish). Bunday yuklamalar ulushi o'quv mashq qilish guruhida umumi suzish hajmini 2-3% ini sport takomillashuvi guruhida esa 4-5% ni tashkil etadi.

Bunday yuklamalarni qo'llaganda quyidagi uslubiy qoidalarga amal qilinadi.

1) Mashqlar suzish, startlar, burilishlar texnikasiga e'tibor bergan holda, bajariladi. Nazorat qilinuvchi suzish tezliklari qo'llaniladi. Bunda sportchi harakatlar aniqligi va erkinligini saqlab qolish imkoniga ega bo'ladi.

2) maksimal tezlikda suzish davomiyligi bir urinishda 15-20 soniyadan oshmaydi;

3) shuning alohida «ulush»lari orasida tiklanish uchun qulay bo'lgan tanaffuslar rejalashtiriladi; toliqish belgilari paydo bo'lganda tezkor mashqlar to'xtatiladi yoki ular yengil tartibda bajariladi;

4) mashqlar mashg'ulotning asosiy qismiga qismini rejalashtiradi; bir-ikki sprinter masofa mashg'ulotni yakuniy qismida suzib o'tish mumkin (agar toliqish yuz bermasa);

5) harakatlar bir xilligi yuzaga kelmasligi uchun

mashqlar turli shakllar, sharoitlar, kombinatsiyalarda bajariladi;

6) suzuvchilar bilan ishlashda nazorat masofa qismlarida mutloq suzish tezligini asta-sekin, lekin yildan yilga uzuksiz o'sib borishiga erishish kerak.

Tezkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishning asosiy usullari takroriy, nazorat-bellashuv, o'zgaruvchan masofaviy usullar.

Tezkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishda quyidagi uslublarni qo'llash tavsiya etiladi:

- suv havzasida suzish (nxl2-15 metr ko'rinishida) estafetalar;
- bahslashuv suzish, suzish doskasi bilan suzish, peshqadamlilik bilan suzish;
- turlicha nafas olish variantlari bilan suzish (ikki, uchyosh to'rtta harakatlar siklidan so'ng nafas olish);
- 10-15 metrli masofani suzib o'tish bilan start va burilishlarni bajarish;
- tezlanish bilan suzish;
- katta tezlikda suzib, asta-sekin yuklamani kamaytirish (suzuvchi qisqa masofada katta tezlikni rivojlantirib, uni saqlab qolishga intilib, "bo'shashgan" harakatlantirishda davom etadi);
- bir uchi bilan suzuvchi kamariga mahkamlangan va oldindan cho'zilgan rezina amortizator yordamida suzish.

Har bir sportchi uchun aynan u uchun qulay marom kattaligi mavjud bo'lib, uni oshirishga intilganda, eshuvchi harakatlar samaradorligi kamayadi.

Sprinter suzuvchilarda optimal harakat, maromini olib kelishi mumkin. Tezlik to'sig'ining mashqlarini turli variantlarda bajarish, yengillashtirilgan peshqadamlilik usullari yordamida (kurakchalar yoki katta bo'lмаган qo'shimcha qarshilik bilan suzish hisobiga) yengish mumkin. Maksimal jadallikdagi mashqlarni submaksimal tezlanishli mashqlar bilan galma-gal bajarilishi tavsiya etiladi, bu ham sportchiga eshuvchi harakatlar nazorat qilish imkonini beradi va maksimal suzish

tezligini oshirish uchun sharoit yaratadi.

Quruqlikda tezkor javob reaksiyasi, bir faoliyat turidan boshqasiga tez o'tishini talab etuvchi harakatchan va sport o'yinlari qo'llaniladi. Imkon chegarasidagi tezlikda suzishda, ayrim hollarda harakatlar tangligi kuzatiladi.

Bunga sabab:

- 1) Emotsional hayajon holati, xususan, bor kuchi bilan suzish istagi.
- 2) Suzish texnikasini yetarlicha o'zlashtirmaganligi tufayli kelib chiquvchi vazirli koordinatsion murakkabligi.
- 3) Sust kuch tayyorgarligi, natijada, o'quvchi vazifasi bajarishiga harakat qilib, hatto harakatlarda bevosa itishirok etmaydigan mushak guruhlar ham zo'riqtiradi

3.4.Suzuvchilarning egiluvchanligini rivojlantirish. Bo'g'umlarlardagi harakatchanlikning suzish uchun ahamiyati.

Garchi bo'g'imlar passiv harakat apparatiga talluqli bo'lsada, inson tanasi segmentlari harakatlarning geometrik xususiyatlari – harakat yo'nalishi va amplitudasi aynan bo'g'imlar shakliga hamda kattaligiga bog'liq bo'ladi. Harakat yo'nalishlari va shaklarining turli-tumanligi – bukilish va yozilish, uzatish va keltirish rogtasiya (supinasiya va pronasiya) asosiy bo'g'imlarining erkinlik darajasiga bog'liq. Tana segmenlari harakatining hajmi bo'gimlardagi harakatchanlik bilan belgilanadi va bo'g'im sirti kattaligiga, mushaklar hamda boylamalarning holatiga bog'liq.

"Bo'g'imlardagi "harakatchanlik" tushshunchasi "egiluvchanlik" tushshunchasi bilan chambarchas bog'liq. Egiluvchanlik deganda harakatlarni katta amplituda bilan bajarishga imkon beruvchi jismoniy sifat tushuniladi. Ko'pincha bu ikkita tushshunchani sinonim deb qabul qiladilar, biroq ularning orasida ma'lum bir farq mavjud. Bo'g'imlardagi harakatchanlik deganda muayyan bo'g'imdag'i harakat hajmi,

egiluvchanlik deganda esa tananing biron-bir azosiga yoki azolaridagi harakatlar hajmi tushiniladi. Biroq suzuvchilar maxsus egiluvchanlikni namoyon qilish uchun katta imkoniyatlarga egalar.

Egiluvchanlik namoyon bo'lishining ikkita shakli ajratiladi: faol, u mashqlarni mustaqil bajarish sharoitlarda o'zining mushak kuchlanishlari evaziga harakatlar amplitudasining kattaligi bilan tavsiyalanadi: passiv (sust), u tashqi kuchlar ta'sirida erishiladigan harakatlarning maksimal amplitudasi kattaligi bilan tavsiflanadi: 1-a rasmda og'rlik yordamida va 1-b rasmda sherik yordamida.

Passiv (sust) mashqlarda, faol mashqlar qaraganda, harakatlarning katta amplitudasiga erishiladi. Faol va passiv egiluvchanlik ko'rsatgichlari o'rtasidagi farq zaxiradagi cho'ziluvchanlik yoki egiluvchanlik zaxirasi deyiladi.

Shuningdek, umumiy va maxsus egiluvchanlik ajratiladi. Umumiy egiluvchanlik tananing barcha bo'g'imlaridagi harakatlarni ifodalaydi va turli-tuman harakatlarni katta amplituda bilan bajarish imkoniyatini beradi. Maxsus egiluvchanlik – sport faoliyat samaradorligini belgilab beruvchi ayrim bo'g'imlarni eng katta harakatchanlikdir.

Egiluvchanlik mushaklar va boylamalarni cho'ziltirishga mo'ljallangan mashqlar yordamida rivojlantiriladi.

Umumiy holatda ularni nafaqat faol, passiv yo'nalishga ko'ra, balki mushaklarni ishlash xususiyatiga qarab ham tasniflash mumkin. Dinamik, statik, shuningdek, aralash statodinamik mashqlar ajratiladi.

Egiluvchanlikni tarbiyalash ishlarining hammasini ikkita katta bosqichga bo'lish mumkin: bazaviy tayyorgarlik bosqichi va maxsus tayyorgarlik bosqichi. Birinchi bosqichda egiluvchanlikka poydevor qo'yiladi, yo'nalishi, amplitudasi, kuchlanishlar kattaligi har xil bo'lgan mashqlar qo'llaniladi, shu qatorda suzish ixtisosligining uziga xos xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan tor doiradagi maqsadli tayyorgarlik olib boriladi.

Suzuvchining maxsus egiluvchanligi mushak-boylam apparatini cho'ziltirishga mo'ljallangan ma'lum bir mashqlarni bajarish jarayonida egallanadi.

Egiluvchanlik ko'pgina omillarga va birinchi navbatda, boylamlar mushaklarning cho'ziluvchanlik xususiyatlariga, shuningdek, mushaklar tonusining asab boshqaruviga bog'liq. Shuningdek, u shug'ullanuvchilarning jinsiga, yoshiga, shug'ullanish vaqtiga (ertalab egiluvchanlik past darajada bo'ladi) bog'liq. Egiluvchanlikni tarbiyalashga qaratilgan mashqlar avval puxta badan qizdirish mashqlari bajarilgandan so'ng o'tkaziladi.

Bolalar, kattalarga qaraganda, ancha egiluvchanroq bo'ladi. Bu sifatni 9-14 yoshda rivojlantirgan yaxshiroq. Odadta, qizlarda bu sifat o'g'il bolalarga nisbatan 20-25% ko'proq rivojlangan bo'ladi. Egiluvchanlik yosh ulg'aygan sari 17-20 yoshgacha o'sib boradi, undan so'ng insonning harakat amplitudasi yoshga xos o'zgarishlar natijasida kamayadi. Ayollarda egiluvchanlik, erkaklarga qaraganda, 20-30%ga yuqoriqoq.

- Egiluvchanlik quyidagilarga bog'liq;
- Bo'g'imlarning tuzilishi
- Mushaklar, boylamlar, bo'g'im xaltalarining cho'ziluvchanligi
 - Psixik holat
 - Cho'ziladigan mushaklarning faoliik darajasi
 - Badan qizdirish
 - Massaj
 - Muhim va tana harakati
 - Sutka davri
 - Yosh
 - Kuch tayyorgarlik darajasi
 - Tana va uning a'zolarining dastlabki holati
 - Harakat maromi
 - Mushaklarning dastlabki zo'riqishlari



A



B
28-rasm.

Gavda tuzilishi astenik tipga xos bo'lgan kishilarda mushakli va piyonik tipga xos shaxslarga qaraganda bo'g'imlardagi harakatchanlik kamroq bo'ladi. Qo'zg'alish paytdagi emotsiyonal ko'tarinkilik egiluvchanlikning oshishiga yordam beradi.

Lokal (mahalliy) toliqish ta'sirida faol egiluvchanlik ko'rsatkichlari 11,6%ga kamayadi, passiv egiluvchanlik esa 9,5% ga ortadi. Egiluvchanlikning eng yuqori ko'rsatkichlari sutka davomida 12dan 17gacha va ob-havo harorati yuqori bo'lgan sharoitlarda qayd qilinadi. Oldindan massaj qilish, qaynoq dush, cho'ziltiradigan mashqlarni o'rtacha qo'zg'altirish ham egiluvchanlikning 15%dan ko'proq oshishiga yordam beradi.

Bo'g'imlarning va boylam apparatining individual tuzilishi bo'g'imlardagi harakatchanlik darajasiga jiddiy ta'sir qiladi. Ko'pincha bu ushbu sifatning sportchilarda rivojlanishini cheklab qo'yadi. Taxminan 20% vaziyatlarda bolalarda yaxshi harakatchanlik, 20% hollarda – yomon va 60% vaziyatlarda – o'rtacha harakatchanlik uchraydi.

Egiluvchanlikning chekhanishi boylam apparati bilan bog'liq: boylamlar va bo'g'im kapsulasi qancha qalin bo'lsa hamda bo'g'im kapsulasining tortilishi qancha ko'p bo'lsa, tana segmentlari tutashgan azolarining harakatchanligi shuncha ko'proq cheklangan bo'ladi. Unda tashqi harakatlarning keng qulochli bo'lishi antagonist mushaklarning zo'riqishi bilan chekhanishi mumkin. Shuning uchun egiluvchanlikning namoyon bo'lishi faqat mushaklar, boylamlarining cho'ziluvchan xususiyatlariga, o'zaro tutash bo'g'imlar yuzasining shakli va xususiyatlariga bog'liq bo'lib qolmay, balki cho'ziltiradigan mushaklarning erkin bo'shashtirilishini harakatni amalga oshiruvchi mushaklarning cho'zilishga, ya'ni mushak koordinatsiyasining mukammal rivojlanganligiga bog'liq. Antagonist mushaklarni cho'zilishga bo'lgan qobiliyati qancha yuqori bo'lsa, harakatlarni bajarishda ular kamroq qarshilik ko'rsatadi va bu harakatlar shuncha "yengilroq" bajariladi. Mushaklarning o'zaro nomuvofiq ishlashi bilan bog'liq bo'lgan bo'g'imlardagi sust harakatchanlik "qisilib" bajarilishini keskin sekinlashtiradi, harakat malakalarini o'zlashtirish jarayoni qiyinlashtiradi. Qator hollarda murakkab koordinatsiyali harakatlar texnikasining eng asosiy tarkiblari ishlayotgan tana azolarining harakatchanligi cheklanganligi tufayli bajarilishi mumkin bo'lmay qoladi.

Kuch mashqlarning mumtazam yoki ayrim tayyorgarlik bosqichlarda zo'r berib qo'llanilishi, agar bunda mashg'ulot dasturlariga cho'ziltirish mashqlari kiritilmasa egiluvchanglikning pasayishga olib kelishi mumkin.

Suzishda maxsus egiluvchanlikning namoyon bo'lishi.

Sport suzishi usullari texnikasida bu qanday ifodasini topadi? Boldir-kaft bo'g'imida harakatchanlikning etishmasligi oyoqlar bilan ishlash ishslash samaradorligiga katta ta'sir ko'rsatadi: suzuvchi qadamining kattaligida yo'qotishlar yuzaga keladi. Buning natijasida qo'llar bilan harakat qilish sur'ati oshadi. Yelka bo'g'imlari bilan harakatchanlik qo'llarning

suv ustida olib o'tilishini cheklaydi, qo'lning suvgaga kirish fazasi talablarini buzadi, eshish boshlanishini, aslida, butun eshishni yo'qqa chiqaradi.

Ayniqsa, chalqancha usulda suzuvchilar yelka kamari, yelka va boldir-kaft bo'g'imlaridagi katta harakatchanlik bilan ajralib turadilar. Bu tananing suvdagi holati xususiyati bilan eshish vaqtida qo'llarni harakatlantirayotganda mushaklar guruhini ishga tushirishda imkoniyatlarining cheklanishi bilan tushuntiriladi. Chalqancha erkin suzishda, ko'krakda krol usulida suzishga qaraganda, qo'llar bilan eshish harakatlari tananing dorzal tomoni yo'nali shida amalga oshiriladi.

Bunda bo'g'imlaridagi harakatchanlik anatomik jihatdan cheklangan. Chalqancha krol usulida suzishda texnikaning cheklangan variantligi ham shunga bog'liq.

Chalqancha suzishda eshish harakati har doim uzun bo'ladi, chunki uni ko'krakda krol usulida suzish kabi qisqartirish anatomik jihatdan imkon yo'q, shuning uchun chalqancha suzuvchilar ko'pincha harakatlarni koordinatsiyalashning olti zarbli variantini tanlaydilar. Natijada, oyoqlar bilan bajariladigan harakatlarini va shu bilan birga boldir-kaft bo'g'imlaridagi yaxshi harakatchanlik ahamiyati ortadi.

Shunday qilib, chalqancha suzuvchilarda ko'krakda krol suzuvchilar singari bo'g'imlaridagi harakatchanlikning yetakchi shakllari bir xil yelka bo'g'imlari va yelka kamarining dorsal harakatchanligi, boldir-kaft bo'g'mlarida oyoq tagining bukilishi.

Qo'llarni suv ustidan olib o'tishni bajarishda bo'g'mlarda harakatchanglikning yetishmasligi tanani og'dirish bilan qoplab bo'lmaydi, shuning uchun qoplanish tananing frontal o'qi atrofida harakatlanishni oshirish hisobiga sodir bo'ladi.

Brassda usulida suzishda eng asosiysi oyoqlar bilan ishslash hisoblanadi, bunda oyoqlar bo'g'imlarning harakatchanligi katta ahamiyatga ega. Brassda boshqa suzish usullaridan farqli ravishda, itarilish oyoq kaftining tag qismi bilan amalga

oshiriladi, brass usulida suzuvchilar uchun boldir-kaft bo'g'imlaridagi ichkariga (orqa tomonga) bukilish alohida ahamiyatga ega. Oyoqlarning dastlabki holati ish harakati boshlanishdan oldin, boldirlar vertikal holatda turgan vaqtida boldir-kaft bo'g'imlaridagi orqa tomonga bukilish tayanch hosil qilish uchun yetarli bo'lmaydi. Samarali tayanish uchun oyoq kaftlarini gorizontal tekislikda tashqariga burish zarur

Oyoqlarning dastlabki holatda – bunga tizza bo'g'mdan tashqariga aylanma harakatlarni bajarish yordamida erishiladi. Oyoqlarni burishni tos-son bo'g'imlaridagi yaxshi harakatchanlikda – ichkariga harakatlantirish hisobiga oshirish ham mumkin. Itarilishda oyoqlar qancha keng ochilgan bo'lsa, oyoqlarni bir-biriga yaqinlashtirishda oyoq kaftlarining tashqariga burilishi (supinasiya) katta ahamiyat kasb etadi.

Brassda tananing frontal o'q atrofida tebranma harakatlarda gavdani ko'tarish juda muhim. Bunday harakatlar yelka kamarining yaxshi harakatchanligini va orqaga egilishda umurtqanining bel sohasida yaxshi harakatchanlikni talab qiladi.

Shunday qilib, brassda bo'g'imlaridagi harakatchanlikning quyidagi ko'rsatgichlari muhim ekanligini e'tirof etish mumkin.

- 1) Tizza bo'g'imlarni tashqariga yozish:
- 2) Tos-son bo'g'imlarni tashqariga yozish:
- 3) Bodir-kaft bo'g'imlarni orqa tomonga bukish:
- 4) Yelka kamarining aylanma harakatchanligi:
- 5) Gavdani orqaga egiltirish.

Egiluvchanlikni baholash mezonlari va metodlari.

Bo'g'imlaridagi harakatchanlikni, egiluvchanlikni aniqlash metodikasi ikkita talabga javob berishi lozim: u sodda bo'lishi, ya'ni ommaviy foydalanish uchun qulay bo'lishi hamda axborotli bo'lishi, ya'ni aniq va obyektiv bo'lishi kerak.

Egiluvchanlikni baholashning asosiy mezonini bo'lib sinaluvchi erishish mumkin bo'lgan harakatlarning eng katta amplitudasi hisoblanadi.

Harakat amplitudasi apparaturadan yoki pedagogik testlardan foydalangan holda graduslarda yoki to'g'ri chiziqli o'lchovlarda o'chanadi.

Ularning apparaturali usullari quyidagilardan iborat:

- Mexanik o'lhash (goniometr yordamida):
- Mexanik-elektrli o'lhash (elektrogoniometr yordamida):
 - Optik o'lhash (foto, video, kinoapparatura yordamida):
 - Rentgenografik o'lhash.

Hozirgi paytda egiluvchanlikni o'lhash metodlarini mukammal deb bo'lmaydi. Bunga jiddiy sabablar bor. Ilmiy tadqiqotlarda u, odatda, graduslarda ifodalanadi, amaliyotda esa to'g'ri chiziqli o'lchovlardan foydalaniladi.

Egiluvchanlikni o'lhashda qiyinchilik keltirib chiqaradigan yana bir sabab – bu "ishchi harkatchanlikning" (ish va sport harakatlarni bajarishdagi harakatchanlikning) "skalet egiluvchanlikdan" (anatomik egiluvchanlikdan) farq qilishidir. "Skelet egiluvchanlikni" faqat rentgenogrammlarda aniq o'lhash mumkin. U bo'g'imlarning ustki qismi shakliga va uzunligiga bog'liq bo'ladi.

Tirik insonning bo'g'imlaridagi harakat qulochini aniqlash uchun har xil tuzilishdagi goniometrlar qo'llaniladi. Eng kam tarqalgan tuzilishga ega goniometr ikkita branshlardan hamda ularning biriga mahkamlangan transportirdan iborat (Amar goniometri, Kravitskiy goniometri) Shuningdek, A.A.Belov, G.C.Tumanyan elektrogoniometrlari ham keng qo'llaniladi.

Goniometrlarning umumiyligi kamchiligi shundan iboratki, ularning aylanish o'qini o'lhash olib uchun boriladigan bo'g'imning aylanish o'qiga mos holda o'rnatish lozim bo'ladi. O'qni to'g'ri aniqlab olishning imkoniy yo'q, ayniqsa, agar harakat jarayonida u siljib harakatlansa.

Harakatlarni yorug'lik orqali qayd qilish nafaqat qandaydir holatni qayd etishga (Fotografiya), balki harakat amplitudasini harakat jarayonida o'lhashga (kinotasvirga olish) imkon

beradi. Kinotasvirga olishdan tashqari, siklografiya, kinosiklografiya (judu tez harakatlarni tasvirga tushirish) kabi metodlar, shuningdek, fotogrammalar olish, ya'ni yorishib turgan nuqta harakatlarini fotosuratga olish metodi mavjud. Harakatlarni yorug'lik orqali qayd qilishning jiddiy kamchiliklari shundan iboratki, bo'g'imlardagi harakatchanlik darajasi to'g'risida ma'lumot olish uchun ularni keyinchalik ham qayta ishslash kerak bo'ladi.

Rentgenologik tadqiqot metodining paydo bo'lishi tirik insondagi bo'g'imlarni o'rganish uchun yangi imkoniyatlarni ochib beradi. Uning eng ustunlik jihatni shuki, u suyaklarning joylashishini ko'rish, demak, ularning uzunasiga o'qlari orasidagi burchaklarni aniq o'lhash imkonini beradi.

Biroq rentgenografiya suyak bo'g'imlari yuzasining faqat qayd qilingan holatdagi nisbatlarini o'rganish imkonini beradi.

Kinorentgen tasvir harakatini bajarish jarayonida bo'g'im yuzasi nisbatlarini nafaqat ko'z orqali kuzatishga, balki hisob-kitoblarni amalgalashishga yordam beradi.

Rentgenografiya va kinorentgen tasvir qimmat turishini ham e'tiborga olish kerak, shuningdek, ular sog'liqqa ham zararli ta'sir ko'rsatishi ehtimoldan xoli emas. Mana shu sababli, egiluvchanlikni o'lhash uchun, aytib o'tilgan kamchiliklarga qaramasdan, goniometr yordamida o'lhashlar keng tarqalgan metod sifatida e'tirof etiladi.

Egiluvchanlikni o'lhash metodlarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, metrologiya yetarlicha axborotli, ishonchli, ayni paytda egiluvchanlikni ommaviy va laboratoriya sharoitlarida o'lhash uchun yaroqli bo'lgan usullarga ega emas.

Suzuvchilarga bo'g'imlardagi harakatchanlik, egiluvchanlik darajasini ko'z orqali, santimetrlar chizg'ich yordamida burchak o'lchagichlar (goniometrlar) yoki fotosuratga trasportirlar yordamida aniqlash mumkin.

Bo'imdardagi harakatchanlikni yana fototasvir yordamida ham qayd qilish mumkin. Buning uchun bo'g'imdagisi harakatchanlik maksimal bo'lgandagi chegaralovchi holatlar

fototasvirga tushiriladi. Keyin fotosuratlarga trasportir yordamida bo'g'imlardagi harakatchanlik burchagi o'lchanadi. Fototasvirga olish 2 m dan kam bo'limgan masofadan turib amalga oshiriladi. Obyektiv fotosuratlar individual kartochkaga yopishtirib qo'yiladi. Fotosurat vaqt o'tib qimmatbahoh arxiv yaratish imkoniyat beruvchi ko'rgazmali va axborotga boy material hisoblanadi.

Sport suzish amaliyotida bo'g'imlardagi harakatchanlikni tekshirish.

Bo'g'imlardagi harakatchanlikni o'lchash ko'rsatkichlari saralash vaqtida olingen ma'lumotlarni bolalar kontingentining istiqboliligi, to'g'ri ixtisoslikni tanlashga yo'naltirish (ayniqsa, chalqancha, delfin brass usulida suzishda), bo'lmardagi harakatchanlikni rivojlantirish uchun qo'llaniladigan maxsus mashqlarni samaradorligini aniqlash, individual suzish texnikasining oqilona variantini izlab topish va texnik tayyorgarlikni boshqarish nuqtayi nazaridan aniqroq baholashga yordam beradi.

Murabbiy boshlang'ich saralashni o'tkazishda oddiy mashqlar yodamida ko'rikdan o'tayotgan ko'p sonli bolalar orasidan tez va xolis ravishda uchta guruh ajratib olishi mumkin. Birinchi navbatda, bo'g'imlardagi harakatchanlikni yaxshi va yomon bo'lgan bolalar guruhlari ajratib olinadi. Ularning har biriga odatda ko'rikdan o'tayotgan bolalarning umumiyl soniga nisbatan 15-25% gachasi kiradi.

Birinchi guruhda saralangan kelgusida chalqancha, delfin, brass usulida, shuningdek, kompleks suzishda muvaffaqiyat bilan ixtisoslashishlari mumkin. Ikkinci guruhga bo'g'imlardagi harakatchanligi yomon rivojlangan bolalar qabul qilinadi, bu ularda kelgusida suzuchining maxsus egiluvchanligi muvaffaqiyat bilan rivojlanishini shubha ostiga qoldiradi.

Bolalarning qolgan qismi uchinchi, odatda, eng ko'p sonli guruhn tashkil qiladi (umumiyl soniga nisbatan 60% gacha). Bu bolalarda bo'g'imlardagi harakatchanlik o'rtacha darajada

rivojlangan bo'ladi. Sport suzishi bilan shug'ullanishga bo'lgan boshqa moyillik ko'rsatkichlari mavjud bo'lgan taqdirda ular keyingi sport tayyorgarligi uchun, asosan, ko'krakda krol usulida suzishda ixtisoslashish uchun tavsiya qilinishlari mumkin.

Sportchilar tayyorgarligini nazorat qilishda va sport suzishi bilan shug'ullanish uchun saralashning asosiy bosqichini o'tkazishda quyidagi oddiy o'lchashlarni kiritish maqsadga muvofiq: yelka kamarining aylanma harakatchanligini, gavdaning oldinga egilishini, boldir-kaft bo'g'imida oyoq tagining bukilishini, tizza va tos-son bo'g'imlaridan tashqariga aylantirishlarni aniqlash.

Yelka kamarining aylanma harakatchanligi (29-rasm). Suzuvchi gimnastika o'rindig'ida orqamacha yotadi, boshi o'rindiq chetida turadi. Birlashtirilgan qo'llar bosh orqasiga tushirilgan (sekin - shaxsiy og'rliq bilan). Gravitsion goniometr yordamida yelkaning uzunasiga o'qi va gorizontal tekislik orasidagi burchak o'lchanadi.



29-rasm.
Yelka kamarining aylanma harakatchanligi.

Baholash: yaxshi harakatchanlik – $180+15=195$ (ko'z bilan qaraganda: tirsaklar o'rindiqlarning gorizontal tekisligidan pastroq tushiriladi); harakatchanlikning yetishmasligi – o va o

dan kamroq (ko'z bilan qaraganda: tirsaklar o'rindiqning gorizontal tekislikdan yuqoriqda turadi).

Oldinga egilishda gavda tos-son bo'g'implardagi va umurtqa pog'onasining bel hamda pastki ko'krak sohasi bo'g'implardan bukiladi.

Buning uchun tekshiriluvchi, zinada yoki stolda turib, oldinga egilishni bajaradi. Stolga vertikal holatda santimetrlarga bo'lgan chizg'ich tirsak qo'yiladi. Egilivchanlik qo'l barmoqlari uchidan to tayanchgacha bo'lgan masofa bilan baholanadi. O ochkoga baholanadi, egilivchanlik me'yordagi sanaladi. Ushbu holat tekshiriluvchi barmoq uchlari bilan tayanchgacha tegadi. Agar tizzalarni bukmasdan yana ham pastroqqa cho'zilish mumkin bo'lsa, egilivchanlik ochkolarning u yoki boshqa ijobiy soni bilan baholanadi.

Lekin F.A. Dolinko fikricha, bu usullarni umumiylig egilivchanlik darajasini baholash uchun qoniqarli deb hisoblab bo'lmaydi. U egilivchanlikni aniqlash uchun o'zining uslubini taklif qiladi. U kamchiliklardan xoli sanaladi. Bu uslub uchun mualliflik guvohnomasi olingan, 4000 dan ziyod kishlarni ommavly testlashda tajribada sinovdan o'tkaziladi.

F.A. Golinko usulida tana egilivchanlik berilgan dastlabki holatdan maksimal egilish darjasini o'lhash yo'li orqali aniqlanadi. Egilish asosiy tik turish holatida bajariladi, qo'llar holati tashqi tayanchga ushlab turiladi. Vertikal devorchanadan ko'krak qafasi o'rtasidagi nuqtagacha bo'lgan minimal masofa egilish kattaligi hisoblanadi. Egilivchanlik indeksi egilivchanlik kattaligini yettinchi bo'yin umurtqasigacha bo'lgan tana uzunligiga bo'lish bilan hosil qilinadi.


Orqaga egilish 40 mm li gorizontal tayoqchali vertikal devorcha oldida o'lchanadi.

Tayoqlarning uzunligi va holati qo'l bilan 40 dan 100 sm gacha masofada ushslash uchun yetarli bo'lishi kerak.

Agar tayoqchalar yuradigan bo'lsa, ularni kerakli balandlikka o'rnatish mumkin bo'lsa, yaxshiroq.

Ta'riflangan test barqaror hisoblanadi. 15mm davom etadigan badan qizdirishdan so'ng egiluvchanlik indeksi o'zgarmaydi. Oldinga egilish bo'yicha egiluvchanlikni o'lhash usulida xatto oddiy qizib olish ham egiluvchanlikni bir necha martaga oshiradi, bu albatta, haqiqatni to'la aks ettirmaydi.

Boldir-kaft bo'g'imdan oyoq tagini bukish (30-rasm). Suzuvchi gimnastika o'rindig'ida o'tiradi, tekis uzatilgan o'ng (chap) oyoqni o'rindiq uzinasiga qo'yadi. Medial (ichki) tomondan o'lhash nuqtalari belgilab olinadi (oyoq to'pig'i markazi va bosh barmoq tagi). Branshli burchak o'lchagich yordamida oyoq kafti tagini faol bukib turgan holatda suyakning uzunasiga o'qi va oyoq kaftining o'qi orasidagi burchak o'lchanadi.



30-rasm.

Boldir-kaft bo'g'imdan oyoq tagini bukish.

Baholash: yaxshi harakatchanlik – 180 va ko'proq (ko'z bilan qaraganda: egilishda bosh barmoq to'piq bilan bir chiziqda yoki pastroq turadi); harakatchanlik yetarli emas – 160 va kamroq (ko'z bilan qaraganda: oyoq kafti egilganda bosh barmoq tizzaning old yuzasi bilan bir chiziqda turadi).

Tizza bo'g'implardan tashqariga yozish (5-rasm). Suzuvchi tizzalarda tik turgan holatda bo'ladi, tovonlar birga, oyoq kaftlari tashqariga ochladi. Ular orqa tomonga egilish holatida turadi. Suzuvchi tovonlariga o'tish holatiga o'tadi.


Branshli burchak o'lchagich yordamida passiv yozish burchagi, ya'ni oyoq kaftlari o'qlari (oyoq kafti o'rtasi va ikkinchi barmoq chizig'i) orasidagi burchak o'lchanadi.

Baholash: Yaxshi harakatchanlik -150 (ko'z bilan qaraganda: tovonlar poldan 3 sm dan yuqorida emas); harakatchanlik – yetarli – emas 90 va kamroq (ko'z bilan qaraganda: oyoq kaftlari o'qlari orasidagi burchak to'g'risidan kichikroq).



31-rasm.
Tizza bo'g'imlaridan tashqariga yozish.

Tos-son bo'g'imlaridan tashqariga yozish (31-32-rasm). Suzuvchi gimnastika o'rnidig'ida yotadi, tekis uzatilgan oyoqlari birga, oyoq kaftlari bo'shashtirilgan, keyin oyoq kaftlarini maksimal tarzda tashqariga buradi. Branshli burchak o'lchagich yordamida oyoq kaftlari o'qlari orasidagi faol yozish burchagi o'lchanadi.



32-rasm.
Tos-son bo'g'imlaridan tashqariga yozish(ochish).

Baholash: yaxshi harakatchanlik – 120 va ko'proq (ko'z bilan qaraganda: ikkinchi barmoq tovonning pastki qirtasi (cheti) darajasida turadi); yomon harakatchanlik – 90 va kamroq (ko'z bilan qaraganda: oyoq kaftlari orasidagi burchak to'g'ri burchakdan kichikroq).

6-jadvalda suzishning har xil turlari va usullari tomonidan y yoki bu bo'g'imlarining harakatchanligiga qo'yiladigan talablar ko'rsatib o'tilgan.

Saralashning ikkinchi bosqichda burchak o'lchagich yordamida o'lchanadigan bo'g'imlardagi harakatchanlik ko'rsatkichlari bilan bir qatorda qo'shimcha ma'lumotlar ham e'tiborga olingan. Ular texnikaning eng maqsadiga muvofiq variantini tanlab olish uchun suzuvchining individual xususiyatlarini batapsil ko'rib chiqishga imkon beradi. Texnika individualligi qoplanuvchan variantlilik bilan suzish usuliga qarab ayrim bo'g'imlardagi harakatchanlikga qo'yiladigan maxsus talablar (M.I. Saygin, T.O. Yagomyagi, 1983).

Bo'g'imlardagi harakatchanlik

Suzish usullari	Yelka kamarinin g aylanma harakatcha nligi	Boldir-kaft bo'g'imda n oyoq tagini bukish	Gavdani oldinga egish	Tizza va tos-son bo'g'imlari dan tashqariga yozish
Chalqancha	+	+		
Krol	+	+	+	+
Delfin	+	+	+	+
Brass	+	+	+	+
Kompleks suzish	+	+	+	+

Eslatma: Yaxshi harakatchanlik "+" belgisi bilan ko'rsatilgan.

Tavsiflanadi: bir bo'g'imda kam hajmdagi harakatchanlik boshqa bo'g'imlardagi harakatlar bilan qoplanadi. Boshlang'ich (birinchi) saralash bosqichi o'tib bo'lingandan keyingi davrda jinsiy yetilish davri boshlanadi. Ma'lumki, u turli xil individual farqlanishlar bilan o'tadi (akseleratsiya-retirdatsiya va h.k.). Bunday individual o'zgarishlar sport natijalari dinamikasiga ham, sportchining, umuman, morfologik qiyofasiga (maqomiga) ham jiddiy ta'sir qiladi. Shuning uchun morfologik pubertat davri o'tib bo'lingandan so'ng takroran va yanada batafsilroq maxsus egiluvchanlikni hamda bo'g'imlardagi harakatchanlikning individual xususiyatlarini baholash lozim. Bunda saralashning ikkinchi, asosiy bosqichida bo'g' imlardagi harakatchanlik ko'rsatkichlari bilan bir qatorda barcha qo'shimcha belgilari ham e'tiborga olinadi.

Bu qo'shimcha belgilari umumlashtirilganda individual xususiyatlar nuqtayi nazaridan tanlangan suzish usulida suzish texnikasining maqsadga muvofiq variantini tanlab olish va shakllantirish uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Yoshga xos rivojlanishning aynan shu davrida, tananing bo'y jihatidan o'sish sur'atlari tana og'irligining ortib borish sur'atlaridan

orgada qolayotgan paytida u yoki bu usulda suzish bo'yicha ixtisoslashish va suzish texnikasining individual variantini tanlash yuzasidan erta bashoratlar kuchga kira boshlaydi.

Xulosa qilish mumkinki, ilmiy tadqiqotlarda bo'g' imlardagi harakatlar hajmini o'lchashning optik, mexanik, mexanik elekqli, rentgenografik metodlari qo'llaniladi. Murabbiylar ish faoliyatida esa eng oddiy mexanik metodlardan foydalilanildi.

Bo'g' imlardagi harakatlarning turli xil parametrlarini testlashning standart sharoitlariga rivoja etgan holda o'lchash zarur:

- 1) Tana a'zolarining bir xil dastlabki holatlari;
- 2) Bir xil (standart) badan qizdirish;
- 3) Egiluvchanlikni takroran o'lchachlari bir xil vaqtida o'tkazish, chunki bu sharoitlar bo'g' imlardagi harakatchanlikka ta'sir qiladi.

Egiluvchanlikni rivojlantirish metodikasi.

Agar harakat faoliyatining biror turlarida yoki maxsus mashqlarda passiv harakatchanlik ("shpagat", "qaychi burilishlar", "ko'prik") asosiy hisoblansa, boshqalarida faol harakatchanlik (sprinterlik yugurish, yurish muhimroq, uchinchisida maxsus chidamlilikni maksimal namoyon qilish talab etiladi.

Masalan, akrobatikada, gimnastikada, suvgaga sakrashda statik holatlarda namoyon bo'ladigan kuch egiluvchanlik. To'rtinchi turdagи mashqlarda esa ham sust, ham faol egiluvchanlikning yuqori darajada rivojlangan bo'lishi katta ahamiyatga ega. Masalan, tup uloqtirishda, g'ovlar osha yugurishda va h.k.

Mashg'ulot sikkida egiluvchanlikni tarbiyalash uchun qo'llaniladigan metodlar nisbatan o'zgaradi. Tayyorgarlik davrining birinchi bosqichda ko'roq bo'g' imlardagi passiv (sust) harakatchanlik, ikkinchi bosqichda – faol, musobaqa davrida – ham passiv, ham faol harakatchanlik rivojlantiradi.

Agar cho'ziltirish mashqlari mashg'ulotlardan olib tashlansa, bo'g'imlardagi harakatchanlik yomonlashadi, shuning uchun cho'ziltirish mashqlari bilan butun yo'l davomida ularning me'yorlarini o'zgartirib turgan holda shug'ullanish lozim. Masalan, ikki oy tanaffus bo'g'imlardagi harakatchanlik 10-12% ga yomonlashtiradi. Egiluvchanlikni mashq qildirishda barcha asosiy bo'g'imlarning harakatchanligiga tasir qiluvchi keng doiradagi mashqlardan foydalanish zarur, chunki mashg'ulotlarda bir bo'g'imlar harakatchanlikning boshqalariga ijobji ko'chishi kuzatilmaydi.

Egiluvchanlik mushak kuchi bilan optimal nisbatlarida bo'lisci kerak. Bo'g'imlarni o'rab turuvchi mushaklarning yetarlicha rivojlanmaganligi ularning o'ta harakatchanligiga to'siq bo'lisci mumkin.

Anotomik va amaliy nuqtayi nazardan oldinga egilishda tos-son bo'g'imlaridagi katta harakatchanlik va orqaga egilishda kamroq harakatchanlik maqsadga muvofiqdir. Nisbatan kam shiddatli mashqlar uzoq vaqt ta'sir ko'rsatgan sharoitlarda cho'ziltirish mashqlarining samarasini ko'proq bo'ladi. Tadqlqotlarning ko'rsatishicha, cho'ziltirish mashqlarini kuniga ikki marta bajarish maqsadga muvofiq. Egiluvchanlikni saqlab qolish uchun ularni kamroq bajarish mumkin.

Kuch mashqlarni cho'ziltirish mashqlari bilan uyg'unlashtirish egiluvchanlikning har tamonlama rivojlanishiga yordam beradi: faol va passiv egiluvchanlik ko'rsatkichlari o'sadi, ular o'rtasidagi farqlar kamayadi.

Aynan shunday ish rejimini hamma ixtisosdagи sportchilarga maxsus mashqlarda namoyon bo'ladigan faol egiluvchanlikni oshirish uchun tavsiya etish mumkin.

Agar faqat kuch mashqlari bajarilsa, mushaklarning cho'ziluvchanlik qobiliyati kamayadi, va aksincha, mushaklarni mutnazam rivojida cho'ziltirib borish (kuch qisqarishlar bo'lmasan) ularni bo'shashtirib qo'yadi.

Shuning uchun mashg'ulot davomida egiluvchanlik mashqlarni kuch mashqlari bilan tez-tez almashib turilishga alohida etibor qaratish lozim.

Bunday metodika nafaqat malakali atletlar bilan, balki o'smirlar bilan ham ishlaganda kuch va egiluvchanlikning bir vaqtda amalga oshirilishini ta'minlaydi.

Egiluvchanlikni rivojlantirish uchun har xil usuldan foydalaniladi.

1. Cho'zilish shiddatini oshiruvchi purjinasiyon takroriy harakatlarning qo'llanishi.

2. Harakatchanlikni imkon qadar kattaroq amplitudada bajarish.

3. Qaysidir tana a'zosining harakat inersiyasidan foydalanish.

4. Qoshimcha tashqi tayanchdan foydalanish; gimnastika devorchasi tayoqchasidan qo'llar yoki biron bir tana a'zosi bilan ushlab olish, keyinchalik bir tana a'zosini boshqasi tomonga tortish.

5. Sherigining faol yordamidan foydalanish.

Oxirgi vaqtda egiluvchanlik rirojantirishning faol kuch metodi keng tarqalmoqda. Uning asosini A.A. Uxtomskiy fenometri tashkil etadi – mushaklarning 30-60 sekundli izometrik zo'riqishlardan so'ng tekis qo'llarni o'z-o'zidan beixtiyor uzatish.

Masalan, devorga yon tomonga bilan tiralib turgan holda qo'lini yon tomonga uzatishni bajarishga urinishdan so'ng shu harakatning beixtiyor amalga oshirilishi. Huddi shunga o'xshash hodisa muvozanatni hamda bo'sh oyoqda rezinali amortizantni cho'zishni bajargandan so'ng kuzatiladi.

Odatda bu holat sportchi o'zi uchun odatiy bo'lgan balandlikka oyog'ini ko'tara olmaydi. Amortizator yechilgandan so'ng oyoq ushbu sportchi uchun odatiy bo'lgan darajadan ancha yuqoriroqqa beixtiyor ko'tariladi.

Egiluvchanlikni rivojlantirishning faol kuch metodida "faollik yetishmaydigan" zonada mushaklarning kuchi ortadi va harakatlar amplitudasi kengayadi.

Egiluvchanlik mashq qilishning ikkita asosiy metodi mavjид: ko'p marta cho'ziltirish metodi va statik cho'ziltirish metodi.

Ko'p marta cho'ziltirish metodi mushaklar mashqlarini ko'p marotaba takrorlashda harakat qulochini asta-sekin oshirib borishi bilan ancha ko'proq cho'zilish xususiyatiga asoslangan. Sportchilar avval mashqni nisbatan kichik amplituda bilan boshlaydilar, keyin uni 8-chi, 12-chi takrorlashlarga kelib maksimumgacha oshiradilar.

Yuqori malakali sportchilar harakatlarni maksimal va unga yaqin bo'lgan amplituda bilan 40 martagacha uzlusiz bajara oladilar. Mashqlarni takrorlashning optimal soni harakat qulochi kamayishining boshlanishidan darak beradi. Cho'ziltirishga mo'ljallangan faol dinamik mashqlarning har birini 8-15 martadan takrorlash samarali hisoblanadi. Mashg'ulot davomida shunday seriyalardan bir nechta bo'lishi mumkin. Ular kichik dam olishlar bilan ketma-ket yoki boshqalari bilan, jumladan kuch mashqlari bilan aralash bajarilishi mumkin. Bunda mushaklarning "qotib qolmasligiga" e'tibor qaratish muhim.

Faol dinamik mashqlar o'quv mashg'ulot darsining hamma qismlariga kiritilishi mumkin. Tayyorgarlik qismida bu mashqlar umumiy va maxsus badan qizdirishning tarkibiy qismi hisoblanadi. Mashg'ulotning asosiy qismida bunday mashqlarni bir necha seriyalar bilan bajarish kerak, bunda ularning asosiy yo'nalishdagi ish bilan almashlab bajarish zarur. Agarda egiluvchanlikni rivojlantirish mashg'ulotning asosiy vazifalaridan biri bo'lsa, cho'ziltirish mashqlarini asosiy qismining ikkinchi yarmida jamlash, uni alohida mustaqil "blok" sifatida ajratish maqsadga muvofiq.

Statik cho'ziltirish metodi cho'zilish kattaligining uning davomiyligiga bog'liqligiga asoslangan.

Avval bo'shashib olish, so'ogra mashq bajarish lozim. Mashq bajarganda oxirgi holatni 10-15 sekunddan bir necha minutgacha ushlab turish zarur. Buning uchun xatxa-yogadan olingan turli-tuman mashqlar ko'proq samaralidir. Bu mashqlar odatda mashg'ulotning tayyorlov va yakuniy qismlarida alohida seriyalar bilan bajariladi yoki mashg'ulotning istalgan qismida alohida mashqlardan foydalilanadi.

Biroq bunday mashqlar kompleksini alohida mashg'ulot ko'rinishida har kuni bajarish katta samara keltiradi. Agar asosiy mashg'ulot ertalabki soatlarda o'tkazilsa, cho'ziltirish uchun mo'ljallangan statik mashqlarni kunning ikkinchi yarmida yoki kechqurun bajarish lozim. Bunday mashg'ulot odatda 30-50 minut vaqtini egallaydi. Agarda asosiy mashg'ulot kechqurun o'tkazilsa, cho'ziltirishga mo'ljallangan statik mashqlar kompleksini ertalabki vaqtda ham bajarish mumkin.

Bu mashqlardan mashg'ulotning tayyorlov qismida, badan qizdirishdan boshlab foydalanish mumkin, undan so'ng dinamik maxsus-tayyorgarlik mashqlari bajariladi.

Bunda mashqlarning bajarilish shiddati asta-sekin ortib boradi. Badan qizdirish shunday o'tkazilganda statik mashqlarni bajarish natijasida bo'g'imlardi harakatchanlikni cheklab turuvchi mushaklar va boylamlar yaxshi cho'ziladi. Keyin dinamik maxsus-tayyorgarlik mashqlari bajarilganda mushaklar qizib oladi va shiddatli ishga tayyor bo'ladi.

Cho'ziltirishga mo'ljallangan statik mashqlar kompleksini sherik bilan ham bajarish mumkin. Bunda uning yordamida egiluvchanlikning mashqni mustaqil bajarish vaqtida erishib bo'lmaydigan chegaralarni zabit etish mumkin bo'ladi.

Har bir yaxlit harakatda alohida mushak guruhlari nafaqat qisqaradi va cho'ziladi, balki bo'shashadi ham. Qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlar tizimi harakat apparining kam energiya sarflagan holda ishlashini ta'minlab beradigan mushak ishi rejimi ko'p foyda keltiradi. Bu shunday vaziyatda mumkin bo'ladiki, agar ish vaqtida faqat ushbu harakatni (holatni)

bajarishda qatnishishda lozim bo'lgan mushaklarga faoliyatga qo'zg'alish holatida tursa.

Bo'shashish uchun mo'ljallangan mashqlar yordamida alohida mushak guruhlarini ongli va erkin tarzda bo'shashtirishni o'rganib olish mumkin hamda shug'ullanuvchilar mashq texnikasini tezroq o'zlashtirishlari mumkin bo'ladi.

Tormozlanish jarayoni va u bilan bog'liq bo'lgan mushaklarning bo'shashishi tiklanish jarayonlarining kechishiga qulay sharoitlar yaratadi. Shuning uchun bo'shashish uchun mashqlardan yana mushaklardagi qon aylanishini yaxshilash yoki chalg'ituvchi mashqlar (ayniqsa, statik xususiyatga ega kuchli zo'riqishlardan so'ng) sifatida foydalaniladi.

Mushaklarni erkin bo'shashtira olish uchun mushaklarning o'zgaruvchan holatini idrok eta olish qobiliyatini, ya'nii har xil darajadagi bo'shashishni rivojlantirish zarur. Bu vazifani hal etish uchun shunday mashqlar qo'llaniladiki, ular yordamida shug'ullanuvchilar quyidagilarni o'rganib olishlari mumkin:

Mushaklarning oddiy, kuchli va kichik zo'riqishga nisbatan zo'riqan va bo'shashgan holatini sezishni aniq farqlay olish.

7-jadval

Kichik maktab yoshidagi bolalarda bo'g'imlardagi harakatchanlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan mashqlarning me'yorlanishi.

(J.K. Xolodov, V.C. Kuznetsov bo'yicha)

O'quvchilar yoshi	Takrororlanishlar soni		
	7-10 yosh	11-14 yosh	15-17 yosh
Umurtqa pog'onasi	20-30	30-40	40-50
Tos-son bo'g'imi	15-25	30-40	35-45
Yelka bo'g'imi	15-25	30-35	35-45

O'quvchilar yoshi	Takrororlanishlar soni		
	7-10 yosh	11-14 yosh	15-17 yosh
Bilak-kaft bo'g'imi	15-25	20-25	25-30
Tizza bo'g'imi	10-15	15-20	20-25
Boldir kaft bo'g'imi	10-15	15-20	20-25

1.Bir guruh mushaklarni zo'riqtirish barobarida boshqalarini bo'shashtirish.

2.Bo'shashgan tana a'zosining energiya harakatini boshqa tana a'zolarining faol harakatlaridan foydalanish yo'li orqali saqlab turish.

3.Harakat siklida dam olish fazasini mustaqil aniqlash va shunga muvofiq mushaklarni maksimal bo'shashtirish.

Egiluvchanlikni rivojlantirishning noan'anaviy metodlari.

Oxirgi vaqtarda egiluvchanlikni rivojlantirishning yangi, noan'anaviy odatlari paydo bo'ldi. Masalan, mushaklarning biomexanikaviy stimulyatsiyasi. U V.T.Nazarov tomonidan ishlab chiqilgan.

Shuningdek, elektrli vibrostimulyator metodi ham mavjud. Bu metod shunga asoslanadiki, cho'ziltirish mashqlarini bajarish vaqtida antagonist mushaklar vibrostimulyatsiya qilinadi, sinergist mushaklar esa elektr stimulyatsiyaga uchraydi. Bu katta harakat amplitudasiga erishishga yordam beradi.

Xatxa-yoga va egiluvchanlik.

Yoganing 84000 holatlari orasidan faqat 84 ta asosiy asan bajariladi. Oddiy ko'z bilan tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, asosiy asanlardan 90% tayanch-harakat apparatinig u yoki bu bo'limi egiluvchanligini rivojlantirishga qaratilgan.

Egiluvchanlikni rivojlantirishning boshqa metodlari bilan taqqoslaganda yoga mashqlari qator ustunliklarga ega. Birinchidan, yogalarning mashqlari unchalik katta mushak zo'riqishi bilan bajarilmaydi, ular tana to'qimalariga shikast

keltirmaydi. Yogalarning mashqlari proprioretseptorlarni (paylar, boyamlar va bo'g'imlar kapsulalaridagi asab tolalari) hamda interoretseptorlarni (ichki organlarning asab tolalari) ishga faol jalb qiladi. Bu zamonaviy tibbiyotda tan olinishicha, sog'lqning eng eng muhim omili hisoblanadi.

Ikkinchidan, yog'larning tanasi o'ta rivojlangan muskulatura bilan ajralib turmaydi. Yog'lar ortiqcha yog' qatlamlarisiz o'smirlardek tikka qad-qomatga egalar.

Uchinchidan, yog'larning mashqlarini individual imkoniyatlardan kelib chiqqan holda bajarish mumkin. Yog'larning holatlari tog'ri tanlanganda va qo'llanilganda organizmning barcha organlari hamda tizimlariga ta'sir qiladi, ularda qonning haydalishini keltirib chiqarmaydi, aksincha, uning aylanishini yaxshilaydi.

To'rtinchidan, ma'lumki, yog'lar bunday jismoniy kamolotga, o'z tanasini boshqara olishiga asrlar davomida o'yangan va ishlab chiqilgan tana holatlarini (asan)almashlash hamda mushaklarni to'la bo'shashtirish evaziga erishganlar. O'z mushaklarini bo'shashtira olish esa egiluvchanlikni rivojlantirishning eng asosiy shartlaridan biridir.

Yog'larning asosiy asanlari biokimyoiy tahlili shunday xulosa qilishga asos beradiki, inson tanasida cho'ziltirishga duch keladigan hech qanday bo'g'im, hattoki hech qanday mushak bo'lagi qolmaydi. Mashqlarning biri tananing orqa yuzasini rivojlantirishga yo'naltirilgan. Uchinchi mashqlar esa yon tomon yuzasini rivojlantirishga qaratilgan. Shuningdek, yoki umurtqani, yoki alohida tana a'zolarini buriltirishda mushaklarni cho'zish imkonini beruvchi mashqlar ham bor.

Tananing orqa yuzasini cho'ziltirishga qaratilgan asanlarni tahlil qilib ko'ramiz.

Tahlilni qulay bajarish uchun tananing orqa yuzasini quyidagi qismalarga bo'lib olamiz:

- a) Umurtqanining bo'yin qismi;
- b) Umurtqanining ko'krak qismi;
- v) Umurtqanining bel qismi;

- g) Dumba mushaklari sohasi;
- d) Sonning orqa yuzasi;
- e) Tizza bo'g'imining orqa yuzasi;
- j) Ilik mushaklari;
- z) Axill paylari

Tananing orqa yuzasi mushaklarini cho'ziltirishga qaratilgan yoga mashqlarini o'tirib, tik turib va yotib dastlabki holatlardan bajariladigan mashqlarga ajratish mumkin.

Yotgan holatdan bajariladigan eng oddiy mashqlar 33-34-rasmarda ko'rsatilgan.

Birinchi holatda bir oyoqning, ikkinchi holatda ikkala oyoqning dumba mushaklari sohasida cho'zilgan.



33-rasm.



34-rasm.

35-36-rasmarda oyoqlarning butun orqa yuzasi – ham sonning orqa yuzasi, ham tizza osti chuqurchasi sohasi, ham ilik mushaklari, ham axill paylari cho'ziltirilayotgan holatlar

ko'rsatilgan. Dumba mushaklari ushbu holda oldingi holatlarga qaraganda (33-34-rasmlar) kamroq cho'zilgan.



35-rasm.



36-rasm.

Axill paylarini cho'ziltirish darajasini oyoq kafti holatliga qarab boshqarish mumkin. Bunda oyoq uchini "o'ziga" olinsa, axill paylari ko'proq cho'ziladi, oyoq uchi cho'zilganda, axill paylari qisqaradi.

Ta'riflangan holatlarda umurtqa tekis holatda qolaveradi. 37-38-rasmlarda ko'rsatigan asanlarni bajarishda umurtqa hamma qismalaridan (ham bo'yin, ham ko'krak, ham bel) bir tekis cho'zilgan.



37-38 rasm.


"Oq qayin" holatida (kuraklarda turish) umurtqaning bo'yin qismi maksimal chizilgan. Dastklabki tik turgan holatda bo'yinni oddiy egish bilan bunday ko'p darajada cho'zillishga erishish mumkin emas, "oq qayin" holatida, tananing yuqori qismi og'irlig'i kuchi, bir tomondan, qattiq tayanch, ikkinchi tomonidan, umurtqa bo'yin qismi orqa yuzasining maksimal cho'zillishiga yordam beradi.

39-40-rasmlarda tasvirlangan holatlar ham tana orqa yuzasi mushaklarining cho'zillish darajasini tahlil qilish uchun katta qiziqish uyg'otadi.

Holatlar tana a'zolarining o'zaro joylashuvi sifatida uchta holatlarda bir xil, biroq ularning bajarilish mexanikasi turlicha. O'tilgan holatlar oldinga egilishga (39-rasm) tayanch maydoni oyoqlarning butun orqa yuzasiga to'g'ri keladi, ya'ni bu holat bajarish uchun eng mustahkam va qulay. Aftidan, bunday holatda mushaklarni bo'shashtirish uchun sharoitlar eng yaxshidir. Bu yogalar mashqlarini bajarishda juda kerak.



39-rasm.



40-rasm.

Tik turgan holatdan oldinga egilishda (40-rasm) muvozanatni boshqarish zarur, chunki tayanch maydoni katta emas, og'irlik kuchining ta'sir qilish chizig'i esa tananing egilish darajasiga qarab tayanch maydoniga nisbatan o'z holatini o'zgartiradi va sonning orqa yuzasi mushaklari kerakli holatni boshqargan holda goh zo'riqadi, goh bo'shashadi.


Ikkita ta'riflangan asanlarda tanani bukish faol, "egiluvchanlik" holatini bajarishda esa (d.h.-orqamacha yotgan holatda tekis oyoqlar ko'tariladi va bosh orqasiga polga sekin

tushiriladi) umurtqanung bo'yin qismi yuqorisida joylashgan tana a'zolarining og'irlik kuchi ta'sirida sust sodir bo'ladi. "So ka" holati oyoqlarni tizza bo'g'imidan bukib, tizzalar bilan tayanchga tegish hisobiga qiyinlashtirilishi mumkin.

Yogalar mashqlarida nafaqat to'g'ri bajarish vaqtin, balki dastlabki holatga to'g'ri qaytish ham katta ahamiyatga ega. Dastlabki holatga qaytishni, kerakli holatga erishish fazasi singari, xuddi shunday tezlik va xuddi shunday kuch berish bilan bajarish zarur.

Tananing old yuzasini cho'ziltirishga mo'ljallangan mashqlar ham har xil dastlabki holatlardan: orqamacha yotib, qoringa yotib, tovonlarda o'tirib, tik turib bajariladi.

Tana old yuzasining bo'yin qismini cho'ziltirish uchun eng oddiy mashq-bu "ilon" holatidir (41-rasm).



41-rasm.



42-rasm.

Biroq bu mashq faqat bo'yin qismiga va ko'krak sohasi qismiga ta'sir qiladi. Bunda bel qismi, sonning, boldir va oyoq kaftining old yuzasi tinch holatda qoladi.

41-rasmida tasvirlangan holat bir vaqtning o'zida sonning old yuzasini va umurtqaning yuqori qismini bo'yin va ko'krak sohalarini cho'ziltirishga imkon beradi.

42-rasmida sonning yuqori qismi va umurtqaning bel sohasini qanday cho'ziltirish mumkinligi ko'rsatilgan.




43-rasm.

"Gildirak" holati (44-rasm) va "kamon" holati (45-rasm) tana old yuzasining barcha sohalarini kompleks holda cho'ziltiruvchi oxirgi holatlardan iborat. Oxirgi ikkita holatni bajarishdagi farq shundan iboratki, "gildirak" holatida ko'proq umurtqaning bel sohasi cho'zilgan, "kamon" holatida esa bel sohasi tayanch hisoblanadi, kamonning "tortilganligi" ko'p jihatdan qo'llarning oyoqlarni tortish kuchi bilan aniqlanadi.



44-rasm.



45-rasm.

"Nilufar gul" holati (46-rasm) yogalarning eng asosiy va go'zal asanlaridan biridir, u sonni qayirish holatini rivojlantiradi. Ushbu bo'limda yoga vositalari yordamida turli bo'g'imir va tana a'zolari egiluvchanligini rivojlantirishning faqat mumkin bo'lgan variantlari ko'rsatib o'tiladi.



46-rasm.

Biroq ta'limotning asosiy tamoyillarini o'zlashtirib olmasdan mashg'ulotlarga kirishish mumkin emas. Boz ustiga, ba'zi qoidalarga rioya qilmas ekansiz, siz nafaqat muvaffaqiyatga erisha olmaysiz, balki o'zingizga zarar keltirishingiz mumkin, chunki har bir mashq nafaqat ijobiyl terapevtik samaraga, balki ma'lum bir qarshi ko'rsatmalarga ham ega. Shu sababli mutlaqo sog'lom kishigina mustaqil, yaxshisi tajribali yoga rahbarligi bilan shug'ullanishi mumkin.

